A. S. Sagdullayev, V. A. Kostetskiy

QADIMGI DUNYO TARIXI

Umumiy o‘rta ta’lim maktablarining 6-sinfi uchun darslik

O‘zbekiston Respublikasi
Xalq ta’limi vazirligi nashrga
tavsiya etgan



Toshkent
2022

www.idum.uz saytidan yuklab olindi

KBK 63.3(0)ya72
UЎK 94(100)(075.3)
S–16

A. Sagdullayev, V. Kostetskiy.
Qadimgi dunyo tarixi: umumiy o‘rta ta’lim maktablarining 6-sinfi uchun darslik / A. Sagdullayev, V. Kostetskiy. 2022. – 192 b.

Taqrizchilar:

D. M. Kenjayev - Prezident ta’lim muassalari agentligi direktorining birinchi o‘rinbosari.
O‘. M. Mavlonov – tarix fanlari doktori.
B. B. Aminov – tarix fanlari doktori.
O. P. Kobzeva – tarix fanlari doktori.
T. M. Bagdasarova – Toshkent shahridagi 49-umumiy o‘rta ta’lim maktabining tarix fani o‘qituvchisi.

Respublika maqsadli kitob jamg‘armasi mablag‘lari hisobidan chop etildi.

Original maket va dizayn konsepsiyasi Respublika ta’lim markazi tomonidan ishlandi.

ISBN 978-9943-8171-1-1

© Respublika ta’lim markazi, 2022

www.idum.uz saytidan yuklab olindi

MUNDARIJA

Kirish.....5

I BO‘LIM

Eng qadimgi tuzumdan sivilizatsiya sari

1-§. Qadimgi tarix ildizlari.....7
2-§. Eng qadimgi odamlarning rivojlanish bosqichlari..... 11
3-§. Urug‘chilik jamiyati.....17
4-§. Eneolit va bronza davri.....21
5-§. O‘rta Osiyo temir asriga o‘tish davrida 26



II BO‘LIM

Qadimgi Sharq va O‘rta Osiyo


6-§. Nil vodiysi va uning aholisi 28
7-§. Qadimgi Misr va qo‘shni davlatlar.....32
8-§. Qadimgi Misrda din.....34
9-§. Piramidalar va daxmalar 36
10-§. Qadimgi Misr madaniyati 40
11-§. Mesopotamiya sivilizatsiyalari 43
12-§. Bobil podsholigi.....48
13-§. Old Osiyo davlatlari.....52
14-§. Ahamoniylar davlati 55
15-§. Qadimgi Hindistondagi ilk sivilizatsiya.....58
16-§. Qadimgi Hindiston madaniyati 62
17-§. Qadimgi Xitoy sivilizatsiyalari 66
18-§. Miloddan avvalgi III asrda Xitoy 69
19–20-§. O‘zbekiston hududidagi qadimiy davlatlar 73
21-§. Zardushtiylik va “Avesto”.....81



III BO‘LIM


Qadimgi Yunoniston

22-§. Antik tarixning boshlanishi.....85
23–24-§. Qadimgi Yunonistonning yuksalishi 88
25-§. Yunon koloniyalari 93
26-§. Afinada demokratiya 95
27–28-§. Yunon-fors urushlari. Makedoniyaning Yunonistonni bosib olishi.....99






www.idum.uz saytidan yuklab olindi



29-§. Yunon fuqarolari tarbiyasi 103
30-§. Qadimgi Yunoniston madaniyati 105
31-§. Qadimgi Yunoniston olimlari va mutafakkirlari 109
32-§. Qadimgi Yunoniston afsonalari 111

IV BO‘LIM

Mil. avv. VI – mil. III asrlarda O‘rta Osiyo



33–34-§. Ahamoniylarning O‘rta Osiyoga bosqinchilik yurishlari 114
35–36-§. O‘rta Osiyo aholisining yunon-makedon istilochilariga qarshi kurashi 122
37-§. Salavkiylar davlati va Yunon-Baqtriya podsholigi 128
38–39-§. Qadimgi Xorazm 132
40-§. Qadimgi Qang‘ va Davan davlatlari 137
41-§. Kushon davlati 143
42-§. Buyuk ipak yo‘li 148

V BO‘LIM

Qadimgi Rim



43-§. Qadimgi Italiya va uning aholisi 151
44-§. Rim respublikasi 154
45-§. Rim respublikasida hayot 158
46-§. Qullar va gladiatorlar 161
47-§. Rim respublikasining qulashi 165
48-§. G‘arbiy Rim imperiyasining tanazzuli va halokati 169
49–50-§. Qadimgi Rim madaniyati 173

Ilova

Tarixiy atamalar lug‘ati 178
Qadimgi dunyo tarixi sanalarda 181
Yakuniy takrorlash 186
Qadimgi dunyo tarixiga oid geografik va tarixiy nomlar 188
Qadimgi dunyo tarixidagi ismlar 189

Tarix hayotning haqiqiy o‘qituvchisidir. Insoniyatning tarixiy rivojlanishidan to‘g‘ri xulosa chiqarilsa, ko‘plab xatolardan qochish mumkin. Tarix bizni sabrli bo‘lishga, shoshilmaslikka, ishlarimizni o‘ylab ko‘rishga o‘rgatadi.

www.idum.uz saytidan yuklab olindi

KIRISH

Bugun Yer yuzidagi ko‘pgina odamlarni uzoq o‘tmish, o‘z xalqi va mamlakati tarixi qiziqtiradi. Qadimgi dunyo tarixi ushbu o‘tmishni o‘rganadi. Bu tarix turli-tuman arxeologik va yozma manbalarda o‘z aksini topgan. Ular qadimiy davr odamlarining hayoti va faoliyati haqida hikoya qilib, savollarimizga javoblar topishga ko‘maklashadi.

Inson tosh qurollarni yasashdan to metallni kashf qilguncha, eng oddiy turarjoylarni qurishdan to dastlabki shaharlarni bunyod etguncha, turli-tuman hunarmandchilik buyumlari, yozuv va boshqalarni yaratguncha uzoq tarixiy yo‘lni bosib o‘tdi.

Insondagi yaratuvchanlik sifati doimo qadrlanib kelgan. Hatto qadim zamonlarda, uzoq ajdodlarimiz hayoti xavf-xatar, tashvishlarga to‘la bo‘lganda ham, ular olamni anglashga harakat qilishgan. Bu esa ma’naviy madaniyat rivojlanishi uchun poydevor bo‘lgan.


Bizning Vatanimiz – O‘zbekiston uzoq va shonli tarixga ega. Aynan shu zaminda uzoq o‘tmishda o‘ziga xos sivilizatsiya yaratildi. Bu yerda qadimgi shaharlar va davlatlar tashkil topgan. Ziroatchilar, hunarmandlar va quruvchilar o‘zlarining mehnati va yaratuvchanlik salohiyati bilan o‘lka dovrug‘ini olamga yoyganlar.

Vatanga muhabbat bosqinchilarga qarshi kurashgan xalq qahramonlari jasoratida namoyon bo‘ladi. Ular yurt ozodligini o‘z hayotlaridan ustun qo‘yganlar.

Ajdodlarimizning jasorati va amalga oshirgan buyuk ishlari qalblarda vatanparvarlik hissini uyg‘otadi, har birimizga Vatan manfaatlarini himoya qilishni o‘rgatadi. Shu bois har birimiz o‘z Vatanimiz tarixini bilishimiz va boshqa mamlakatlar xalqlarining tarixi va madaniyatiga hurmat bilan qarashimiz kerak.

Yer yuzida odam paydo bo‘lganidan to milodiy **476-yilda** G‘arbiy Rim imperiyasi qulaguniga qadar kechgan voqealar tarix fanida **qadimgi dunyo tarixi** deb ataladi.

Qadimgi dunyo tarixi turli manbalarda o‘z aksini topgan.



Xattot haykali

Tarix bizni zo‘ravonlik bilan hamma narsaga erishishga emas, balki o‘zaro murosa va boshqalarga hurmat bilan munosabatda bo‘lishga o‘rgatadi. Tarixni sana va nomlar uchun emas, balki ajdodlarning bebaho yaratuvchanlik tajribasi uchun o‘rganish kerak.

Xalqimiz azaldan ezgulik, tinchlik va bunyodkorlikka intilgan. Bu intilish tarixiy an’analar va boy ma’naviyatga asoslangan, mamlakatimizning buguni va kelajakdagi rivojlanishi, gullab-yashnashi har jihatdan shunga bog‘liq. Biz ajdodlarimizning ezgu ishlarini davom ettirishimiz lozim.


DARSLIK MATNI BILAN ISHLASH

Ushbu darslikni o‘qir ekansiz, ko‘plab tushunilishi qiyin bo‘lgan so‘zlarga, tarixiy atama va iboralarga duch kelasiz. Ularni yodlash, esda saqlash kerak bo‘ladi. Ushbu maslahatlarimizni diqqat bilan o‘qing, ular o‘rganilayotgan mavzuni eslab qolishingizga yordam beradi.

Uyga berilgan topshiriqlarni tayyorlashda quyidagilarga rioya qiling:



Qadimiy yozuv namunalari



1	→	Darsda yozib olganlaringizni bir necha bor o‘qing.
2	→	O‘qishdan oldin mavzu sarlavhasiga diqqat qiling, darsda nimalar deyilganini eslang.
3	→	Har bir mavzu oxirida berilgan savollarni o‘qing. Shunda siz yozganlaringizni o‘qiganingizda nimalarga e’tibor berish lozimligini va o‘qiganlaringizni qay tartibda bayon etish kerakligini bilib olasiz.
4	→	Matnni taxminiy qismlarga bo‘ling va har birining asosiy mazmunini o‘z so‘zlaringiz bilan ayting, keyin butun mavzuni gapirib bering. Gapira olmasangiz, qiyin joylarini qayta o‘qing. Takrorlang. Darslik matnini yod olish kerak emas.
5	→	Matnni o‘qish jarayonida unda eslatilgan rasm va jadvallarni toping, izohlarini o‘qing, matnda uchragan shaharlar, mamlakatlar nomlarini xaritadan toping.
6	→	Savollarga javob bering va mavzu oxiridagi topshiriqlarni bajaring.

I BO‘LIM
ENG QADIMGI TUZUMDAN SIVILIZATSIYA SARI


1-§. Qadimgi tarix ildizlari

Viqorli tog‘lar qoyalarida asrlar davomida qorlar erimaydi. Tog‘ jilg‘alari qo‘shilib, toshqin daryolarni hosil qiladi. Qush uchsa, qanoti kuyadigan sahro, poyonsiz cho‘llarda issiq shamol esib turgan. Karvon yo‘llari kesishgan joylarda dunyoning turli mamlakatlaridan kelgan odamlar to‘planib, qizg‘in savdo-sotiq qilishardi.

Yurtimizning ziroatkor vohalarida asrlar davomida bog‘lar gulga cho‘mardi. Yozma manbalar mardimaydonlarning jasorati haqida so‘zlaydi.

Odamlar cho‘l-u biyobonlarni chamanzorlarga aylantirib, shaharlar, ajoyib inshootlar qurdilar, osmon sirlarini kashf qildilar.

Qarang, osmonda minglab yulduzlar charaqlaydi. Ular shunchalik yaqin tuyuladiki, qo‘l cho‘zsang – yetgudek. Oftobning dastlabki yog‘dularida hashamatli binolarning moviy gumbazlari jilvalanib ko‘rinadi va gumbazlar osmon bilan singishib ketgandek bo‘ladi. Uzoq-uzoqlardan qo‘shiq taralmoqda.



Daryolar sababli yurtimiz vohalarida bog‘lar asrlar davomida yashnab turgan



Bu – ona allasidir. Ona allasidan ona Vatan boshlanadi. Yam-yashil vodiylar va zilol suvli sharqiroq buloqlardan, birinchi o‘qituvchi va kitobdan, biz yashab turgan ko‘cha va xonadon ostonasidan boshlanadi jonajon Vatan.

Bugungi kunda ham serhosil vodiylar, cho‘l va tog‘larda katta-kichik shaharlar, qal’alar va qadim ibodatxonalar qoldiqlarini ko‘ramiz. Odamlar bu joylarni allaqachonlar tark etishgan. Qadim shaharlar xarobalari kimsasiz. Vayronalar unsiz, ularni sho‘r va yovvoyi o‘tlar bosgan.



Biroq odamlar qadami uzilgan bu joylarga qadimshunoslar kelishdi. Ularning sa’y-harakatlari bilan qadimgi shahar va qal’alar xarobalari tuproqlar ostidan yuz ko‘rsatib, uzoq o‘tmishdan so‘zlay boshladi.

Kitob o‘qib, sayohat qilib, muzeylarni borib ko‘rib, tarix va madaniyat yodgorliklari haqida ko‘proq bilimga ega bo‘lamiz.



Qadimiy idishlar

QADIMGI TARIXNI O‘RGANISH

Insoniyatning qadimgi tarixini turli olimlar o‘rganadilar.

Arxeologlar	→	qadim zamonlarda odamlar yashagan manzilgohlarda va turarjoylarda qazishma ishlarini amalga oshiradilar.
Antropologlar	→	qadimgi odamlarning suyak qoldiqlari (skelet va bosh chanoqlari)ni sinchiklab tekshirib, ularning tashqi ko‘rinishini tiklaydilar, ming yillar avvalgi kishilarning tashqi qiyofasida ro‘y bergan o‘zgarishlarni o‘rganadilar.
Etnograflar	→	qadimgi odamlarning ko‘pgina urf-odatlari, xo‘jalik va madaniy an’analarini saqlab qolgan, hozirda yashayotgan qabilalar va elatlarni o‘rganishadi.

Arxeologlar





QADIMGI TARIX BO‘YICHA MANBALAR

Dunyoning turli hududlarida qadimgi davr tarixiga oid keng o‘rganilgan manbalar arxeologlar tomonidan topilgan **moddiy (ashyoviy) manbalar**dir. Arxeologik qazishmalar davomida topilgan mehnat qurollari, sopol idishlar, qurol-aslahalar va zeb-ziynat buyumlari, xullas, qadimda inson qo‘li bilan yaratilgan barcha narsalar shular jumlasiga kiradi.

Arxeologiya ma’lumotlari qadimgi dunyo tarixi haqida to‘la tasavvur berolmaydi. Shu bois olimlar yozma manbalarga ham murojaat etadilar. O‘rta Osiyo tarixi bo‘yicha eng qadimgi yozma manba **“Avesto”** kitobidir. Unda yurtimizning qadimgi tarixi va madaniyati haqida hikoya qilinadi.

Qadimgi davr tarixiga doir yana bir qimmatli yozma manba Erondagi ***Behistun qoyasi yozuvlari***dir.

Fors shohi Doro I buyrug‘i bilan qoyaga o‘yib yozilgan bitiklarda zabt etilgan o‘lkalar qatorida O‘rta Osiyoning qadimgi davlatlari ham sanab o‘tiladi.



Qadimiy qo‘lyozma

ENG QADIMGI TUZUMNI DAVRLASHTIRISH

Jahondagi barcha xalqlarning tarixi **ibtidoiy jamoa tuzumi**dan boshlangan.


Insoniyat rivojidagi birinchi bosqich kishilarning alohida guruhlarga birlashuvi bo‘lib, u eng qadimgi odamlarning dastlabki jamoasi edi.

Milodiy II asrda yunon tarixchisi **Arrian** Makedoniyalik Aleksandrning O‘rta Osiyoga qilgan harbiy yurishlari haqida **“Aleksandrning harbiy yurishlari”** nomli asar yozgan.



Miloddan avvalgi V asrda qadimgi yunon tarixchisi **Gerodot** turli mamlakatlarga sayohat qilib, **“Tarix”** nomli kitobini yozdi. Unda yurtimizning qadimgi tarixi haqida muhim ma’lumotlar berilgan.

Miloddan avvalgi I asr oxirlarida qadimgi yunon tarixchisi va geografi **Strabon** **“Geografiya”** nomli asarida ko‘plab mamlakatlar xalqlari haqida ma’lumotlar keltiradi.





Behistun qoyasi yozuvlari va bo‘rtma tasvirlari



Ibtidoiy urug‘ jamoasi

Ibtidoiy jamoalar asta-sekin qarindosh urug‘laridan iborat alohida **urug‘ jamoalari**ga bo‘lina boshladi.

Dastlabki urug‘ jamoalari ayol – ona atrofida birlashgan. Insoniyat tarixidagi bu bosqich ona urug‘i davri – **matriarxat** deb atalgan.

Ancha keyinroq, mehnat qurollari va xo‘jalik yuritish shakllari takomillashgani sayin jamoadagi yetakchilik mavqeyi asta-sekin erkak kishiga o‘ta boshlagan, bu esa urug‘ga endi erkak kishi boshchilik qilishini anglatardi. Insoniyat tarixidagi ushbu davrni olimlar **patriarxat** – ota urug‘i davri deb atashadi.

Matriarxat	→	Ilk urug‘ jamoalari ayol kishi – ona atrofida birlashgan.
Patriarxat	→	Urug‘dosh jamoalarni erkak kishi boshqarib turgan.

ESLAB QOLING!

Qadimgi tosh davri tarixi **ilk, o‘rta** va **so‘nggi** paleolit davrlariga ajratilib o‘rganiladi

Eng qadimgi odamlar dastlabki mehnat qurollarini toshlardan yasashgan, shunga ko‘ra arxeologlar insoniyat tarixining boshlanishini **“tosh davri”** deb atashadi. Tosh davri ancha uzoq vaqt davom etgan, shuning uchun uni quyidagi bosqichlarga ajratishadi:

Paleolit	→	qadimgi tosh davri (yunoncha *paleos* – “qadimgi” va *litos* – “tosh”)
Mezolit	→	o‘rta tosh davri (yunoncha *mezos* – “o‘rta” va *litos* – “tosh”)
Neolit	→	yangi tosh davri (yunoncha *neos* – “yangi” va *litos* – “tosh”)
Eneolit	→	mis-tosh davri (lotincha *eneus* – “mis” va yunoncha *litos* – “tosh”)

SAVOL VA TOPSHIRIQLAR

1. Arxeologlar, antropologlar va etnograflar nimalarni o‘rganadilar?
2. Olimlar qaysi manbalar yordamida tarixni qayta tiklaydi?
3. Tarixni o‘rganishda foydalanilgan moddiy manbalardan qaysilarini bilasiz?
4. Nima uchun arxeologlar insoniyat tarixi ibtidosini “tosh davri” deb atashadi?
5. Tosh davrlarini sanab bering. Ular nima uchun shunday nomlangan?

2-§. Eng qadimgi odamlarning rivojlanish bosqichlari

Yer yuzida odam qanday paydo bo‘lganligi haqidagi turli afsonalar va diniy rivoyatlar qadim zamonlardan beri mavjud. Fanda bu masala ilmiy asosda, antropologiya va arxeologiya ma’lumotlariga tayangan holda o‘rganiladi. Tarix fanida eng qadimgi odamlar **ibtidoiy odamlar** deb ataladi.



Mamont


ENG QADIMGI ODAMLAR Yer yuzidagi dastlabki odamlar qaddi-qomatlarini tik tutib yurishgan, mehnat qurollarini yasash va ularni ishlatishni bilishgan. Ular yordamida tabiatdan yegulik topib yeyishgan.

Olimlar eng qadimgi odam suyaklari qoldiqlarini Sharqiy Afrikadan topib o‘rganishgan. Mazkur odamning yoshi 2 million yildan oshadi. Olimlar uni **“ishbilarmon odam”** deb atashgan, negaki u toshdan o‘ta sodda mehnat qurollari yasashni bilgan.

Mingyilliklar davomida odamning tashqi qiyofasi, ko‘nikmalari va miya hajmi o‘zgarib borgan. Qadimgi tosh davrining navbatdagi bosqichida **“tik yuruvchi odam”** deb



Toshdan yasalgan qo‘l cho‘qmori



Tosh davri mehnat qurollari



Tosh va suyakdan yasalgan mehnat qurollari

atalgan qadimgi inson vujudga kelgan. Uning tanasi ancha baquvvat bo‘lgan. U turli tosh qurollarni yasash ko‘nikmalariga ega bo‘lib, chaqmoq zarbidan yong‘in chiqqan o‘rmondagi tabiiy olovdan foydalanishni ham bilib olgan. “Tik yuruvchi odamlar” yashash joylarini o‘zgartirib, keng hududlarga tarqalganlar. Ularning makonlari va suyak qoldiqlari Afrikadan, shuningdek, Yevropa va Osiyoning ko‘p joylaridan topilgan.

Yer yuzida iqlim iliq bo‘lgan davrlarda odamlar mayda daryolar yoki buloqlar yaqinidagi tepaliklarni makon qilgan. Ilk paleolit davrining oxirlariga kelib **Buyuk muzlik davri** boshlanadi. Ibtidoiy odamlar o‘ta qattiq sinovga duch keladilar. Bu hol odamlarni yangicha iqlim va turmush sharoitlariga moslashishga undadi. Bunday paytda faqat kuchlilargina yashab qolishi mumkin edi.

MUZLIK DAVRI

Tobora kuchayib borayotgan sovuq oldida mutlaqo himoyasiz ekanliklarini tushunib, qadimgi odamlar issiqroq va pana joy izlab, olis makonlarga yo‘l olishadi. Mana, ko‘pdan beri yo‘talayotgan keksa bir kishi orqada qola boshladi. U kasal edi va zo‘rg‘a qadam bosardi.

Odamlar tez-tez to‘xtash xatarli ekanligini, chunki shuni deb ko‘pchilik o‘lib ketishi mumkinligini yaxshi tushunishardi. Chol ortda qolib ketdi, biroq boshqalar uni kutmasdan yo‘lda davom etishdi. U begona joylarda yolg‘iz qolajagini tushundi va alam bilan ingradi. Cholning yolvorib chekayotgan faryodi anchagacha eshitilib turdi, keyin bora-bora pasayib, oxiri umuman o‘chdi.



Chopper



Keyinroq shu yo‘ldan o‘tgan boshqa odamlar sovuqdan qaltirab yotgan kasal cholni ko‘rdilar. Lekin bu odamlar ham unga yordam bermadilar. Qor bo‘roni to‘xtamay uvullardi. Dahshatli sovuq boshlangan. Oldinda odamlarni misli ko‘rilmagan sinovlar kutardi. Bu olis, shafqatsiz ibtidoiy davr edi. Muzlik davrida baquvvat odamlargina omon qoldilar.

ENQ QADIMGI ODAMLARNING MASHG‘ULOTLARI

O‘rta Osiyoda toshdan yasalgan qadimiy mehnat qurollari quyidagi joy-makonlardan topilgan:

Selungur	→	Farg‘ona vodiysi
Ko‘lbuloq	→	Toshkent viloyati

Bular qo‘pol tosh qurollar bo‘lib, ularning bir tomoni urib o‘tkirlangan. Arxeologiya fanida bu tosh qurollar **chopperlar** deb nomlangan.

Mehnat qurollari odamlarga yegulik topish uchun kerak bo‘lgan. Dastlabki mehnat qurollari sodda edi. Odamlar uchi o‘tkirlangan tosh va tayoq bilan hayvonlarni ovlashgan, o‘simliklarning iste’molga yaroqli ildiz-mevalarini kovlab olishgan.


Shu tarzda tabiat nimani in’om etsa, odam shuni olgan hamda topgan yeguligi bilan qanoatlangan. Shuning uchun odamlarning eng qadimiy mashg‘ulotlari – meva-ildizlarni terish va ov qilish **o‘zlashtiruvchi xo‘jalik** deb ataladi.

Boysun tog‘laridan topilgan **Teshiktosh** g‘ori o‘rta paleolit davri (mil. avv. 100–40-mingyillik) madaniyatining jahonga mashhur yodgorligi hisoblanadi. Teshiktosh g‘oridan tosh qurollar va ularning parchalari, tog‘ echkisi, kiyik,

O‘ylab ko‘ring

Qadimgi odamlar o‘rnida nima qilgan bo‘lar edingiz?

Nega kasal odamga yordam ko‘rsatishni istamadilar?



Neandertal bola. Teshiktosh

Mamont ovi

yovvoyi ot, qoplon, quyon, mayda kemiruvchilar, shuningdek, qushlarning suyaklari topilgan.

Teshiktosh g‘oridan topib tekshirilgan, tosh asriga mansub 8–9 yashar neandertal bolaning suyak qoldiqlari eng mashhur topilmadir.

Bola jasadi qabrga ko‘milgan. Jasad atrofiga tog‘ echkisi shoxlari qadab chiqilgan.

Gulxan atrofida to‘plangan odamlar tomon g‘or sheri pisib kela boshladi. U daraxt va butalar orasidan sezdirmay jilardi. Ammo kimdir uni ko‘rib qolib, qo‘rqqanidan qichqirib yubordi. Barcha cho‘chib sher tomon o‘girildi. Sher yaqinlashib qolgan bo‘lsa ham, hech kim qochishni o‘ylamasdi. Qochgan odamni sher bir sakrashda tutib olardi. Hamma sherdan ko‘zlarini uzmay, yelkama-yelka turib qattiq qichqirib, qo‘llarini silkitgancha yirtqich tomon bostirib bordi.

Sher o‘zini yo‘qotib qo‘ydi, ko‘zlari ola-kula bo‘la boshladi. Odamlar sher tomon yaqinlashib kelaverdilar. Bu ular uchun yagona qutulish yo‘li edi.

Ana, eng kuchli hayvonlarni yenggan va yon-atrofni dahshatga solgan g‘or sheri ortga chekina boshladi. Odamlar esa yanada qattiq baqirib, sherga qo‘rqmay yaqinlashaverdilar.


Shundan so‘ng odamlar guruh-guruh bo‘lib yuradigan bo‘ldilar. Endi ularga hech nima tahdid sololmasdi.

O‘ylab ko‘ring

G‘or sheri nima uchun odamlarga hamla qilishga jur’at qildi?

Dahshatli yirtqichni ko‘rib, odamlar nima uchun qochmadilar?

Qadimgi odamlar o‘rnida nima qilgan bo‘lar edingiz?



DINIY E'TIQODLARNING VUJUDGA KELISHI

Olam haqida to‘plangan bilimlar asta-sekin insonning fikrlash qobiliyati va ongini o‘zgartirib bordi.

Odamlar o‘zlariga tushunarsiz bo‘lgan hodisalar – kun bilan tun, yil fasllarining almashinishi, vulqon otilishi, zilzila va boshqa tabiat hodisalarini kuzatganlar. Ularni tushuna olmagan qadimgi odamlar momaqaldiroq, yashin, shamol, yomg‘ir kabi turli tabiat hodisalariga sig‘ina boshlashgan. Odamlar tabiatni jonli deb hisoblashgan va tabiat inson xususiyatlari bilan bog‘liq holda talqin qilingan. Shu bois tevarak-atrofda ezgu va yovuz kuchlarning borligiga ishonch paydo bo‘lgan.


Totemizm	→	Odamlar guruhi jamoasining biror hayvon yoki o‘simlik turi bilan qarindoshlik aloqasiga ishonish.
Animizm	→	Odamni o‘rab turgan muhitdagi har bir narsaning joni va ruhi borligiga ishonish.
Fetishizm	→	Qadimgi odamlarning u yoki bu buyumlar omad keltirishiga yoxud balo-qazoni daf qilishiga ishonishi.

So‘nggi paleolitga oid g‘orlar devorlaridagi rasmlarning topilishi qadimgi odamlarda diniy e’tiqodlar bo‘lganining isbotidir. Bunday rasmlardan eng qadimiylari quyidagi g‘orlardan topilgan:

Ispaniya	→	Altamira g‘ori
Fransiya	→	Lasko g‘ori
Boshqirdiston (Rossiya)	→	Kapova g‘ori

O‘ylab ko‘ring

Sizning fikringizcha, bu e’tiqodlarning vujudga kelishiga asosan nima sabab bo‘ldi?



Ilk rassomlar



Paleolit davri manzilgohlari

Odamlar mazkur rasmlar bo‘lajak ovda o‘zlariga yordam berishiga ishongan. Rasmlar qarshisida hayvonlar harakatlariga taqlid qilib raqsga tushgan, ov manzaralarini tasavvurga keltirgan, nayza uloqtirishni mashq qilgan.

Qadimgi rasmlar inson nimalar haqida o‘ylagani, tevarak dunyoni qay yo‘sinda tasavvur etgani, qaysi hayvonlarni ovlagani, qanday mehnat qurollari va qurol-yarog‘lardan foydalanganini bilib olish va tushunishga yordam beradi.

Odamning o‘zini qurshab turgan tevarak-dunyoni bilishga intilishi eng qadimgi tasviriy san’at rivojlanishi uchun asos bo‘lib xizmat qildi.


Dastlabki qoya tasvirlarini arxeologning qizalog‘i kashf qilgan. O‘shanda ular Ispaniyaning Altamira g‘orida edilar. Ota ibtidoiy odamning mehnat qurollarini to‘plash bilan band bo‘lganida, qizaloq g‘orni kezib yurib, to‘satdan:

– Dada, qarang, ho‘kiz! – dedi.

– Qani?

– Shiftga qarang!

Chiroq nuri shiftni yoritgach, qadimgi odam chekkan yovvoyi buqa, to‘ng‘iz va bug‘ularning rasmlari qorong‘ilik qa’ridan bir-bir ko‘rina boshladi. Rasmlar qirmizi va boshqa ranglar bilan ishlangan. Buning siri hali-hanuz ochilgani yo‘q.



O‘q-yoy bilan ov qilish tasviri. Petrogliflar

SAVOL VA TOPSHIRIQLAR

1. Teshiktosh g‘oridagi arxeologik kashfiyotlar haqida so‘zlab bering.
2. Eng qadimgi odamlarning mashg‘ulotlari haqida nimalarni bilasiz?
3. Diniy e’tiqod kurtaklarining vujudga kelish sabablarini ayting.
4. Ilk rasmlarda nimalar tasvirlangan? Nima uchun?

3-§. Urug‘chilik jamiyati

SO‘NGGI PALEOLIT DAVRI So‘nggi paleolit davrida (**mil. avv. 40–12-mingyilliklarda**) ko‘plab voqealar ro‘y berdi. Bu davrda toshga ishlov berish texnikasi va mehnat qurollari yasash usullari o‘zgardi. Odamning aqliy qobiliyati va tashqi qiyofasi ham o‘zgarib bordi. Mazkur davrda zamonaviy qiyofaga ega **kromanyon** odami yashagan.

So‘nggi paleolit davriga oid manzilgohlar	→	Samarqand shahri hududida, Toshkent viloyatida (Ko‘lbuloq), Farg‘ona vodiysida joylashgan.

Shunday qilib, so‘nggi paleolitda insoniyat o‘z rivojida yana bir pog‘onaga yuksaldi. Odamlar qarindoshlardan tarkib topgan ixcham guruhlar – **urug‘ jamoalari**ga birlashdilar.

Urug‘ a’zolari bitta manzilgohda yashagan. Bir joyda yashab turgan bir qancha urug‘lar **qabila**ni tashkil etgan.

Turarjoylar (boshpana) qurilishi so‘nggi paleolit davri odamlarining muhim ixtirosi bo‘ldi. Ular kiyim-kechaklarni hayvonlar terisidan tayyorlashgan.

SO‘NGGI PALEOLIT DAVRIDA ODAM:

- olov hosil qilishni;
- taqinchoqlar (munchoq, tumor, uzuk) yasashni;
- boshpana qurishni;
- kesuvchi va arralovchi mehnat qurollari yasashni o‘rgandi.



Urug‘chilik jamoasi

MEZOLIT DAVRI

Mezolit – o‘rta tosh davri **mil. avv. 12–7-mingyilliklar**ni o‘z ichiga oladi. Mezolit davri boshlanishi bilan muzlik davri poyoniga yetdi, bu narsa iqlim ancha ilishiga va odamlar turmushida o‘zgarishlar bo‘lishiga olib keldi.

O‘rta Osiyodagi mezolit davriga oid manzilgohlar → Obishir (Farg‘ona vodiysi), Qo‘shilish (Toshkent vohasi), Machay (Surxondaryo viloyati)

MEZOLIT DAVRIDA INSON:

- o‘q-yoy yasashni o‘rgandi;
- hayvonlarni qo‘lga o‘rgata boshladi;
- ibtidoiy ziroatchilik va chorvachilik bilan shug‘ullana boshladi.

Mezolit davri oxirida inson hayvonlarni **qo‘lga o‘rgata boshladi**. Tiriklayin tutib olingan hayvonlar (qo‘zichoqlar, uloqchalar) ni endi odamlar o‘ldirmasdan, yegulik zaxirasi sifatida saqlab qo‘yadigan bo‘ldilar.

ITNING QO‘LGA O‘RGATILISHI

Ovchilar itni qo‘lga o‘rgatdilar. Balki bu voqea shunday bo‘lgandir:

Bir kuni ertalab ikki bola g‘ordan chiqib, kuchukni ko‘rib qoladi. U g‘or yoniga tashlangan suyaklarga yaqinlashib kelardi. Uning onasini yirtqich hayvonlar g‘ajib tashlashgan. Shuning uchun yolg‘iz qolib, ochiqqan edi. Ochlik uni odamlar manzilgohi sari undaydi. Uni ko‘rgan bolalar shodon g‘ujurlashib, u to-

Aynan ochlik itni odamlar yashaydigan g‘orlar tomon yetaklagandir.



mon chopadilar. Kuchuk qo‘rqib, o‘zini buta panasiga oladi.

Kechqurun u yana g‘or oldida paydo bo‘ldi. O‘sha kuni ov baroridan kelib, suyaklar, ovqat qoldiqlari g‘or yonida har qachongidan ko‘ra ko‘proq edi. Odamlar ovozi tingach, kuchuk g‘orga yaqinlashadi va bir suyakni g‘ajiy boshlaydi.

U g‘or yoniga keyingi kuni ham keladi. G‘or yaqinidagi pana joyda yashay boshlaydi. Odamlar suyak tashlasa, pisib kelib, olib qochadi.

Bir kuni odamlar yashab turgan g‘orga bizga tanish bo‘lgan kuchuk vangillagancha o‘qdek otilib kirdi. Uni bo‘ri quvlab kelardi. Kuchuk odamlardan panoh istab ichkariga kirgan. Bu hol odamlarda ularga notanish bo‘lgan rahm-shafqat hissini uyg‘otdi. Bolalar unga jonli o‘yinchoqqa qaragandek boqib turishardi. Qulog‘i, dumidan tortishardi. Kunlar o‘tdi. It ulg‘ayib, odamlarga o‘rganib qoldi. Bir kuni kechasi uning vovullashidan hamma uyg‘onib ketdi. Tura solib itni urmoqchi bo‘ldilar. Ammo qarasalar, g‘or og‘zida ikkita ayiq turardi. Ayiqlarni “hay-hay”lab quvib yuborishgach, odamlarning ba’zilari kelib, itni silab, minnatdorchilik bildirdilar. Chunki it ularni o‘limdan saqlab qolgan edi.

Shundan keyin it odamlarning doimiy hamrohiga aylandi.

O‘ylab ko‘ring

Nima uchun odam dastlab aynan itni xonakilashtirgan?

Itlar hayvonlarni ovlashni osonlashtirdi



DEHQONCHILIK VA CHORVACHILIKNING RIVOJLANISHI

NEOLIT DAVRIDA ODAM:


- toshdan mikrolitlar, tolalardan to‘qima, loydan sopol idishlar yasagan;
- doimiy turarjoylar qura boshlagan;
- o‘troq tumush tarziga o‘tgan.

Neolit – yangi tosh davrida inson qadimgi Sharqning turli hududlarida **ishlab chiqaruvchi xo‘jaliklar** – ziroatchilik va chorvachilikka o‘ta boshlaydi.

O‘zlashtiruvchi xo‘jalik	→	Termachilik, ovchilik, baliqchilik
Ishlab chiqaruvchi xo‘jalik	→	Dehqonchilik, chorvachilik

O‘rta Osiyoda neolit davri **mil. avv. 6–4-ming-yilliklar**ni o‘z ichiga oladi. Arxeologlar neolit davri boshlanishini sopol idishlar yasashning kashf etilishi bilan belgilaydilar. Mezolit va neolit davrida odam toshdan mayda mehnat qurollari – **mikrolitlar** yasagan, toshga ishlov berishning oldin ma’lum bo‘lmagan usullari – silliqlash va teshikchalar parmalashni qo‘llay boshlagan.

Loydan ishlangan va olovda pishirilgan idishlar yasash – **kulolchilik**, tolalar va jundan kiyim-kechak tayyorlash – **to‘quvchilik** neolit davrining muhim kashfiyotlaridir.



Neolit davri uylari. *Tiklangan*

SAVOL VA TOPSHIRIQLAR

1. So‘nggi paleolit davrining muhim ixtirolarini ayting.
2. O‘q-yoy qachon kashf etilgan?
3. Neolit davriga oid manzilgohdagi arxeologik qazishmalarni tasavvur qiling. Bu manzilgohda nimalarni topish mumkin?
4. Neolit davri kashfiyotlarini sanab bering.



Mayda tosh qurollar – mikrolitlar

4–§. Eneolit va bronza davri

Neolit davrining oxirida odamlar misdan foydalanish va undan mehnat qurollari yasashni o‘rganib oldilar. Bu, shubhasiz, o‘sha davrning eng buyuk kashfiyotlaridan biri edi.

METALL DAVRINING ASOSIY XUSUSIYATLARI

Misdan yasalgan mehnat qurollarining tosh qurollar bilan birgalikda ishlatilish davri **eneolit** – mis-tosh asri deb ataladi. Bu davr **mil. avv. 4–3-mingyilliklarning o‘rtalari**ga to‘g‘ri keladi.

Metallga ishlov berish kishilarning moddiy va ma’naviy madaniyatiga katta ta’sir ko‘rsatdi. Mil. avv. 4-mingyillikda qadimgi Sharqda ilk shaharlar va davlatlar vujudga kela boshladi.

O‘rta Osiyo janubida **sun’iy sug‘orishga** asoslangan dehqonchilik vujudga keldi, xom g‘ishtdan ko‘p xonali uylar qurila boshladi, idishlarni pishirish uchun **kulolchilik** o‘choqlaridan foydalanishga kirishildi.

Sopol idishlar hayvon va qushlarning tasvirlari va o‘simlik naqshlari (yaproqlar, gullar) bilan bezatila boshladi.

Odamlar misni qalay, qo‘rg‘oshin yoki rux bilan qo‘shib eritib, bronza olishni o‘rganganlar.

Bronza misdan ko‘ra ancha qattiqligi tufayli **mil. avv. 3-mingyillik o‘rtalari**dan boshlab asta-sekin mehnat qurollari, qurol-yarog‘lar va zeb-ziynatlar tayyorlashda ishlatiluvchi asosiy ashyoga aylanib qoldi.

Bronza mehnat qurollariga ega bo‘lgan odamlar endi dalalarga ancha yaxshi ishlov berish va ekin maydonlarini kengaytirish imkoniga ega bo‘ldilar. Natijada ular ixtiyorida ortiqcha miqdorda qishloq xo‘jalik mahsulotlari vujudga keldi. Bronza davrida odamlar **kulolchilik charxi** va **g‘ildirak**ni kashf etdilar. Shu tariqa dastlabki aravalar paydo bo‘ldi.



Baliq ovlash



Sopol idishlarni yasash va pishirish

ENEOLIT DAVRIDA INSON:

- misdan ishlangan qurollarni;
- sun'iy sug'orish tizimini;
- xom g'ishtni;
- ko'p xonali uylarni;
- ilk shaharlar va davlatlarni yaratdi.

PATRIARXATNING BOSHLANISHI

Omoch bilan yer haydash, ziroatchilik qilish, chorvachilik, hunarmandchilikning vujudga kelishi natijasida urug'ni yetarli mahsulotlar bilan ta'minlash erkaklar qo'liga o'tdi. Uy xo'jaligi yumushlari ayollar zimmasida qoldi.

Endi urug'chilik oilasida erkaklar muhim o'rin tuta boshladilar. Qarindoshchilik erkak nomi bilan belgilanadigan bo'ldi va **patriarxat davri** boshlandi. Oila ota tomonidan yaqin qarindoshlarning bir necha avlodlaridan tashkil topadigan bo'ldi.

BRONZA DAVRI DEHQONLARINING MANZILGOHLARI

Bronza davriga oid manzilgohlardan biri Zarafshon daryosi havzasidagi **Zamonbobo** ko'li yaqinidan topilgan (Buxoro viloyati, Qorako'l tumani). Xorazm vohasida ham bronza davriga oid manzilgohlar o'rganilgan.

Arxeologlar Surxondaryo vohasidan qadimgi ziroatkorlar manzilgohlaridan biri bo'lgan **Sopollitepa**ni topishdi (Muzrabot tumani, **mil. avv. 3-mingyillik oxirlari – 2-mingyillik).**



Sopol idishlar


Bronza davrida O'rta Osiyo janubida dehqonchilik va hunarmandchilik rivojlanishi asosida ilk shaharlar va davlatlar vujudga kelgan. Taxminan 4 ming yil oldin hozirgi Sherobod yaqinida (Surxondaryo viloyati) ziroatkorlar yangi manzilgoh qurdilar. Uning xarobalari **Jarqo'ton** (jarlik ustidagi qo'ton) nomi bilan mashhur.

Bu manzilgoh aslida qanday ko'rinishga ega edi? Keling, uning ko'chalarini kezib tomosha qilaylik. Jarqo'ton bronza davriga oid shahar ko'rinishiga ega qal'a bo'lib,



Kamon o'qlarining uchlari

Bronza davri sopol idishlari



uning ichi va atrofida jamoa a’zolari bo‘lmish hunarmand va dehqonlarning uylari joylashgan. Qal’a ichidan jamoa sardorining saroy qoldiqlari topilgan.

Jarqo‘tonda olovga va suvga sig‘inish e’tiqodi bilan bog‘liq ibodatxona qoldiqlari arxeologlar tomonidan o‘rganilgan.

Bronza davrida yurtimizning qadimgi aholisi va qadimgi Sharq elatlari o‘rtasida keng madaniy aloqalar boshlangan. Daryolar vohalari bo‘ylab muhim savdo yo‘llari o‘tgan.



Ilonlar tasviri tushirilgan tosh tumor.
Mil. avv. 2-mingyillik

BRONZA DAVRIGA SAYOHAT

Keling, qadimgi manzillardan biriga sayohat qilib, u yerda odamlar qanday yashaganini ko‘raylik.

Biz Sopollitepa manzilgohining markaziy qismida turibmiz. Manzilgoh mudofaa devori bilan o‘ralgan. Tashqi devorni buzib, manzilga kirmoqchi bo‘lgan dushmanlar tuzoqqa tushardilar. Bu paytda qal’a himoyachilari ularning boshlariga o‘q va toshlar yog‘dirgan. Sopollitepaga yagona darvozadan kiritil-

O‘ylab ko‘ring

Bronza davrida odamlar qanday qiyinchiliklarni yengishlari kerak bo‘lgan?

Sopollitepa. *Tiklangan*


O‘ylab ko‘ring

Darslikda berilgan matndan foydalanib, o‘zingizning bronza davriga sayohatingizni faraz qiling. Oldingi davrlarga qaraganda bu davrda qanday yangiliklar paydo bo‘lgan?

gan. U juda mustahkam qo‘riqlangan. Biz qal’aning sakkizta mavzesidan birida yo‘limizni davom ettiramiz. Bu yerdagi barcha ko‘chalar markaziy maydonga olib boradi. Maydonda savdo-sotiq avjida. Kulollar kulolchilik charxida yasalgan uzun guldonlar, ko‘za va xumchalarini chiqarib sotishmoqda. Ayollar nodir toshlar va bronzadan yasalgan taqinchoqlar – sirg‘a va munchoqlar, tumor va ko‘zgularni tomosha qilmoqda.

Tikuvchilar matolarni ko‘z-ko‘z qilishardi. Chekkaroqda ziroatkorlar va chorvadorlar o‘zlari yetishtirgan bug‘doy, arpa, hayvon terilaridan va charmdan yasalgan buyumlarini sotardilar.

Ma’lum bo‘ladiki, bronza davri aholisi hunarmandchilik, to‘quvchilik, kulolchilik, zargarlik va binokorlikda katta yutuqlarni qo‘lga kiritgan. Ammo bronza davri odamlarining hayoti mashaqqatlarga to’la edi. Ular kun bo‘yi mehnat qilardilar. Tabiat buning evaziga ularga o‘z ne’matlarini in’om etardi. Yosh bolalarning tongi beg‘ubor otardi xolos.



Jarqo‘ton ibodatxonasi. *Tiklangan*



Marjonlar



Bronzadan yasalgan bilaguzuk

Tong saharda cho‘ponlar mollarini yaylov sari haydar, dehqonlar esa dala tomon shoshardilar. Ular bilan ovchilar ham chiqib, suv ichgani keladigan kiyikni buloq yo‘lida poylardilar. Baliqchilar daryo sari jo‘nardi.

Kulol loy qorgan, uning shogirdlari o‘choqlarga o‘t yoqishgan. Ularning yonidagi ma’dan eritish ustaxonasida bronza buyumlar uchun eritilgan ma’danlar qoliplarga quyilardi. Zargarlar bronzaga ishlov berib, bilaguzuk va oynalar tayyorlashardi. Ayollar bo‘yra to‘qir, don tuyishar, ovqat qilar, bolalarni tarbiyalashardi. Bu ishlar har kuni takrorlangan.

Hayot shu zaylda davom etgan.



Bronza ko‘zgular



Bronzadan yasalgan buyumlar: bolta, o‘q va nayzaning uchi, xanjar

SAVOL VA TOPSHIRIQLAR

1. Eneolit davrining asosiy yutuqlarini ayting.
2. Nega matriarxatdan patriarxatga o‘tish jarayoni sodir bo‘ldi?
3. Bronza davrining Sopollitepa va Jarqo‘ton kabi yodgorliklari haqida hikoya qiling.
4. Bronza asriga sayohat qiling. Bu davr odamlari qanday yashagani haqida so‘zlab bering.

5-§. O‘rta Osiyo temir asriga o‘tish davrida

TEMIRDAN FOYDALANISH Odamlar mis va bronzadan mehnat qurollari yasashni o‘rgangan paytdan keyin oradan ko‘p asrlar o‘tib, **temirdan mehnat qurollari** yasash imkoniyati paydo bo‘ldi. Bu jarayon ko‘p mehnat talab qilgan, negaki temir misdan ko‘ra ancha yuqori haroratda (1500°C) eriydi. Ayni paytda temir mis va bronzaga nisbatan ancha qattiqroq edi.

Temirdan birinchi bo‘lib Kichik Osiyodagi xettlar mil. avv. XIV–XIII asrlarda foydalana boshlagan.

Temir buyumlarning ommalashuvi asta-sekinlik bilan davom etgan. Sof temir tabiatda kamyob metall bo‘lgani sababli undan dastlab bezak buyumlari tayyorlangan. Shunday bezaklar Misr fir’avni Tutanxamon maqbarasidan topilgan.

Mil. avv. IX–VIII asrlarga oid temirdan yasalgan ilk mehnat qurollari O‘rta Osiyodan ham topilgan.

Mehnat qurollarining temirdan yasalishi, eng avvalo, dehqonchilikning rivojiga ta’sir ko‘rsatgan. Temir uchli omochlar va boltalar paydo bo‘lgan. Bu mehnat qurollari katta maydonlarda ziroatchilikning rivojlanishiga imkon yaratib bergan. O‘rta Osiyoda temirdan yasalgan ilk mehnat qurollari **mil. avv. IX–VIII asrlar**ga tegishli.



Temir va bronza paykonlar, o‘roq shaklidagi pichoq



Kundalik hayot

IJTIMOIY TUZUM Temir qurollarning tarqalishi mehnat samaradorligini oshirdi va bu ishlab chiqarishning yanada ilg‘or usuliga o‘tish uchun sharoit hozirladi.

Temir asri boshlarida O‘rta Osiyoda aholi turli guruhlarga bo‘lindi: **kohinlar, jangchilar, chorvadorlar, dehqonlar va hunarmandlar** shular jumlasidandir.

O‘rta Osiyoda jamiyatning asosini tashkil etgan katta patriarxal oila bo‘lganini “Avesto”dan bilamiz.

Bir necha shunday oilalar hududiy qo‘shnichilik jamoasini tashkil etgan. Katta oila a’zolari alohida turarjoyga ega bo‘lib, xo‘jalik ishlarini birgalikda amalga oshirishgan, o‘zlarining mehnat qurollari, qishloq xo‘jalik mahsulotlari zaxirasi va chorva podalariga egalik qilishgan.

O‘rta Osiyoda temir asriga o‘tish davrida jamiyatning tuzilishi shunday bo‘lgan.



Tosh gurzi.
Mil. avv. IX–VIII asrlar



Kohin boshi. Tosh haykalcha.
Mil. avv. X–IX asrlar.
Surxondaryo vohasi

SAVOL VA TOPSHIRIQLAR

1. Temir buyumlardan foydalanish qachon boshlangan?
2. Temirdan mehnat qurollari yasashning boshlanishi jamiyatda qanday o‘zgarishlarga olib kelgan?
3. Temir asri boshlarida O‘rta Osiyoda aholi qaysi guruhlarga bo‘lingan?

II BO‘LIM
QADIMGI SHARQ VA O‘RTA OSIYO

6-§. Nil vodiysi va uning aholisi



MISR – NIL IN’OMI O‘zi bilan birga huzurbaxsh salqin havo va mo‘l-ko‘l hosilni olib keluvchi sersuv Nil daryosi viqor bilan oqadi. Ulug‘vor daryo Afrika shimoli-sharqida sivilizatsiya vujudga kelishi uchun zamin yaratgan.

Nil 6 ming kilometr uzunlikdagi to‘lib oqadigan katta daryodir. Daryoning quyi qismi 3 km dan 22 kilometrgacha kenglikdagi qora tuproqli serhosil dalalardan iborat. Vodiyliklar yurtga **“Qora tuproq”** yoki **“Nil in’omi”** deb nom berishgan.

Qadim o‘tgan zamonlarda Nil vodiysi odam o‘tolmaydigan, **papirus** butalari bir-biriga chirmashib ket-





Nil daryosi bo‘yida

gan botqoqliklar bilan qoplangan, suvda son-sanoqsiz yirtqich timsohlar kun kechirar, quruq yerlarda yovvoyi hayvonlar galasi sanqib yurar, botqoqliklarda esa zaharli ilonlar yashar edi.

Mil. avv. 4-mingyillik boshlarida odamlar Nil daryosi qirg‘oqlaridagi yerlarni o‘zlashtirishga bel bog‘laganlar.

MISRLIKLARNING MASHG‘ULOTLARI

Nil daryosi dalalarni suvga bostirib, keng-mo‘l oqqan yillarda misrlik dehqonlarning hosili ham barakali bo‘lgan.

Misrliklar bug‘doy va arpa, shuningdek, poliz ekinlarini ekishgan, yetishtirilgan kanopdan esa gazlama to‘qishgan. Nil vodiysida uzum, qovun, anor, xurmo, piyoz, bodring, loviya kabi meva va sabzavotlar yetishtirilardi.

Qadimgi zamonda yerga omoch bilan ishlov berilib, urug‘ qo‘lda sepilgach, urug‘likni yerga singdirish uchun qoramollarni daladan haydab o‘tishgan. Mehnat qurollari takomillashishi bilan ziroatkorlar omoch va hayvonlar kuchidan foydalana boshladi.

O‘ylab ko‘ring

O‘zingizni Qadimgi Misr dehqoni sifatida tasavvur qilib, misrlik dehqonlarning mehnati haqida hikoya qiling.

Misrliklar sigir, qo‘y-echki boqib, ho‘kizlardan dala ishlarida foydalangan.

Hosil yig‘im-terimi boshlangan paytda misrliklar boshoqlarni mis o‘roqlar bilan o‘rib olib, so‘ngra maxsus joyga tashib, bug‘doy yoki arpa bog‘lari ustidan hayvonlarni haydab o‘tish orqali hosilni yanchishgan. Xirmonjoydan chiqqan don sopol xumlarda saqlangan. Bu tadbir donni son-sanoqsiz kemiruvchi zararkunandalardan himoyalardi.



Misrlik hunarmand uyi

HUNARMANDCHILIKNING RIVOJLANISHI

Qadimgi Misr hunarmandlarining 30 dan ziyod kasb-korlari bo‘lgan. Misgarlar misni eritib, undan mehnat qurollari quyardi. Kulollar loydan turli-tuman idish-tovoqlar yasab, ularni maxsus xumdonda pishirgan. Quruvchilar saroylar, ibodatxonalar va uylar bunyod etgan. Oddiy misrliklarning uyi loy suvalgan papirus poyalaridan, zodagonlarning uylari esa oftobda quritilgan xom g‘ishtdan qurilgan. Fir’avnlarning saroylari va ibodatxonalar toshdan barpo etilgan. Duradgorlar deraza va eshiklar yasardi. Kemasozlar qamishdan qa-

Suv chiqaradigan moslama

yiqlar, yog‘ochdan esa kemalar qurardi. To‘quvchilar kiyim-kechak uchun materiallar tayyorlar, tikuvchilar esa liboslar tikardi. Zargarlar oltin va qimmatbaho toshlardan taqinchoqlar yasagan.

MISR DAVLATINING TASHKIL TOPISHI

Odamlar mil. avv. 4-mingyillik oxirida Nil vodiysidagi sermashaqqat turmush sharoitiga moslasha boshladi. Tarqoq manzilgohlar **“nom”** deb atalgan kichik davlatlarga birlashdi. Ularni **nomarxlar** boshqargan.


Vaqt o‘tishi bilan asta-sekin qabila sardorlari hukmdor – podsholarga aylandi.


Misrda ikkita podsho hukmdorlik qilgan. Bittasi Quyi (Shimoliy) Misrda, boshqasi esa Yuqori (Janubiy) Misrda davlatni boshqargan. **Mil. avv. 3000-yilda** ikkala davlat o‘rtasida boshlangan urushda Yuqori Misr hukmdori **Menes** g‘alaba qozondi. U birlashgan mamlakatning birinchi hukmdori – **fir’avni** bo‘ldi. Yagona va birlashgan davlat uchun yangi poytaxt bo‘lmish **Memfis** shahri barpo etildi.

Ko‘p yillar mobaynida “nom”lar hukmdorlari o‘z mol-mulkini ko‘paytirib oldi, natijada Misr mustaqil davlatlarga aylangan alohida “nom”larga parchalanib ketdi. Vaqt o‘tishi bilan mamlakatning qayta birlashuvi ro‘y berdi. Bu davlatning poytaxti **Fiva** shahri bo‘lgan.



Qadimgi Misr fir’avnlarining tojlari





Saroyga sovg‘alar va o‘lpon olib kelish manzarasi

SAVOL VA TOPSHIRIQLAR

1. Nega misrliklar o‘z mamlakatini “Nil in’omi” deya ta’riflashgan?
2. Qadimgi Misrning tabiiy sharoiti nima sababdan dehqonchilik uchun qulay edi?
3. Qadimgi Misr hunarmandlari haqida so‘zlab bering.

7-§. Qadimgi Misr va qo‘shni davlatlar



QADIMGI MISRLIKLARNING QO‘SHNILARI

Misr janubda **Nubiya** (Shimoliy Sudan) bilan chegaradosh bo‘lgan.

Misr g‘arbida**, Liviya** cho‘lida shu nomdagi mamlakat joylashgandi. Sahro aholisi ko‘chmanchi chorvadorlar bo‘lgan. Quyi Misrdagi Memfis shahri orqali o‘tadigan yo‘l Sinay yarimoroliga olib borgan, bu yerda esa mis qazib olingan. Sinay yarimorolidan shimolroqda **Falastin**, uning yonida **Suriya** joylashgan. Bu mamlakatlar mis va temir rudasiga hamda boshqa foydali qazilmalarga boy bo‘lgan.

Misrliklar Falastin va Suriyadan hunarmandlar yasagan nodir buyumlar va qimmatbaho toshlarni olib kelgan.

FIR’AVNLARNING ISTILOLARI

Qadimgi podsholik davrida Sinay yarimoroli bosib olinadi, mahalliy qabilalar Misrga soliq to‘lay boshlaydi. Fir’avnlar Nubiya va Liviyaga ham yurish qilib, shaharlarni taladi, asirlar, chorva mollari va boshqa boyliklarni egallab oldi.


O‘rta podsholik fir’avnlari Janubiy Falastin yerlari va Nubiya shimolini Misrga qo‘shib olishga muvaffaq bo‘ldi. **Mil. avv. XVIII asr oxirida** ko‘chmanchi **giksos** qabilalari Misrga hujum qildi. Quyi Misrni bosib olgan giksoslar misrliklar shaharlari va qishloqlarini ayovsiz taladi va odamlarni asirlikka haydab ketdi.

Bu vaqtda podsholik ko‘plab mayda “nom”larga bo‘linib ketgandi, ular giksoslarga soliq to‘lar edi. Faqat Fiva shahri hukmdorlarigina giksoslarga itoat qilmadi.

Bosqinchilar zulmidan xalos bo‘lish taraddudiga tushib qolgan “nom”lar hukmdorlari Fiva shahri atrofiga birlasha boshlashdi. Ko‘p o‘tmay Yuqori Misrning barcha “nom”lari Fiva “nom”ining fir’avni atrofiga birlashdi.

O‘ylab ko‘ring

Sizningcha, nima uchun ko‘chmanchi qabilalar Misr qo‘shinlarini mag‘lub eta oldi?



Misr fir’avniga sovg‘alar va o‘lpon olib kelish. Maqbara devoridagi rasm


FIR'AVNLAR YURISHLARINING NATIJALARI

Bir qancha janglarda fir'avn **Yaxmos** giksoslarni tormor etib, bosqinchilarni Misrdan haydab chiqardi. Itoatsiz hukmdorlarni o'ziga bo'ysundirgan Yaxmos yangi fir'avnlar sulolasi asoschisiga aylandi, ana shu fir'avn zamonidan Yangi podsholik davri boshlandi.

Yangi podsholik hukmdorlari qo'shni davlatlar ustiga bosqinchilik yurishlari uyushtirdilar. Fir'avnlar Nubiya va Old Osiyo mamlakatlariga hujumni boshlab yubordilar.

Fir'avn **Tutmos II** davrida Falastin, Finikiya va Suriyani istilo qilish boshlandi. Undan keyin fir'avn **Tutmos III** yurishlarni davom ettirdi. Old Osiyoda misrliklar hukmronligi o'rnatildi. Mil. avv. VII asrda Misr yana yagona davlatga birlashdi, mamlakat iqtisodiyoti va madaniyatida yuksalish boshlandi. Ammo tez orada Misrga yangi bir dushman bostirib kiradi.

Forslardan ulkan lashkar to'plagan shahanshoh **Kir II** ning o'g'li **Kambiz II** mil. avv. 525-yilda Misrni bosib oladi.



Jangning boshlanishi.
Zamonaviy rasm

SAVOL VA TOPSHIRIQLAR

1. Qadimgi Misrga qo'shni bo'lgan mamlakatlarni sanab bering.
2. Qadimgi Misr fir'avnlari qaysi mamlakatlarni bosib olgan edi?
3. Qaysi fir'avn hukmronligi davrida giksoslarni mamlakatdan haydab chiqarishga erishildi?
4. Kim va qachon Misrni bosib oldi?

8-§. Qadimgi Misrda din



Quyosh ma’budi – Ra

MISRLIKLARNING MA’BUDLARI


Misr aholisi uchun din kundalik turmushning ajralmas bir bo‘lagi hisoblangan. Qadimgi misrliklar ma’budlar hayvonlar qiyofasiga kirib olib, ya’ni mushuk, qo‘y, ho‘kiz, arslon, sigir ko‘rinishida odamlar orasida yashaydi deb hisoblagan. Misrliklar ma’budlarning bir qancha joni mavjud: ulardan biri hayvon tanasida, boshqasi esa haykalida yashaydi deb o‘ylagan. Kohinlar – ibodatxona ruhoniylari ma’budlarni dindorlar in’om tariqasida keltirgan narsalar bilan boqishadi deb hisoblashgan.

Qadimgi Misr podsholigining poytaxti Memfisning o‘z ma’budi – **Ptax** bo‘lgan. Misrliklar e’tiqodicha, Ptax olamni yaratayotganida har bir narsaning nomini odamga o‘rgatgan. Ma’bud shunchalik qudratliki, uni asl qiyofasida ko‘rishning iloji yo‘q. Shuning uchun ham Ptax degan ma’budning Yer yuzidagi qiyofasi **Apis** bo‘lib, u peshanasi va belida oq qashqasi bo‘lgan qora ho‘kiz timsolida tasavvur qilingan.

Quyosh ma’budi **Amon-Ra** fir’avnlarning bosh ilohi va homiysi hisoblangan. Dastlab ikkita ma’bud bo‘lgan: Fiva shahri homiysi **Amon** va Quyosh ma’budi **Ra**, so‘ng ikkalasi yagona ma’budga birlashgan.



Papirusga chizilgan Osiris sudi tasviri



Papirusda tasvirlangan dafn marosimi

O‘ylab ko‘ring

Nima deb o‘ylaysiz, misrliklar dini va ibtidoiy e’tiqodlar o‘rtasida qanday farq bo‘lgan?

Uning ibodatxonasi **Geliopol**da **(Baolbek)** bo‘lgan. Fir’avnlar Quyosh ma’budi o‘g‘illaridir, hukmdorlar hamma ishni o‘zining samoviy otasi amri bilan amalga oshiradi degan qarash mavjud bo‘lgan.

Xapi – Nil ma’budi, Misrdagi hayotning birlamchi manbai va posboni, **Osiris** yerosti saltanati ma’budi hisoblangan.

KOHINLAR VA IBODATXONALAR

Kohinlar ma’budlar va odamlar o‘rtasida vositachi hisoblangan. Misrliklar e’tiqodicha, mabodo Yer yuzida maxsus marosimlar ado etilmasa, ma’budlar odamlarga madad bermay qo‘yadi. Kohinlar diniy marosimlarni bilar, qurbonlik bag‘ishlar edi. Kundalik turmushda ham kohinlarsiz biror ish qilish mushkul edi.

Kohinlar Nil toshqini vaqtini, qachon urug‘lik sochish va hosilni yig‘ishtirib olish muddatini aniq bilgan. Barcha “nom”larda ibodatxonalar bo‘lgan, fir’avnlar ularga katta-katta boylik va yerlar hadya etardi.




Qadimgi Misr dinida Osiris taxtining himoyachisi sanalgan yana bir Xapi ma’budi bor edi

SAVOL VA TOPSHIRIQLAR

1. Qadimgi misrliklarning dini haqida so‘zlab bering.
2. Kimlar Qadimgi Misrda Quyosh ma’budi o‘g‘illari hisoblangan?
3. Afsonaga ko‘ra, qaysi misrliklar ma’budi buqa timsolida tasavvur qilingan?
4. Qadimgi misrliklar dini va ibtidoiy odamlar e‘tiqodlari orasida qanday o‘xshashliklar bor?
5. Ma’budlar va odamlar o‘rtasida kim vositachi hisoblangan?
6. Misr kohinlari nufuzi va kuch-qudratining sababi nimada?

9-§. Piramidalar va daxmalar



Qadimda piramidalar vodiysining ko‘rinishi. *Tiklangan*

“HAMMA NARSA VAQTDAN QO‘RQADI, VAQT ESA PIRAMIDALARDAN!”

Qadimgi va O‘rta podsholiklar davrida misrliklar barpo etgan ulkan **piramidalar** fir’avnlar dafn etiladigan joy – maqbaralar bo‘lgan. O‘tgan mingyilliklar davomida ko‘pdan ko‘p shaharlar va davlatlar yo‘q bo‘lib ketdi, ibodatxonalar va saroylar xarobaga aylandi, faqat piramidalar vaqtdan qo‘rqmaydi, faqat piramidalargina to‘rt ming yildan oshiq vaqt davomida o‘zgarmasdan turibdi.

Memfis shahri yaqinida uch fir’avn – **Xufu, Xafra** va **Menkauralar** uchun bunyod etilgan piramidalar eng mashhur inshootlardir. Bu piramidalar jahonning yetti mo‘jizasidan biri hisoblanib, ular hozirga qadar saqlanib qolgan. Eng katta piramida Xufu uchun

Fir’avn Xufu (Xeops) piramidasi va Sfinks haykali



Piramida qurilishi

(yunonlar uni **Xeops** deb atashgan) mil. avv. 2600-yil atrofida qurilgan. Uning balandligi 147 metr bo‘lgan.

Piramida har biri ikki tonnadan og‘irroq bo‘lgan 2,5 million dona tosh bo‘laklaridan tashkil topgan. Toshlar shunchalik tekis qilib kesilgan va taroshlanganki, ular o‘rtasidagi yoriq 0,5 millimetrdan oshmaydi.

Yangi podsholik davrida fir’avnlar uchun maqbaralar qurilgan shohlar vodiysi






Ibodatxona devorlari va ustuniga o'yilgan yozuvlar

Piramida ichida dahliz bilan tutashtirilgan bir qancha xonalar mavjud. Ulardan birida fir'avnning mumiyolangan jasadi solingan **toshtobut – sarkofag** joylashgan.

Daxmalar ichi esa munojotlar va qarg'ishlardan iborat bitiklar bilan qoplangan, ular fir'avnni himoya qilishi va o'zga hayotga o'tayotganida unga yordam berishi kerak bo'lgan.

Piramidalarni **sfinks** – tanasi sherniki, boshi odamniki bo'lgan ulkan haykal qo'riqlaydi. "Sahro shohi" – sfinks haykali toshdan ishlangan bo'lib, balandligi 20 metrga teng.

Yangi podsholik davriga kelib misrliklar piramidalar qurmay qo'yishadi. Fir'avnlarni tog'lardagi o'yilgan tosh maqbaralarga dafn etadigan bo'lishadi. Eng mashhur maqbara fir'avn **Tutanxamon**ga tegishli bo'lgan. Maqbara ichidagi tasavvurga sig'maydigan boyliklar bizgacha yetib kelgan.



Fir'avn Tutanxamonning toshtobuti (sarkofag)

MUMIYOLASH

Qadimgi misrliklar inson vafot etganidan keyin marhumlar saltanatiga ketadi, o‘sha yerda umrini davom ettiradi deb hisoblagan. Ammo marhumlar saltanatidagi hayot, misrliklar fikricha, Osiris sudining natijalariga bog‘liq bo‘ladi. Tarozining bir pallasiga marhumning yuragi, boshqasiga esa qush patlari qo‘yiladi. Mabodo tarozi pallalari tenglashsa, demak, inson bu dunyodagi hayotida faqat ezgu ishlar qilgan bo‘ladi, u vafot etganidan keyin ajoyib bir sharoitda umrini davom ettiradi. Mabodo yurak og‘irroq kelsa, demak, inson bir talay yomon ishlarni qilgan bo‘lib chiqadi, natijada badbashara maxluqlarga yemish bo‘ladi.



Tutanxamon. Oltin niqob

Osiris qarshisida go‘zal qiyofada qad rostlash uchun misrliklar inson jasadini mumiyolagan. Mumiyolash bilan Misr kohin-tabiblari shug‘ullangan. Odatda mumiyolash qariyb 70 kun davom etgan. Jasadga maxsus ishlov berilganidan keyin ko‘pdan ko‘p matolar bilan o‘rab-chirmashgan. Matolar qati orasiga omad keltiruvchi tumorlar qo‘yilgan. Mumiyolash faqat marhumning ortida qolgan boy-badavlat qarindoshlarigagina nasib etgan.



Mumiyolash

SAVOL VA TOPSHIRIQLAR

1. Qadimgi Misr piramidalari qanday maqsadda barpo etilgan?
2. “Hamma narsa vaqtdan qo‘rqadi, vaqt esa piramidalardan!” degan iborani qanday tushunasiz?
3. Misrdagi eng mashhur piramidalar qayerda qurilgan?
4. Nima uchun fir’avnlarni dafn qilishda maqbaralarga ular hayoti mobaynida foydalangan buyumlarni qo‘yishgan?
5. Nima uchun marhumlarni mumiyolashgan?

10-§. Qadimgi Misr madaniyati



Papirus


YOZUV

Qadimgi misrliklar yozuvi insoniyatning ilk yozuvlaridan biri edi. Dastlab har bir so‘z rasm ko‘rinishida yozilgan. Yozuvdan duolar va marosimlarni yozib borishda foydalanilgan, shuning uchun ham u **“muqaddas kalom”** yoki **“ma’budlar kalomi”** deb nomlangan.

Qadimgi yunonlar ularni **“iyerogliflar”** deyishgan (**“muqaddas bitiklar”** ma’nosini anglatadi). Yozuvlar maqbaralarning devorlariga va ma’budlar haykallariga o‘yib yozilgan. Yozuv uchun tosh va sopoldan ham foydalanilgan.

Misrliklar alifbosi **750 iyeroglif**dan iborat bo‘lgan. Har bir so‘z o‘zida bir qancha ramzlar va timsollarni ifoda etgan. Iyerogliflarni o‘rganish ancha qiyin ish bo‘lib, savod chiqarish ko‘pchilikka ham nasib etavermagan. Iyerogliflarni qamish qilqalam bilan papirusga, ya’ni papirus poyasidan ishlangan qog‘ozga yozishgan. Turli rangdagi mineral bo‘yoqlar siyoh vazifasini o‘tagan. Ta’lim olayotganda sopol idishlar parchasiga yoki ohaktoshga yozishgan. Husnixat san’atini egallagan kishilar yuksak savodxon kishilar sanalgan, ular katta imtiyozlarga va izzat-hurmatga ega bo‘lgan.

Qadimgi misrlik xattotlar





Qadimgi Misr iyerogliflari



Rozett bitiktoshi. Londondagi Britaniya muzeyida saqlanmoqda

IYEROGLIFLAR SIRINING KASHF ETILISHI Taniqli fransuz olimi **Jak-Fransua Shampolyon** 1822-yilda jahonshumul ahamiyatga molik kashfiyot qildi: qadimiy Misr matnlarini o‘qishga muvaffaq bo‘ldi. Bu kashfiyotga Qohira shahridan uncha uzoq bo‘lmagan Rozett shahri yaqinidagi bir toshga chekilgan qadimgi misr va qadimgi yunon tillaridagi bir xil ma’nodagi bitik sababchi bo‘ldi. Yunon tilidan tarjima qilish qiyinchilik tug‘dirmadi, matnlarni taqqoslab ko‘rib, har bir iyeroglif anglatgan ma’noni tushuntirib berish imkoni topildi. Ana shu kashfiyotdan keyin papiruslarga bitilgan ko‘plab matnlar, ibodatxonalar va piramidalar devorlaridagi bitiklar ko‘p asrlik jimjitlikdan so‘ng “tilga kirdi”. Tarixchilar esa qadimgi Misr sivilizatsiyasini o‘rganish uchun muhim va ishonchli manbaga ega bo‘lishdi. Bugungi kunda Rozett bitiktoshi Londondagi Britaniya muzeyida saqlanmoqda.



Jak-Fransua Shampolyon



AMALIY BILIMLARNING DUNYOGA KELISHI

Misrda amaliy bilimlarning dunyoga kelishi va rivoj topishi misrliklarning kundalik hayoti bilan bog‘liq bo‘lgan. Ziroatkorlar qachon urug‘likni yerga qadash, qay mahalda hosilni yig‘ishtirib olishni bilishi zarur edi. Bu muddatlarni misrliklar yulduzlarga qarab aniqlagan. Shu tariqa **astronomiya,** ya’ni yulduzlar haqidagi fan dunyoga keldi.

Yulduzlarni kuzata turib, misrliklar yil davomiyligini 365 kun etib aniq belgiladi, birinchi bo‘lib taqvim tuzdi, 365 kunni esa 30 kundan 12 oyga taqsimladi, ortib qolgan 5 kunni bayram kunlari sanab, hisobga kiritmadi.


Anhorlar qazilayotganda, istalgan imorat va inshootni barpo etayotganda maydon hajmini o‘lchash zarur edi, shu tariqa **geometriya** fani – yer yuzasini o‘lchash ilmi dunyoga keldi. Misrliklar nafaqat oddiy arifmetik hisoblashni, qolaversa, kasrlar, maxrajlar va murakkab hisob-kitoblarni ham bilishgan. **Matematika** fani ana shu asosda taraqqiy etdi.

Misrliklar **tibbiyot** fani haqidagi bilimlarga ega bo‘lishgan. Mumiyolangan mayitlarni tayyorlash jarayonida misrliklar odamning ichki tuzilishini ham yaxshi o‘rgangan. Davolash muolajasida giyohlar damlamasi, ma’danli suvlar va tuzdan keng foydalangan. Misr shaharlarida tabiblarga ta’lim beruvchi maxsus maktablar bo‘lgan.

Misrda asosiy o‘lchov birligi “tirsak” bo‘lib, u tirsakdan barmoqlar uchigacha bo‘lgan uzunlikka teng edi. Qo‘llar uzunligi turlicha bo‘lgani sababli “podsho tirsagi” degan yagona o‘lchov joriy etilgan, u 52,5 santimetrga teng bo‘lgan.


Misrda vaqt 24 ta bo‘lmaga ajratilgan maxsus idishdan iborat suv soatlari yordamida o‘lchangan. Bir bo‘lmadan ikkinchisiga oqib o‘tadigan suvning hajmi bir soat deb hisoblangan.

O‘LCHOV BIRLIGI



Bir kaft = to‘rt barmoq

Bir tirsak = yettita kaft



Qadimgi Misr tabibi

SAVOL VA TOPSHIRIQLAR

1. Qadimgi Misr yozuvining o‘ziga xosligi nimada?
2. Nima uchun misrliklar iyerogliflarni “muqaddas kalom” deb atagan?
3. Misr yozuvi sirini Siz ham yecha olarmidingiz? Qanday qilib?
4. Misrliklarning dunyoviy bilimlaridagi yutuqlarni sanab bering.

11-§. Mesopotamiya sivilizatsiyalari



TABIIY SHAROITI VA AHOLISI


Dajla va Frot daryolari oralig'idagi vodiyni yunonlar **Mesopotamiya** deb nomlashgan, bu atama **"ikki daryo oralig'i"** degan ma'noni anglatadi. Odamlar Mesopotamiyaga qadim zamonlarda kelib o'rnashgan.

Mesopotamiyaning tabiiy sharoiti Misrnikiga o'xshash: daryolarning toshqin suvlari, ishlov berish uchun qulay, serunum yerlar. Qishda surunkali yomg'ir va daryolar toshqini bo'lib turgan.

Mil. avv. 4-mingyillikda Mesopotamiyada **shumerlar** manzilgohlari va shaharlari vujudga kela boshladi. Ular Janubiy Mesopotamiyaga joylashib, bu yurtni **Shumer** deb ataydilar. Mamlakatning **Akkad** deb atalgan shimoliy qismida **akkadlar** yashagan.



Kotib ish ustida




Mesopotamiya xaritasi



Shumer mixxat yozuvi





MESOPOTAMIYA AHOLISINING MASHG‘ULOTLARI


Mesopotamiya aholisining asosiy mashg‘uloti dehqonchilik bo‘lgan. Dajla va Frot daryolarining har yilgi toshqinlari mahalida suv bilan birga dalalarga unumdor loyqa oqib kelgan. Mesopotamiyada yog‘och va metall kabi xo‘jalik uchun zarur materiallar bo‘lmagan, ammo don mo‘l-ko‘l yetishtirilgan, chorva mollari ko‘p bo‘lgan. Shuning uchun Mesopotamiya aholisi savdo-sotiq bilan ham shug‘ullanardi. Qo‘shni Kavkazorti va Eron o‘lkalaridan donga ayirboshlab oltin, mis, kumush, qalay va noyob toshlarni keltirardi.

Mesopotamiyada turli hunarmandchilik buyumlari bilan ham savdo qilishgan. Metall buyumlar, zeb-ziynatlar, qurol-yarog‘ va kulolchilik buyumlari ayniqsa qadrlangan. Savdo-sotiqda kumush quymasi ko‘rinishidagi metall tangalar ishlatilgan. Mesopotamiyadagi og‘irlik o‘lchovi **“mino”** 550 gramm kumushga barobar bo‘lgan.

Shumerlar jahondagi eng qadimgi yozuvlardan biri – **mixxat**ni ixtiro qilgan. Shumerlar uchi o‘tkirlangan tayoqchalar bilan loy taxtachalarga yozgan. Shumerlar bilimdon, tajribali quruvchilar va hunarmandlar bo‘lgan.

O‘ylab ko‘ring

Nima uchun shumerlar loy taxtachalarga yozishgan?




Shumerliklar bayramining boshlanishi.
Zamonaviy rasm

MESOPOTAMIYADAGI QADIMIY SHAHAR-DAVLATLAR

Vaqt o‘tishi bilan asta-sekin manzilgohlar nihoyatda kengayib ketdi. Miloddan avvalgi 4-mingyillik oxirida Mesopotamiyada **Uruk, Umma, Lagash, Ur** va boshqa shaharlar vujudga kela boshladi. Ular shahar va unga tutash dehqonchilik tumanlaridan iborat bo‘lgan **shahar-davlatlar** edi.


Har bir shaharda oliy ma’bud nomidan kohinlar hukmronlik qilgan, ibodatxonalar esa davlatdagi hokimiyat markazi bo‘lgan. Mesopotamiyaning qadimiy ibodatxonalari – **zikkuratlar** xom g‘ishtdan terib chiqilgan muhtasham zinapoyali inshoot bo‘lgan.



Zikkurat.
Zamonaviy rasm

Quyosh ma’budi – **Shamash** alohida ehtiromga sazovor bo‘lgan iloh, oliy hakam hisoblanib, yovuz ishlari uchun odamlarni sud qilgan. Shuningdek, shumerliklar Oy ma’budi – **Sin**, suv ma’budi – **Ea**, hosildorlik va sevgi, urush va g‘alaba ma’budasi – **Ishtar**ga sig‘ingan.

Mesopotamiyaning katta yer-mulklari hukmdorlar va kohinlar qo‘l ostida bo‘lgan. Dalalarga qullar va erkin yollanma ishchilar ishlov bergan. Shaharlar tevaragida istiqomat qiluvchi aholi kichik-kichik yer ulushlariga ega bo‘lgan. O‘z oilasini boqish uchun kambag‘allar podsho va ibodatxona mulklarida ishlagan.



Ur shahri. Shumer

Shumer shaharlari mudofaa devorlari bilan o‘rab olingan edi. Shaharning bosh darvozasidan boshlangan ko‘chalar markaziy maydonga, ibodatxona va hukmdor saroyiga olib borgan. Qurilish tosh, xom va pishgan g‘isht bilan amalga oshirilgan. Ibodatxonalar ma’budlar haykallari bilan hashamatli bezatilgan edi. Urush paytida shahar aholisi sardorni saylagan. Bora-bora ularning nufuzi ortib, sardorlar muntazam hukmronlik qila boshladi. Ularni **podsholar** deb atashgan. Podsho shahar-davlatni aslzodalar, kohinlar va harbiy qo‘shinga tayangan holda amaldorlar yordamida idora qilgan.

Shahar atrofi



GILGAMISH HAQIDAGI RIVOYAT

Mesopotamiya rivoyatlarining eng sevimli qahramoni **Gilgamish** Uruk shahri podshosi bo‘lgan. Uning hayoti keyinchalik ko‘plab afsonalarga aylangan.

Afsonada aytilishicha, Gilgamish dunyoga kelgandan keyin, mamlakat hukmdori bo‘lmish bobosi nevarasi undan taxtni tortib olishidan vahimaga tushgani sababli Gilgamishni jarga tashlab yuborishga buyruq beradi. Jarga uloqtirilgan Gilgamishni uchib ketayotgan burgut tutib olib, ko‘tarib ketadi va uni bir bog‘bonga eltib beradi. Bog‘bon Gilgamishni mehr bilan parvarishlab tarbiyalaydi. Balog‘atga yetgan Gilgamish bobosidan hokimiyatni tortib oladi va o‘zi Uruk shahrini boshqarishga kirishadi. Gilgamish Enkidu degan pahlavon bilan do‘st tutinadi. Ikkalasi bir bo‘lib yovuz maxluqotlarga qarshi kurashadi, buning uchun ma’budlar Enkiduni jazolaydi va u o‘ladi. Boqiy hayotga erishish uchun Gilgamish dengiz tubida o‘sadigan sehrli giyohni izlab topadi, uni o‘z xalqi bilan baham ko‘rishga qaror qiladi. Ammo ortiga qaytayotganida bir ko‘lga cho‘milgani tushadi, bu paytda giyohning isini ilon sezib qoladi va mehrigiyoni o‘g‘irlab ketadi. Afsonada aytilishicha, o‘shandan beri ilonlar har yili po‘stini tashlab yasharar emish. Gilgamish esa jonajon shahri devorlari uni himoyalashini, ezgu ishlari uni umrboqiy qilishini tushunib yetadi.



Uruk shahri podshosi Gilgamish



Gilgamish va Enkidu o‘zaro musobaqa paytida



Shumer-Akkad davlati podshosi Sargon I. *Zamonaviy rasm*

AKKADNING YUKSALISHI

Shahar-davlatlar bir-birlari bilan tinimsiz urushlar olib borar edi. Ana shu urushlar natijasida, mil. avv. 3-mingyillikning ikkinchi yarmida Akkad podshosi **Sargon I** Akkadni va Shumer shaharlarini o‘z hokimiyati ostiga birlashtiradi.


Savdo-sotiqni rivojlantirish maqsadida Sargon I barcha shaharlar uchun yagona bo‘lgan uzunlik, maydon va og‘irlik o‘lchovini joriy etadi. U jahon tarixida birinchi bo‘lib muntazam qo‘shin tuzadi. Bu lashkar 5400 nafar jangchidan iborat bo‘lgan, keyinchalik esa ular Sargon I ga ko‘plab shaharlar va qo‘shni mamlakatlarni zabt etishga imkoniyat yaratgan. Shu bois Sargon I o‘zini “to‘rt iqlim mamlakati podshosi” deb e’lon qilgan.

Sargon I vafotidan keyin uning taxtiga o‘tirgan vorislari mamlakatda alanga olib turgan qo‘zg‘olonlarni bostirishiga to‘g‘ri keldi. **Shumer-Akkad davlati** ko‘chmanchi qabilalar zarbasidan parchalanib ketdi.



SAVOL VA TOPSHIRIQLAR

1. Mesopotamiyaning qaysi qismlari shumerlar va akkadlar tomonidan o‘zlashtirilgan edi? Ularning mashg‘ulotlari haqida so‘zlab bering.
2. Gilgamish haqida nimalarni bilasiz?
3. Tasavvur qiling, qadimgi savdogar sifatida Siz Dajla daryosida kemada turli mahsulotlar bilan suzib ketyapsiz. Shumerning qaysi shaharlarida savdo-sotiq ishlarini amalga oshirish imkoniyatiga ega bo‘lardingiz? Xaritadan foydalanib hikoya qiling.



Ma’buda Ishtar darvozasi

12-§. Bobil podsholigi

BOBIL – “XUDOLAR DARVOZASI”

Mil. avv. II mingyillikda Bobil podsholigi Mesopotamiya janubidagi eng yirik qudratli davlatga aylandi. Bobil qulay geografik o‘ringa ega bo‘lib, Frot va Dajla daryolarining o‘zanlari bir-biriga yaqinlashib ketadigan hududda joylashgandi. Kemalarda turli mahsulotlar bilan suzib kelgan savdogarlar bu shaharga to‘xtab o‘tishar edi. “Bobil” so‘zining o‘zi esa “xudolar darvozasi” degan ma’noni anglatadi. Bobil shahrida ajoyib saroylar, muhtasham ibodatxonalar bo‘lgan.

Bobilning bosh ko‘chasi g‘alaba ma’budasi **Ishtar** darvozasidan boshlangan. Bobil davlatida dehqonchilik, hunarmandchilik, ishlab chiqarish va savdo-sotiq rivojlangan. Ammo o‘zaro urushlar bunga xalaqit berardi.

Mil. avv. XVIII asrda Bobil podshosi **Xammurapi** butun Mesopotamiyani yagona davlatga birlashtirishga muvaffaq bo‘ladi. Xammurapi hukmronligi davrida Bobil eng qudratli davlatga aylanadi.

Bobil va bobilliklar



Bobil

XAMMURAPI QONUNLARI

Xammurapi tarixda qonunlar tuzuvchi hukmdor sifatida nom qoldirgan. Mazkur qonunlar ilgari mavjud bo‘lgan barcha qonunlardan ustunlik qiladi. Xammurapi qonunlari hamma uchun – badavlat va qashshoq kishilar uchun birdek bo‘lgan. Qonunlarning matnlari mamlakatning barcha shaharlarida o‘rnatilgan tosh ustunlarga yozib qo‘yilardi.

Xammurapi qonunlari qat’iyligi bilan kishini lol qoldiradi. Xususan, shifokor amalga oshirgan jarrohlik muolajasi natijasida bemor bevaqt vafot etsa, shifokorning qo‘llari kesib tashlanishi shart bo‘lgan. Mabodo binokor qurgan uy to‘satdan qulab, biror kishini bosib qolsa, binokor qatl etilishi lozim bo‘lgan. Yong‘in mahalida o‘g‘rilik ustida qo‘lga tushgan kimsa o‘sha zahoti olovga tashlangan. Qulfbuzar o‘g‘ri esa bundan ham qattiqroq jazoga mahkum etilgan: u o‘zganing mulkiga tajovuz qilgan joyida o‘ldirilgan va o‘sha yerning o‘zida ko‘mib yuborilgan.

Xammurapi qonunlari nomigagina podshoning qarori bo‘lmasdan, ma’budlar xohish-irodasi sifatida talqin etilgan, shuning uchun ham ularni so‘zsiz, og‘ishmasdan bajarish talab qilinardi. Xammurapi qonunlari jamiyat rivojiga katta imkoniyat yaratib berdi, negaki talon-tarojlik va o‘g‘rilik kabi jinoyatlar deyarli sodir etilmasdi.


O‘ylab ko‘ring

Xammurapi bunday qat’iy qonunlarni joriy etib adolatga intilganmi yoki, aksincha, noto‘g‘ri ish qilganmi?

- Bobil – “xudolar darvozasi”
- Bobil podsholigi mil. avv. 2-mingyillik
- G‘alaba ma’budasi Ishtar
- Xammurapi qonunlari (qat’iy qonunlar)

Bobil minorasi. *Zamonaviy rasm*





Qal’aga hujum

YANGI BOBIL PODSHOLIGI

Miloddan avvalgi VII asrda Yangi Bobil podsholigi vujudga kelgan. **Navuxodonosor II** hukmronligi davrida Yangi Bobil podsholigi o‘z ravnaqining cho‘qqisiga erishadi. Bu hukmdor Misrni Yangi Bobil podsholigiga qo‘shib oladi, Iyerusalim (Quddus)ni vayron qilib tashlaydi, Bobilni esa mustahkam qal’aga aylantiradi. Navuxodonosor II turarjoy binolari va mudofaa devorlari qurilishida pishgan g‘isht ishlatish to‘g‘risida farmon beradi.

U hukmronlik qilgan davrda Bobil shahrining sakkizta darvozasi bo‘lgan, ulardan har biri mamlakat bosh ma’budlaridan birining nomi bilan atalgan. Ayniqsa, ma’buda Ishtar nomidagi darvoza chiroyli va nafis bo‘lib, afsonaviy hayvonlar tasviri tushirilgan naqshinkor tosh taxtachalar bilan bezatilgan.



Xammurapi qonunlari bitilgan tosh ustun nusxasi



Shaharning markaziy ko‘chasi. *Zamonaviy rasm*

Qadimgi forslar lashkari **mil. avv. 539-yilda** Bobilga bostirib kiradi. Forslar shaharni zabt etadi. Shu paytdan boshlab Yangi Bobil podsholigi Fors davlati tarkibiga kiradi.

BOBIL MADANIYATI

Shumer va Akkad Bobil madaniyatining eng qadimiy o‘choqlari edi. Jahondagi qadimiy yozuvlardan biri bo‘lmish **Shumer mixxati** dastlab “suv”, “quyosh” va boshqa alohida so‘zlarni anglatgan rasmlardan iborat bo‘lgan.

Hukmdorlar saroylari va ibodatxonalarda zodagonlar hamda badavlat oilalarning farzandlari ta’lim oladigan maktablar tashkil qilingan edi. O‘quvchilar nam loy taxtachalarga suyak va yog‘ochdan yasalgan tayoqchalar bilan yozishgan.

Loy taxtachalar oldin oftobda quritilgan, so‘ng xumdonlarda pishirilgan. Bu taxtachalar ilk kitoblar bo‘lib, o‘quvchilar ularga asotirlar va afsonalarni ko‘chirib yozishgan, o‘simliklar, qushlar, hayvonlar va qurt-qumursqalar nomlari qayd etilgan ro‘yxatlar tuzishgan. Loy taxtachalarda mamlakatlar va shaharlar nomlari ham sanab o‘tilgan.

Shumerliklar sanoq tizimi, quyosh va oy taqvimlarini ham yaratdi. Quyosh yili davomiyligi shumerliklar tomonidan 365 kun, oy yili esa 354 kun etib belgilangan. Shumerlik va bobillik kohin-munajjimlar astronomiyaga oid bilimlarga ega bo‘lgan. Eng qadimgi rasadxonalar baland, ko‘p zinali ibodatxonalar – zikkuratlar yuqorisidagi maydonchada barpo etilgan.

Mesopotamiyada turli-tuman dori-darmonlarni tayyorlash bo‘yicha dasturulamal tuzilgan.

Geografiya sohasidagi bilimlar shumerliklar va bobilliklarga kemalarda dengiz bo‘ylab suzish imkonini bergan. Olam yaratilishi haqidagi eng qadimiy asotirlardan biri Mesopotamiyada paydo bo‘lgan.



Navuxodonosor II.
Zamonaviy rasm

Navuxodonosor II hukmronligi davrida Yangi Bobil podsholigi o‘z ravnaqining cho‘qqisiga erishgan

Mil. avv. VII asrda Yangi Bobil podsholigi vujudga kelgan

SAVOL VA TOPSHIRIQLAR

1. Xaritadan Bobil podsholigi va uning poytaxtini toping.
2. “Bobil” so‘zi qanday ma’noni anglatadi?
3. Qaysi hukmdor davrida Bobil yagona davlatga aylangan?
4. Xammurapi qonunlari qaysi maqsadda yaratilgan edi?
5. Shumer o‘quvchisi zamonaviy maktab o‘quvchisi singari erta bilan maktabga shoshilardi, u darsga kech qolishdan qo‘rqardi, maktabga kelib... Hikoyani davom ettiring.

Poytaxt Ashshur → Nineviya

Ossuriya podsholigi (Iroq)

Ashshur-banipal, kutubxona

Mil. avv. 605-yilda Midiya va Bobil tomonidan zabt etilgan


13-§. Old Osiyo davlatlari



OSSURIYA PODSHOLIGI

Mil. avv. 2-mingyillikda Old Osiyo hududida Ossuriya podsholigi vujudga kelgan. Qadim zamonlarda ossuriyaliklar Frot va Dajla daryolari yuqori oqimidagi (hozirgi Iroq) kichik hududni egallagan. Avval **Ashshur** shahri, keyin esa **Nineviya** shahri poytaxt bo‘lgan. Aholisining asosiy mashg‘ulotlari dehqonchilik va savdo-sotiq edi.

Ossuriyaliklar jangari xalq bo‘lgan. Ular qo‘shni yerlarga tez-tez hujum qilib turardi. Ossuriyaliklarning qudratli lashkari har yili yangi yerlarni zabt etishga otlanar edi. Bo‘ysundirilgan xalqlar Ossuriya hukmdoriga katta miqdorda o‘lpon to‘lagan.



Jangovar arava

Ossuriya poytaxtida ulug‘vor saroylar va ibodatxonalar mavjud bo‘lgan. **Ashshurbanipal** hukmronligi yillarida **Nineviya**da sopol taxtachalardan iborat yirik kutubxona jamlangan edi.

Asta-sekin Ossuriya davlati zaiflashib bordi. **Mil. avv. 605-yilda** Ossuriya qo‘shinlari Midiya va Bobil tomonidan tor-mor etilganidan keyin davlat ham zavolga yuz tutdi.





Jang tasviri

Poytaxt Tushpa

Urartu (Kavkazorti)

Teyshebaini shahar-qal'asi


Skif qabilalari tomonidan ishg'ol etiladi, Midiya tomonidan bosib olinadi

URARTU PODSHOLIGI

Urartu davlati Kavkazortida, hozirgi Turkiyaning sharqiy qismida va Armaniston hududlarida joylashgan. Aholisini **urartlar** deyishgan. Ossuriya hujumlaridan himoyalanish zarurati Urartu davlati tashkil topishini tezlashtiradi.

Mil. avv. IX–VIII asr boshlarida Urartu davlati gullab-yashnadi. **Tushpa** shahri Urartu davlati poytaxtiga aylanadi. Urartlar bir necha marta bosqinchilik yurishlariga chiqadilar va ossuriyaliklar ustidan g'alaba qozonadilar. Ammo keyinroq ossuriyaliklar qo'shini urartlar qo'shinini tor-mor etadi. Keyinchalik **Teyshebaini** shahridagi qal'a ko'chmanchi **skif** qabilalari tomonidan ishg'ol etiladi va vayron qilib tashlanadi. Shundan keyin Urartu podsholigini Midiya bosib oladi.

Teyshebaini qal'asi





Urartu kamonchisi

O‘ylab ko‘ring

O‘zingizni Old Osiyo davlatlaridan birining hukmdori deb tasavvur qiling. Davlatingiz parchalanib ketmasligi uchun nima qilishingiz kerak edi?

Finikiya (Livan, Suriyaning bir qismi)

Shaharlari: Tir, Sidon, Ugarit

Mil. avv. X asrda 22 ta undosh harfdan iborat bo‘lgan alifbo yaratilgan

FINIKIYA Qadim zamonlarda Finikiya O‘rta Yer dengizining sharqiy qirg‘og‘i bo‘ylab hozirgi Livan hududida va Suriyaning bir qismida joylashgan.


Savdo-sotiq finikiyaliklarning asosiy mashg‘ulotlaridan biri bo‘lgan. Finikiyaliklar qo‘shnilariga yog‘och, metallar va gazlamalar sotardi. O‘rta Yer dengizi sohilida **Tir, Sidon, Ugarit** singari yirik dengiz bo‘yi shaharlari vujudga keladi.

Mil. avv. X asrda Finikiyada 22 undosh harfdan iborat bo‘lgan alifbo yaratildi. Yunonlar ana shu alifboni o‘zlashtirib oldi va ularga unli harflarni ham qo‘shib qo‘ydi.



Finikiyaliklar kemasi

FALASTIN Mil. avv. XI asrda Falastin hududida **Isroil podsholigi** vujudga keldi, keyinchalik u Yahudiy podsholigi bilan birlashdi. Yahudiy podsholigi Bobil podsholigi tomonidan bosib olindi.



Bibliya matnlari yozilgan parcha

Qadimiy yahudiylarning afsonalari diniy kitoblarga yozib borilgan. Bu kitoblar to‘plami ***Bibliya****ga jamlangan, bu so‘z yunonchada “kitob” degan ma’noni anglatadi. Bibliyada olam, yer yuzidagi ilk odamlar – Odam Ato va Momo Havoning yaratilishi, yer yuzini to‘fon bosishi haqida va boshqa rivoyatlar mavjud.*

SAVOL VA TOPSHIRIQLAR

1. Old Osiyo hududida ilk davlatlar qachon vujudga kela boshladi?
2. Ossuriya podsholigi haqida nimalarni bilasiz?
3. Qaysi shaharda sopol taxtachalardan iborat eng yirik kutubxona bo‘lgan?
4. Urartu davlatining ravnaq topishi va zavolga yuz tutishi sabablari nimada?
5. Finikiyaliklar mashg‘ulotlari haqida so‘zlab bering.

14-§. Ahamoniylar davlati

QADIMGI ERON AHOLISI VA DAVLATLARI

Hozirgi Eron hududida qadim zamonlarda **kassiylar, elamiylar** singari turli qabilalar yashagan.

Vaqt o‘tib bu mamlakatga **midiyaliklar va forslar** ko‘chib o‘rnashadi.

Tog‘oldi vodiylarda aholi dehqonchilik bilan shug‘ullangan, dasht mintaqalarida chorvadorlar kun kechirgan.

Eronning janubi-g‘arbiy qismida, Mesopotamiya bilan chegarada **Elam davlati** vujudga keladi. Bu davlatning poytaxti **Suza** shahri bo‘lgan. Elamda jahondagi eng qadimiy yozuvlardan biri yaratilgan.

Kaspiy dengizidan janubi-g‘arbda **Midiya** joylashgan. **Mil. avv. VII asrda** podsho **Kiaksar** hukmronligi davrida Midiya qudratli davlatga aylanadi. Midiya davlati Bobil bilan ittifoq bo‘lib, Ossuriyani bosib oladi. Eronning janubida, Fors ko‘rfaziga tutashib ketgan yerlarda, Fors viloyati – qadimgi forslar o‘rnashgan o‘lkada ham davlat vujudga kelgan.

KIR II – FORS HUKMDORI


Mil. avv. 558-yilda Ahamoniylar sulolasidan bo‘lmish podsho **Kir II** barcha forslarni o‘z hokimiyati ostida birlashtirdi. Midiya podsholigini bo‘ysundirganidan so‘ng Kir II ulkan lashkar tuzdi va bosqinchilik yurishlarini davom ettirdi.

Armaniston, Midiya va Bobil zabt etildi. Forslar O‘rta Yer dengizi sohiliga chiqib, Falastin va Finikiyani bo‘ysundiradi. Kir II ning istilochilik siyosatini vorislari – **Kambiz II** va **Doro I** ham davom ettirdi. Kambiz II Misrni zabt etish orqali Fors davlati hududini nihoyatda kengaytirdi.



Kir II





Ahamoniylar davlati

Ahamoniylar davlati jahondagi eng yirik davlatlardan biri bo‘lgan.



Oltin tanga

DORO I ISLOHOTLARI

Mil. avv. 522-yilda shoh **Doro I** qadimgi Fors davlati taxtiga chiqdi. Bu paytda bosib olingan barcha mamlakatlarda qo‘zg‘olonlar alangalanib ketdi. Ahamoniylar shohi Doro I ularni bostirishga kirishdi.

Doro I Qora dengiz bo‘ylarida yashovchi **skiflar** ustiga yurish qildi. Doro I ning Kichik Osiyodagi yunonlar koloniyalari va Bolqon yarimoroli sharqida joylashgan Frakiyani bosib olishi yunon-fors urushlari boshlanib ketishiga sabab bo‘ldi. Doro I hukmronligi davrida Hindiston shimolidan O‘rta Yer dengiziga qadar yastangan ulkan davlat barpo etiladi.

Doro I butun mamlakat uchun **“darik”** deb nomlangan yagona oltin tangani muomalaga kiritadi. U qadimgi Fors podsholigi qarorgohi **Persepol** shahridan O‘rta Yer dengiziga qadar **“shoh yo‘li”** deb ataluvchi savdo yo‘lini qurdirgan edi. Doro I qo‘shinlarni qaytadan tuzdi, saltanatni satrapiyalar deb nomlangan alohida harbiy-ma’muriy o‘lkalarga bo‘lib chiqdi.



Doro I taxtda. Sovg‘alar qabul qilish marosimi




Persepol xarobalari

QADIMGI FORSLAR MADANIYATI

Suza, Ekbatana va boshqa shaharlar Ahamoniylar davlatidagi muhim savdo markazlari bo‘lgan. Persepol shahrida Doro I va Kserksning turli xonalar va yuz ustunli zali bo‘lgan saroyining qoldiqlari saqlanib qolgan. Saroy afsonaviy va xayoliy qushlar tasviri bilan bezatilgan edi. Persepol saroyi devorlaridagi bo‘rtma naqshlarda ahamoniylar bo‘ysundirgan ko‘pgina elatlarning tasvirlari saqlanib qolgan. Ular asosan Fors shohlariga o‘lpon keltirayotgan holatda tasvirlangan.

Qadimgi forslar mixxat belgi-yozuvidan foydalangan. Fors shohlarining bitiklari **Behistun** va **Naqshi Rustam** qoyalariga, shuningdek, Persepol saroyi devorlariga o‘yib yozilgan. Ular yurishlar, qo‘zg‘olonlar va davlat hayotidagi muhim voqealar haqida ma’lumot beradi.

Makedoniyalik Aleksandr mil. avv. 330-yilda Fors davlatini bosib oldi.




SAVOL VA TOPSHIRIQLAR

1. Qadimgi Eronda qaysi qabilalar yashagan?
2. Elam davlati qachon vujudga kelgan?
3. Kir II qaysi davlatlarni bosib oldi?
4. Doro I o‘z davlatida qanday islohotlar o‘tkazdi?
5. Qadimgi forslar madaniyati to‘g‘risida so‘zlab bering.

15-§. Qadimgi Hindistondagi ilk sivilizatsiya




Hindlar qo‘shinidagi jangovar fil



HUDUDI VA TABIIY SHAROITI

Hindiston – Hind va Gang daryolari vodiylaridagi Osiyo qit’asining bir qismini egallagan mamlakat. Tabiiy sharoiti, issiq iqlim va daryolar dehqonchilik vujudga kelishi va rivoj topishi uchun imkoniyat yaratgan. Himolay tog‘lari shimoldan keladigan sovuq shamollarni to‘sib turadi.

Gang vodiysidagi tropik o‘rmonlar ulkan daraxtlar va rang-barang o‘simliklarga boy bo‘lgan.




Mohenjodaro. *Tiklangan*



HIND VODIYSIDAGI ENG QADIMGI SHAHARLAR

Mohenjodaro va **Xarappa** Hind daryosi havzasining eng yirik qadimgi shaharlari edi. Ikkala shahar ham mustahkam mudofaa devorlari bilan himoyalangan, ichki qasri bo‘lgan. Ko‘chalar bilan biri-biridan ajratilgan mavzelardan pishiq va xom g‘ishtdan qurilgan binolar (turarjoylar, omborxonalar, saroy va ibodatxonalar) topilgan. Katta va chiroyli shahar Mohenjodaro hunarmandchilik va savdo markazi bo‘lgan.



Xarappa shahri

Aholisining asosiy mashg‘uloti dehqonchilik bo‘lgan. Qadimgi hindlar shakarqamish, paxta o‘simliklarini yetishtirgan, fillarni qo‘lga o‘rgatgan.

Biroq **mil. avv. XVIII asrdan** keyin Hind daryosi vodiysi shaharlari tez-tez ro‘y beruvchi toshqinlar, o‘rmonlar va changalzorlar kengayishi natijasida zavolga yuz tutib, butunlay vayronaga aylanadi.

DINIY E’TIQODLAR

Qadimgi hindlar xuddi misrliklar va bobilliklar singari tabiatni ma’budlar boshqarishiga ishonardi. Qadimgi hind rivoyatlarida aytilishicha, Quyosh ma’budi har tongda oltin aravada osmon bo‘ylab yo‘lga tushadi. Quyosh tungi zulmatni parokanda qilib tashlab, odamlarga harorat va yorug‘lik ulashish niyatida ufqdan bosh ko‘taradi.



Qishloq hayoti. *Zamonaviy rasm*

Momaqaldiroq ma’budi **Indra** osmondagi suvni tutqunlikdan xalos etgach, yer yuzida qurg‘oqchilik poyoniga yetadi.

Hindlar ayrim ma’budlarni yovvoyi hayvonlar timsolida tasavvur etishgan. Masalan, ular sig‘ingan ma’budlardan biri boshi filnikiga o‘xshagan donishmandlik ma’budi **Ganesha** bo‘lgan. Sigir hindlar orasida alohida ehtiromga sazovordir. Sigir muqaddas hayvon hisoblanib, uni o‘ldirish jinoyat hisoblangan.




Donishmandlik ma’budi Ganesha

Hindlar jon bir tanadan boshqasiga ko‘chib o‘tishiga ishongan. Ular vafot etganidan keyin odam butunlay o‘lmaydi, balki boshqa bir mavjudotga aylanib, o‘z tashqi qiyofasini o‘zgartiradi, hayvonga, qumursqaga va o‘simlikka aylanadi deb hisoblagan.

KASTALAR

Qadimgi hindlar qanday yumushlar bilan shug‘ullanishiga qarab to‘rt tabaqaga ajratilgan edi. Bu tabaqalar **kasta** yoki **varna** deb atalgan, ular: kohinlar – **brahmanlar** (hind ruhoniylari), jangchilar – **kshatriylar**, dehqon,



Qadimgi ibodatxona xarobalari

hunarmand va savdogarlar – **vayshiylar**, xizmatkorlar va qullar – **shudralar**.


Hindlarning e'tiqodicha, tabaqalardan har birini oliy ma'bud **Brahma** o'z jismining qaysidir bir qismidan dunyoga keltirgan ekan.

Masalan, kohinlar uning og'zidan chiqqan, jangchilar qo'llaridan, dehqonlar qovurg'asidan, xizmatkorlar esa Brahmaning tovonidan yaratilgan deb hisoblangan. Bolalar hamisha ota-onalari tabaqasiga mansub deb topilgan. Bir tabaqadan boshqasiga o'tishning iloji bo'lmagan.

Tabaqalardan birortasiga mansub bo'lmaganlar esa alohida maqomga ega bo'lishgan. Bundaylarni "**chandal**", ya'ni "hazar qilinadiganlar" deyishgan. "Chandallar" kastalarga mansub odamlar bilan birga bir uyda yashay olmasdi, ular bilan bir dasturxonga o'tirish taqiqlangan. Tasodifan ularga hech kim tegib ketmasligi uchun, chandallar uzoqdan ko'rinadigan alohida kiyim kiyishlari shart edi.



Bu kabi sherlar tasviri bilan ibodatxona ustunlari bezatilgan



Hind kastalari

O'ylab ko'ring

Sizningcha, Hindiston aholisi nima maqsadda kastalarga ajratilgan edi?

SAVOL VA TOPSHIRIQLAR


1. Xaritadan Hindistonni toping. Uning geografik o'rni, xususiyatlari haqida so'zlab bering.
2. Nima uchun Hindiston aholisi turli tabaqalarga ajratilgan edi?
3. Hindiston e'tiqodlari xususiyatlarini sanab bering. Ular qaysi hayvonlarga ehtirom ko'rsatishgan va nima uchun?
4. Hindiston jamiyati qaysi tabaqalarga bo'lingan?
5. Mohenjodaro shahriga xayolan sayohat qilib, bu shahar haqida hikoya tuzing.

16-§. Qadimgi Hindiston madaniyati


FAN VA MADANIYAT

Qadimiy Hindistonda ilm-fan, xususan, astronomiya va matematika sohalari yuksalgan. Hindlar yil hisobining 360 kundan tarkib topgan taqvimini tuzadi. Bu davrda sanash va hisoblash tizimi keng tarqaladi: hindlar juda katta raqamlarni bildiruvchi alohida belgilarni ishlatgan.

Shuningdek, hind astronomlari katta yutuqlarga erishgan. Ular Quyosh, yulduzlar va sayyoralar harakatini o‘rgangan. Shu kuzatuvlar natijalari yil uzunligini aniqlashga imkon beradi. Oy yog‘dusi uning sirtiga tushgan quyosh nurining akslanishi ekanligi ham hindlarga ma’lum bo‘lgan.



Astronomlar ish ustida



Qadimgi hindlarning kundalik hayoti. *Tiklangan*



Mahabharata dostoni. *Zamonaviy rasm*

Qadimgi Hindistonda tibbiyot sohasi rivoj topgan. Yozma manbalarda turli xil kasalliklar va jarrohlik asboblari tilga olingan. Hindlar kasalliklarni davolashda shifobaxsh dorilardan foydalangan.

Hindistonda ixtiro qilingan, hindlarning o‘zi “qo‘shinlarning to‘rt turi” deb ataydigan o‘yin bugungi kunda butun jahonda **shaxmat** nomi bilan ma’lum va mashhurdir.

Qadimiy hind tillari asosida yangi adabiy til bo‘lmish **sanskrit** ishlab chiqildi. “Mahabharata”, “Ramayana” dostonlari hamda boshqa asarlar ana shu tilda yozilgan bo‘lib, ular bugungi kunga qadar yetib kelgan.



Sanskrit yozuvi



Hindlar ixtiro qilgan shaxmat donalari



"XUDOLARSIZ DIN"

Jamiyatdagi o‘zgarishlar ta’sirida hindlarning diniy e’tiqodlari ham o‘zgarib borgan. **Mil. avv. VI asrda** yangi buddaviylik dinining yaratilishi **Budda** taxallusini olgan shahzoda **Siddhartha Gautama** nomi bilan bog‘liq.

Rivoyatda naql qilinishicha, shahzoda Siddhartha Gautama 20 yoshga to‘lguniga qadar hukmdor otasi saroyida betashvish kun kechirgan. U kunlardan bir kuni sayr qilib yurgan paytda munkillagan, bedavo dardga yo‘liqqan bir kishiga, keyin esa dafn marosimiga ko‘zi tushadi. Shunday qilib, shahzoda inson azob chekishi mumkinligini va vaqti kelib vafot etishini angladi. Bu Siddhartha Gautama hayotini tamomila o‘zgartirib yubordi. U saroydagi farog‘atli turmushdan voz kechdi, hayot mazmunini izlab topish maqsadida dunyo bo‘ylab sayohatga otlandi.

Budda inson son-sanoqsiz marotaba tug‘iladi va vafot etadi degan xulosaga kelgan. Keyingi hayotda odamning kim




Siddhartha Gautama (Budda). *Zamonaviy rasm*

bo‘lib tug‘ilishi ham uning sa’y-harakatlari va amallariga bog‘liq bo‘ladi.


Budda va uning izdoshlari bo‘lgan **buddaviylar** inson yolg‘on so‘zlamasligi, mol-davlat to‘plamasligi, tirik mavjudotlar qonini to‘kmasligi kerak deb hisoblaydi. Shu sababli inson har qanday xohish-istaklaridan voz kechishi zarur, negaki har qanday xohish-istak azob-uqubatga olib keladi.

Avvaliga buddaviylar e’tiqodida ma’bud bo‘lmagan, chunki ular ma’budlar inson azob-uqubatlarini yengillashtira olmaydi deb hisoblagan. Ammo ko‘p o‘tmay Buddaning o‘ziga sig‘inish boshlanadi. Bugun ham **buddaviylik** ibodatxonalarida uning haykallarini ko‘rish mumkin. Budda nilufar gulida teran o‘ylarga cho‘mgancha qilt etmay, qovoqlarini tushirgancha chordana qurib o‘tirgan holatda tasvirlanadi.



Xarappa yozuvi va hayvonlar tasvirlangan muhrlar





Bodh Gayadagi Mahabodhi ibodatxonasi yaqinidagi Budda haykali. Hindiston

SAVOL VA TOPSHIRIQLAR

1. Qadimgi Hindistonda qaysi fanlar rivojlangan?
2. Hind astronomlari qanday kuzatuvlarni amalga oshirgan?
3. Hindlarning matematika va tibbiyot sohalaridagi yutuqlari haqida so‘zlab bering.
4. Bugungi kunda butun jahonda mashhur bo‘lgan qaysi o‘yinni hindlar ixtiro qilishgan?
5. Hindlar qaysi dinni “xudolarsiz din” deyishgan?

17-§. Qadimgi Xitoy sivilizatsiyalari




Shahar soqchilari burjining maketi

XITOYDA SIVILIZATSIYA KURTAKLARI

Misr, Mesopotamiya va Hindistondagi kabi Xitoyda ham ilk sivilizatsiyalar **Xuanxe** va **Yanszi** nomli katta daryolar bo‘ylarida vujudga kelgan. **Miloddan avvalgi 3-mingyillikning** oxirlarida qadimgi Xitoy hududida ilk davlat Xuanxe daryosi havzasining o‘rta qismida paydo bo‘ladi.

Shan qabilasining boshlig‘i bu davlatni o‘ziga bo‘ysundirgan. Shu tariqa davlat nomi ham uning bosh shahri nomi kabi **Shan** deb atalgan. Beto‘xtov olib borilgan bosqinchilik urushlari davlatni zaiflashtirgan.

Bundan qo‘shni chjou qabilasi foydalangan va bostirib kirib, Shan yerlarini o‘zinikiga qo‘shib oladi va **Chjou** deb nomlangan katta davlatni bunyod etadi. Davlat yerlari ulkanligi bois hukmdorlar uni “Osmon ostidagi podsholik”, o‘zlarini esa “Osmon o‘g‘illari” deb atagan. Butun Shimoliy Xitoy ana shu davlat tarkibiga kirgan.




XITOY AHOLISI MASHG‘ULOTLARI

Dehqonchilik Xitoyda azaldan e’tiborli va faxrli kasb hisoblangan. Asosiy dehqonchilik ekinlari javdar va bug‘doy bo‘lgan. Keyinchalik xitoyliklar sholi yetishtira boshladi. Sholi urug‘i Hindistondan keltirilgan.

Xitoy aholisi choy daraxtini ham yetishtira boshladi, uning barglaridan shifobaxsh ichimlik bo‘lmish *choy* tayyorlanadi. Choy tez orada butun jahonga tarqaldi.

Tut daraxtini yetishtirish Xitoy aholisining asosiy mashg‘ulotlaridan biri bo‘lgan. Tut bargi bilan ipak qurti boqiladi. Ipak qurtlari pillalarga tolalarni o‘raydi, pilladan esa nihoyatda yengil va nafis mato bo‘lmish *shoyi* tayyorlanadi.

Choy terish





Xuanxe daryosi, savdo kemalari va ko‘prik.
Zamonaviy rasm



Podsholiklar o‘rtasida o‘zaro kurashlar davom etgan davr. *Zamonaviy rasm*

Qadimgi Xitoy

- Mil. avv. 3-mingyillik oxirlari
- Xuanxe daryosi bo‘yida davlatning tashkil topishi
- Mil. avv. 2-mingyillik – Shan va Chjou davlatlari
- Mil. avv. VII–V asrlar – "ko‘p podsholiklar"
- Sin Shixuandi birlashtirgan

XITOY "KO‘P PODSHOLIKLAR" DAVRIDA

Mil. avv. VIII–VII asrlarda Chjou davlatida markaziy hokimiyat zaiflasha boshladi. Ayrim viloyatlar noiblari podsho hokimiyatidan ozod bo‘lishga intilar edi. Xitoyga ko‘chmanchi qabilalar hujum qila boshlaganidan foydalangan chekka viloyatlar aholisi ajralib chiqib, o‘z davlatini tashkil eta boshladi. Shu tariqa **mil. avv. VII–V asrlardagi** davr tarixda "ko‘p podsholiklar" davri nomini olgan.

Xitoyda ayni paytda "kurashayotgan podsholiklar" davri ham boshlanadi. Chjou davlatida hukmronlikni qo‘lga kiritish uchun mayda podsholiklar o‘rtasida urushlar 200 yildan uzoqroq davom etdi. Bu davr Sin davlati hukmdori o‘zining barcha raqiblarini yo‘q qilib, **mil. avv. III asrda** yagona davlat tuzishi bilan yakunlandi.

SAVOL VA TOPSHIRIQLAR

1. Qaysi daryolar vodiysida Xitoyning ilk sivilizatsiyalari vujudga kela boshladi?
2. Xitoyda birinchi davlat qachon tashkil topdi? U qanday atalgan?
3. Xitoyning qaysi qadimgi davlati "Osmon ostidagi podsholik" degan nom olgan edi? Nima uchun?
4. Qadimgi Xitoy aholisining asosiy mashg‘ulotlarini sanab bering.

18-§. Miloddan avvalgi III asrda Xitoy

MARKAZLASHGAN DAVLATNING TASHKIL TOPISHI

Mil. avv. 246-yilda Xitoyni o‘z hokimiyati ostida birlashtirgan hukmdor **Sin Shixuandi** nomini olgan. Bu nom “Sinning birinchi hukmdori” degan ma’noni bildiradi.

O‘z davlati hududini alohida viloyatlarga taqsimlagan hukmdor har biriga noiblarini rahbar etib tayinladi.

Sin Shixuandi tirikligidayoq o‘ziga atab maqbara qurishga farmon bergandi. Hashamati va bezaklari jihatidan bu maqbara Misr piramidalari bilan bellasha oladi. Maqbarani 720 ming odam 37 yil mobaynida bunyod etgan. Maqbara bir necha kvadrat kilometr



Sin Shixuandi.
Zamonaviy rasm



Sin Shixuandi sopol askarlari

hukmdorni “qo‘riqlash” uchun o‘rnatilgan 6 mingta sopol askarlar haykallari topilgan.

Buyuk Xitoy devori

Mil. avv. IV asrda


Ko‘chmanchilardan himoya qilish uchun

BUYUK XITOY DEVORI

Sin Shixuandi o‘z davlatini ko‘chmanchi hunlarning hujumlaridan himoya qilish uchun Shimoliy Xitoy bo‘ylab qurilgan mudofaa devorini yanada mustahkamlashni buyurgan.

Devorni qurish ishlari dastlab **mil. avv. IV asrda** boshlangan. Bu devor tarixda **Buyuk Xitoy devori** deb atalgan. Uning balandligi 6–10 metr, qalinligi 5–8 metr, uzunligi esa qariyb 4000 kilometrni tashkil etadi. U qadim zamonlarda dushman qo‘shinlari uchun jiddiy to‘siq bo‘lib xizmat qilgan: otliq qo‘shinlar undan oshib o‘ta olmas, qal’alarni hujum bilan zabt etishni esa ko‘chmanchilar hali uddalay olmasdi.

Podsho va amaldorlar devor qurilishida yuz minglab dehqonlarni majburan ishlatgan.



Buyuk Xitoy devorining qurilishi



Qurilish ishlari

QADIMGI XITOY MADANIYATI

Qadimgi Xitoyda o‘ziga xos yuksak madaniyat yaratilgan. Mahalliy aholining kundalik hayoti ziroatchilik, hunarmandchilik, binokorlik va boshqa sohalar bilan bog‘liq bo‘lib, ilmiy bilimlarning rivojlanishini taqozo etgan.

Shu tariqa matematika, astronomiya va geografiya fanlari rivoj topgan. Shuningdek, qadimgi xitoyliklar me’morchilik va haykaltaroshlik sohalarida katta yutuqlarga erishgan. Qadimgi Xitoyda so‘z va jumlalarni ifodalagan iyerogliflar mavjud bo‘lgan. Dastlab xitoyliklar bambuk taxtachalarga yozishgan.

Sin Shixuandi

- Mil. avv. 246-yil
- “Sinning birinchi hukmdori”
- Buyuk Xitoy devori
- Ixtirolar: iyerogliflar, qog‘oz, kompas, seysmograf



Bambuk taxtachalardan iborat kitoblar

O‘ylab ko‘ring


Rasmlarga qarab qadimgi Xitoyda qog‘oz qanday tayyorlanganligini tushuntiring.

Bundan 2,5 ming yil muqaddam yozish uchun shoyidan foydalanishga o‘tildi. Shoyi matolarga mo‘yqalam bilan yozilgan. **Miloddan avvalgi I asrda** qog‘oz ixtiro qilindi.

Xitoyliklarning eng ajoyib ixtirolaridan biri **kompas** bo‘lgan. U magnitlangan temirdan yasalgan uzun dastali katta qoshiqni eslatar edi. Bu moslamani kataklarga ajratilgan va zarhallangan yog‘ochga o‘rnatishgan, uning dastasi esa hamma vaqt janubni ko‘rsatgan.

Xitoyda zilzilani oldindan aniqlab beruvchi **seysmograf** ham ixtiro qilingan.

Xitoy qog‘ozini tayyorlash jarayoni




SAVOL VA TOPSHIRIQLAR

1. Xitoyni yagona davlatga birlashtirgan hukmdor nomini ayting. Bu voqea qachon bo‘lgan?
2. Buyuk Xitoy devori haqida nimalarni bilasiz? Nima uchun bu devor ko‘chmanchilarning bosqiniga to‘siq bo‘lib turgan?
3. Xitoyliklarning ixtirolarini sanab bering. Qaysilaridan hozir ham foydalanamiz?

19–20-§. O‘zbekiston hududidagi qadimiy davlatlar

QADIMGI AHOLINING ETNIK TARKIBI VA HUDUDIY JOYLASHUVI


Yozma manbalarning guvohlik berishicha, **mil. avv. VII–VI asrlarda** O‘zbekiston hamda qo‘shni hududlarda **sug‘diylar, baqtriyaliklar, xorazmliklar** kabi elatlar, shuningdek, **sak va massaget** qabilalari yashagan. Zarafshon va Qashqadaryo vohasida dehqonchilik bilan shug‘ullanuvchi ko‘plab aholi istiqomat qilgan. Yunon yozma manbalarida bu hudud **Sug‘diyona** deb nom-



Ko‘chmanchilar manzilgohi



O‘rta Osiyoda qadimgi xalqlar va qabilalarning joylashishi



Chorvador saklar



Xanjar. Mil. avv. 1-mingyillik

langan. Mazkur hududda yashaydigan aholi **sug‘diylar** deb atalgan.

Sug‘diylarning eng yaqin qo‘shnilari **baqtriyaliklar** bo‘lib, ular Surxon vohasi, shimoliy Afg‘oniston va janubiy Tojikiston hududlarida joylashgan. Yunon-rim muarrixlari u yerlarni **Baqtriana** yoki **Baqtriya** deb atagan.

Amudaryoning quyi oqimida yashagan o‘troq dehqon elatlari **xorazmliklar** bo‘lgan. Ularning yurti yunon manbalarida **Xorasmiya** deyilgan. Cho‘llar va Amudaryo bo‘ylarida ko‘chmanchi **massaget** qabilalari yashagan. O‘rta



Daryo vohasi

Osiyoning tog‘lik, dasht va cho‘l yerlarida asosiy mashg‘uloti chorvachilik bo‘lgan **saklar** istiqomat qilgan.

MIL. AVV. VII–VI ASRLARDA XO‘JALIKNING RIVOJI

Bu paytlarda Sug‘d, Baqtriya va Xorazm aholisining mashg‘uloti sun’iy sug‘orishga asoslangan dehqonchilik bo‘lgan. Hunarmandchilik va savdo-sotiq ham ancha rivoj topgan. Manzilgohlardan yuqori sifatli kulolchilik idishlari, temir va bronza buyumlar topilgan.

Tog‘lardan mis, qalay, kumush va oltin ma’danlari hamda zargarlik buyumlari yasash uchun **lojuvard (la’l)** va **feruza** kabi qimmatbaho toshlar qazib olingan. Lojuvard Baqtriya tog‘larida bo‘lgan.



Oltin qoplon tasviri. Saklar san’ati namunasi



O‘rta Osiyo elatlari. VII–VI asrlar. *Tiklangan*



Sak jangchisi. *Tiklangan*

O‘ylab ko‘ring

Tasavvur qiling, Siz ushbu yozuvlarni topgan tarixchi sifatida Baqtriya haqida nima bilib oldingiz? Ossuriya podshosining ayg‘oqchisi unga nimalar haqida so‘zlab beradi?



La’l


BAQTRIYA LA’LI TO‘G‘RISIDA OSSURIYA MANBALARIDAGI MA’LUMOT

“Podshoh so‘ragan la’l borasida: “Menga la’l keltiring”, degan ekanlar. Men, janobi oliylari, tog‘ga chiqib, la’lni qo‘lga kiritganimda mamlakat ahli menga qarshi qo‘zg‘alganini bilmaydilar. Podshoh izn bersalar, janobi oliylari, katta qo‘shin borib, la’lni keltirishsa; faqat men ular bilan non-u qatiqni baham ko‘rmayman; ular yonida yurmayman, sening choparing yonida bo‘lmayman, podshoh salomatligi xususida ham so‘ramayman. Shohim buni gunohga yo‘ymasalar bas…”.

Ko‘chmanchi sak va massaget qabilalarining asosiy mashg‘uloti chorvachilik bo‘lib, ular tuya, ot, qo‘y va echkilar podalarini boqqan. Chorvadorlar hayvon terisidan charm, junli matolardan poyabzal, kiyimlar va chodirlar tikishgan.

Ko‘chmanchilar ushbu mahsulotlarni o‘troq dehqonlarga sotgan, dehqonlar esa Sharq xalqlari bilan yaqin savdo va madaniy aloqalarni o‘rnatgan. O‘rta Osiyoning o‘troq va ko‘chmanchi xalqlari o‘rtasidagi ayirboshlash muvaffaqiyatli kechgan.

Ko‘chmanchilarning kundalik hayoti




MIL. AVV. VII–VI ASRLARDA QADIMGI SHAHAR MADANIYATI

Hunarmandchilik va savdoning rivojlanishi natijasida mil. avv. VII–VI asrlarda qadimgi shaharlar rivojlangan. Ular hunarmandchilik ishlab chiqarish va savdo markazlari bo‘lgan. Qadimshunoslar **Afrosiyob** (Samarqand), **Ko‘ktepa** (Zarafshon vohasi), **Yerqo‘rg‘on** va **Uzunqir** (Qashqadaryo vohasi), **Ko‘zaliqir** (Xorazm), **Qiziltepa** (Surxondaryo vohasi) kabi qadimiy shaharlarni o‘rgangan. Shaharlarning bir guruhi savdo va hunarmandchilik markazlari bo‘lsa, boshqalari alohida tuman va viloyatlar markazlari hisoblangan. Bunday qadimiy shaharlar qanday ko‘rinishga ega bo‘lgan?

O‘sha olis davrlarda sayyoh uzoqdan yirik qadimiy shaharni ko‘rishi mumkin edi. Ulkan ichki qal’a shahardagi boshqa xom g‘ishtdan qurilgan xonadon, xo‘jalik binolari va hunarmandchilik ustaxonalaridan ancha balandda viqorli bo‘y cho‘zib turardi. Qo‘rg‘onda turli xonalardan iborat katta saroy joylashardi. Daraxtlar kam, ko‘chalari tor, lekin mudofaa devorlari kishini lol qoldiradi. Shaharda yashovchilar mudofaa tizimiga alohida e’tibor berardi. Shahar darvozasiga kirish yo‘lini suv bilan to‘ldirilgan chuqur – **xandaq** to‘sib turardi.





Qiziltepadagi qazishma ishlari



Qadimgi Baqtriya uy-qo‘rg‘oni.
Mil. avv. VII-IV asrlar.
Surxondaryo viloyati.
Tiklangan



O‘rta Osiyo aholisi vakillari. *Tiklangan*

Devorning burjlari va o‘q otish uchun shinaklari bo‘lgan. Ulardan bronza paykonli kamon o‘qi uchib kelishini har soniyada kutish mumkin edi.


Xushmanzara soy bo‘ylarida dehqonlarning uy-qo‘rg‘onlari bo‘y cho‘zib turar, ular bog‘lar, ekinzorlar bilan o‘ralgan bo‘lardi. Chang-to‘zonli yo‘llar qo‘shni vohalar sari eltardi.

Odamlar bu paytlarda qanday yashagan?

Turarjoy devorlari xom g‘ishtdan terilib, somonli loy bilan suvalgan, uyning sahniga bo‘yralar va po‘staklar to‘shalgan. Supalar devor yonida qilingan bo‘lib, isitish o‘choq xona o‘rtasidan o‘rnatilgan. Alohida oshxona bir nechta o‘choqlar bilan ajralib turgan. Maxsus omborxonalarda katta xumlar terilgan bo‘lib, ularda dehqonchilik mahsulotlari saqlangan.

QADIMGI DAVLATLAR

Mil. avv. VII asrda tashkil topgan Baqtriya davlati O‘rta Osiyo hududidagi qadimgi davlatlardan biri sanaladi. Marg‘iyona va Sug‘d Baqtriyaning siyosiy va madaniy ta’sirida bo‘lgan, shu sababli u turli qadimgi qardosh xalqlarning davlat birlashmasi hisoblanadi.



O‘rta Osiyo va Qadimgi Sharq

Baqtriyaning Ossuriya bilan aloqalari haqida qadimgi yunon tarixchisi **Ktesiy** (mil. avv. V–IV asrlar) yozib qoldirgan. U uzoq muddat qadimgi fors shohi **Artakserks** saroyida yashab, saroy tabibi bo‘lgan. Ktesiy Ossuriya podshosi **Nin**ning Baqtriyaga yurishi haqida hikoya qiladi. Mamlakat aholisining ko‘pligi, yirik shaharlari va mustahkam poytaxti **Baqtra** hamda Baqtriya podshosi **Oksiart** haqida quyidagicha ma’lumot beradi:



Qiziltepadan topilgan sopol idish

“Baqtriya botirlarining jasoratini, ularning yurti ko‘plab mustahkam qo‘rg‘onlarga ega ekanini yaxshi bilgan Nin o‘ziga qarashli elatlardan ko‘p sonli jangchilar to‘pladi.


Yirik kuchlar bilan Baqtriyaga qo‘shin tortib, u yerlarga o‘tish mushkulligi, daralar nihoyatda torligi tufayli Nin qo‘shinlarini bir necha qismga bo‘lgan. Baqtriya yirik shaharlarga ega bo‘lishidan tashqari, poytaxti nihoyatda ulkan edi. U Baqtra deb atalib, boshqa shaharlaridan qal’asining va devorlarining mustahkamligi bilan ajralib turardi. Podsho Oksiart qurol ko‘tarishga qodir barchani jangga safarbar qildi.



Baqtriyalik tuyakash

U o‘z qo‘shinlari tepasida turib, dushmanga ro‘baro‘ bo‘ldi va Nin qo‘shinlaridan birining daradan o‘tishiga imkon yaratdi. Tekislikka yetarli miqdordagi dushman qo‘shini o‘tib bo‘lgach, Oksiart o‘z qo‘shinlaridan jangovar saf tizdi.

Dahshatli jang boshlanganda baqtriyaliklar ossuriyaliklarni chekinishga majbur qildi. Ularni ta’qib etib, tog‘ etagigacha quvib bordi va yuz ming nafar dushman qo‘shinini qirib tashladi”.



Qadimgi xalqlar va qabilalar

- Sug‘diylar
- Baqtriyaliklar
- Xorazmliklar
- Massagetlar
- Saklar

Qadimiy davlat tizimi Xorazm hududida ham tashkil topgan. Xorazm vohasining yirik markazlaridan biri mustahkam mudofaa devorlari bilan o‘rab olingan Ko‘zaliqir qal’asi o‘rnida joylashgan.

Mil. avv. VI asrda xorazmliklar ushbu qal’ada katta saroy qurishgan. U turli xonalar va yog‘och ustunli zallardan iborat bo‘lgan. Saroy yaqinida arpa va bug‘doyni saqlash uchun mo‘ljallangan yirik g‘alla omborxonasi bunyod etilgan. Voha aholisi dehqonchilik va chorvachilik bilan shug‘ullangan. Qadimgi Xorazmda hunarmandchilik, binokorlik va savdo-sotiq yuksak darajada rivojlangan.

Mahalliy kulolchilik, qurolsozlik, zargarlik buyumlarining dovrug‘i o‘zga yurtlarga ham tarqalgan edi. Shaharlarda savdo-sotiq rivojlangan. Xorazmliklar mohir quruvchi va hunarmand bo‘lganlar.

SAVOL VA TOPSHIRIQLAR

1. Mil. avv. VII–VI asrlarda O‘zbekiston hududida qaysi qabila va elatlar yashagan?
2. O‘rta Osiyodagi ko‘chmanchi qabilalarning nomini ayting.
3. O‘rta Osiyoning qadimgi davlatlari qaysilar? Ular qaysi hududlarda joylashgan?
4. O‘zbekiston hududida paydo bo‘lgan ilk shaharlar qanday ko‘rinishga ega edi? Arxeologik tadqiqotlar ishtirokchisi nomidan so‘zlab bering.

21-§. Zardushtiylik va “Avesto”

ZARDUSHTIYLIKNING VUJUDGA KELISHI TARIXI

Mil. avv. 1-mingyillikda O‘rta Osiyoda **zardushtiylik** deb atalgan din keng tarqaladi. Bu din hali odamlar tabiatni ilohiylashtirgan kezlarda kurtak yoza boshlagan edi. Zardushtiylar olov (quyosh), yer, suv va yulduzlarga sig‘ingan va ularni ilohiy deb hisoblagan.

“Zardushtiylik” so‘zi **Zaratushtra (Zardusht)** nomi bilan bog‘liq. U mil. avv. 1-mingyillikning birinchi choragida yashab o‘tgan tarixiy shaxsdir.


Keyinroq Yunonistonda uning ismini **“Zoroastr”** deb atashgan (yunoncha *astron* – “yulduz”), negaki Yunonistonda uni donishmand, munajjim deb hisoblashgan. Bu nomdan ta’limotning o‘zi ham **zoroastrizm,** ya’ni zardush-tiylik deb atala boshlagan.

Zardushtiylikning paydo bo‘lishi haqida shunday afsona bor:

Bir kuni Zardusht suv olish uchun erta tongda daryo bo‘yiga kelgan ekan. Zilol suvda u Ahuramazda vakillaridan birining siymosini ko‘rib qoladi, siymo nur bilan qaysi tomonga borishga yo‘l ko‘rsatadi.

Zardusht sehrli nur izidan ergashadi, ko‘p o‘tmay oliy iloh – Ahuramazda huzuriga yetib keladi. Ahuramazda o‘zining ezgu amallari haqidagi bilimlarni tarqatish uchun uni tanlaganini aytadi va ilohiy vakolat olganini ma’lum qiladi.

Shu tarzda Zardusht 30 yoshida yangi diniy ta’limotning targ‘ibotchisiga aylangan.



Zardusht.
Zamonaviy rasm





Zardushtiylik ramzi



Zardushtiylik kohinlari haykalchalari

ZARDUSHTIYLIKNING TARQALISHI

Zardushtiylik tarqala boshlagan paytlarda ibodatxonalar, odamlar duo matnlarini o‘rganishi uchun maxsus kitoblar bo‘lmagan. Diniy marosimlar ochiq osmon ostida, gulxan yonida yoki uydagi o‘choq olovi atrofida o‘tkazilgan.

Oldin turli qabilalarni istilochilarga qarshi kurashga birlashtirish uchun Zardusht ularni birlikka da’vat qilgan.

Zardushtning so‘nggi va’zlari kohinlar tomonidan yod olib, dindorlarga o‘qib berilgan.

Zardushtning vafotidan keyin bir necha asrlar o‘tgach, barcha diniy marosimlar, madhiyalar va duolar zardushtiylar uchun muqaddas bo‘lgan bir kitobga jamlandi. Bu kitobning nomi **“Avesto”** bo‘lib, “qat’iy belgilangan qonun-qoidalar” degan ma’noni anglatadi.

Ahuramazda



O‘ylab ko‘ring

Zardushtiylar dinining o‘ziga xos xususiyati nimada deb o‘ylaysiz?



Urganchdagi “Avesto” kitobi yodgorligi

ZARDUSHTIYLIK XUDOLARI, TA'LIMOTI VA MAROSIMLARI

Zardushtiylar o‘zlarining ehtiromli ma’budlariga e’tiqod qilishgan. **Ahuramazda** zardushtiylarning ulug‘ va donishmand oliy xudosi hisoblangan. **Mitra** – Quyosh va yorug‘lik ma’budidir. O‘tli chaqmoqlar yordamida u yovuzlik va o‘lim ma’budi bo‘lmish **Ahriman** bilan jang qiladi. Zardushtiylar yomg‘irdan keyin hosil bo‘ladigan kamalakka Mitraning o‘q uzayotgan yoyi deb sig‘inishgan. **Anaxita** zardushtiylikda hosildorlik va suv ma’budasi hisoblangan. Zardushtiylik dini ta’limoti insoniyatning ezgulik va yovuzlik haqidagi qarashlari takomiliga katta ta’sir ko‘rsatdi.


Zardushtiylar hayotining tub ma’nosi ezgu amal, ezgu so‘z va ezgu fikrdan iborat bo‘lgan. Insonning asosiy burchi, eng avvalo, adolatli turmush tarzi hisoblangan.


Zardushtiylik e’tiqodiga ko‘ra, yolg‘on so‘zlamaslik, aldamaslik, va’daga vafo qilish, faqat ezgu ishlarni amalga oshirish kerak edi.

Zardushtiylar ta’limotida o‘lim yovuzlik ifodasi hisoblangan. Shu bois vafot etgan odamlarni dafn qilishning alohida marosimi yuzaga kelgan. O‘lgan odamni yerga dafn qilish, yondirish, suvga oqizish ham mumkin emas edi. Shu sababli yirtqich qushlar va hayvonlar yeb ketishi uchun jasadni toshli va qumli tepaliklarda qoldirishgan. Yomg‘irlarda yuvilgan va oftobda poklangan suyaklarni maxsus sopol tobutchalar – **ossuariylar** (suyakdonlar)da dafn etishgan.



Zardushtiylik kohini. Amudaryo xazinasidan oltin plastina





"Avesto" qo'lyozma sahifasi

"AVESTO" QONUN-QOIDALARI

Zardushtiylar bosqinchilik, talon-taroj va turarjoylarni vayron qilish kabi harakatlarni og'ir jinoyat deb hisoblagan. Qurolni qo'lga olib insonga do'q qilish, birovni kaltaklab, unga jarohat yetkazish qattiq jazoga loyiq ko'rilgan. O'g'rilik va qarzdorlikni "Avesto" gunoh deb hisoblaydi. Olgan qarzni qaytarib bermaslik o'g'rilikka tenglashtirilgan.

Mehnat yuksak ehtirom bilan qadrlangan. "Avesto"da inson mehnat qilishi, biror hunar, binokorlik, dehqonchilik va chorvachilik bilan shug'ullanishi kerakligi aytiladi. Inson suv, o'simliklar va zaminning pokligini ta'minlashi, tabiatni asrab-avaylashi lozim.

"Avesto" oila va bolalar huquqlarini qat'iy muhofaza qiladi. Voyaga yetmagan bolalarni ota-onalaridan olib ketish, vasiysiz qoldirish qoralangan. Yosh bolalarga bilim berib, bironta hunarga o'rgatish qadrlangan, negaki **"o'qish – ko'zning nuri"** deb uqtirilgan.

"Avesto"



Zardushtiylar kuylagan qasidalarning biri **"Quyosh madhi"**da shunday deyilgan:

Biz Quyoshni madh etamiz,
Bezavol Nurni.
Uchqur uning tulporlari,
Qachon Quyosh nur taratadir,
Qachon ilitadir Quyosh,
Qoyim turar yuz ming abad
Ma'budlar.
Taqsimlaydi baxtni shunda
Ahuramazda bu yerga.

"Avesto" kishilarni tinchlikka, adolat va ezgulikka chorlagan.




SAVOL VA TOPSHIRIQLAR

1. Zardushtiylikning ilk targ'ibotchisi kim?
2. O'rta Osiyo hududida zardushtiylik tarqalgan davrni ayting.
3. Zardushtiylarning eng hurmatli ma'budlarini sanab bering.
4. Zardushtiylarning qaysi marosimlarini bilasiz?

III BO‘LIM
QADIMGI YUNONISTON


22-§. Antik tarixning boshlanishi




Qadimgi yunonlarning tasavvuridagi Olimp tog‘i

HUDUD VA MASHG‘ULOTLAR Bolqon yarimoroli va O‘rta Yer dengizi orollarini o‘z ichiga olgan qadimgi yunon davlatlarining umumiy nomi **Qadimgi Yunoniston** deb atalgan. Shimol tarafidan tashqari, Qadimgi Yunonistonni O‘rta Yer va Egey dengizlari o‘rab turgan.

Yunoniston hududining katta qismini tog‘lar egallagan. Ularning eng baland cho‘qqisi – Olimp tog‘i mamlakatning shimoli-sharqida joylashgan. Tog‘ daryolari bo‘ylarida serunum dalalar joylashgan. Tog‘lar o‘t-o‘lanlar va butalar bilan qoplangan. Yunonistonning shimolidagi **Peloponnes** yarimorolida ninabargli o‘rmonlar o‘sgan.



Qadimgi Yunoniston



Oltin niqob. Miken

Yunonlar qadim zamonlardan dehqonchilik va chorvachilik bilan shug‘ullangan.

SIVILIZATSIYANING VUJUDGA KELISHI

Mil. avv. 2-mingyillikda ilk shahar-davlatlar vujudga kela boshlagan Krit orolidagi sivilizatsiya afsonaviy podsho Minos nomi bilan **Minoy sivilizatsiyasi** deb atalgan. Krit davlatining shahar, manzilgohlari zilzila, kuchli dengiz to‘lqinlari va vulqon otilishi oqibatida vayron bo‘lgan. Ko‘p o‘tmay qayta tiklangan.

Qit’adagi Yunoniston hududidan jangovar qabilalar bostirib kiradi, ularni **axeylar** deyishgan. Aynan axeylar Minoy sivilizatsiyasi barbod bo‘lishini nihoyasiga yetkazgan. **Doriy** qabilalarining Janubiy Yunonistonga bostirib kirishi Miken davlatining tugatilishi va **Sparta** davlatining vujudga kelishiga olib keladi.




Oltin qadah. Miken

Miken sivilizatsiyasi (Janubiy Yunoniston) ← Doriylar vayron qilishgan

Minoy sivilizatsiyasi (Krit oroli) ← Axeylar xarob qilishgan



Mikendagi “Arslonlar darvozasi”. Dyu Monsel Teodor chizgan rasm



Yunonlarning dengiz sayohatidan qaytishi. *Zamonaviy rasm*

YUNONLARNING DENGIZ SAYOHATLARI

Egey dengizidagi ko‘p sonli katta-kichik orollar, qulay dengiz qirg‘oqlari va qo‘ltiqlar yunonlar orasida dengizchilik rivoj topishiga imkon yaratib beradi. Biroq yunonlarda katta kemalar bo‘lmagan, kichik eshkakli qayiqlarda esa sohildan yiroqqa suzib borish ancha xatarli bo‘lgan.

Bundan tashqari, yunonlarda hali kompas bo‘lmagan, adashib qolishdan xavfsirab, ular ko‘z ilg‘aydigan qisqa masofalarga – oroldan orolga yoki sohil yaqinida suzgan. Tajribali dengizchilar esa yelkanlardan foydalanib olis yurtlarga – Misrga hamda O‘rta Yer va Qora dengiz sohillaridagi shaharlarga suzib borgan.

SAVOL VA TOPSHIRIQLAR

1. Xaritadan Qadimgi Yunoniston va Krit oroli hududlarini ko‘rsating.
2. Mamlakat geografik o‘rnining o‘ziga xosligi nimada?
3. Geografik sharoitlar qadimgi yunon mashg‘ulotlariga qanday ta‘sir ko‘rsatgan?
4. Qadimgi Yunonistonda ilk sivilizatsiya qayerda vujudga keldi va nima uchun u zavolga yuz tutdi?
5. Tasavvur qiling, Siz yunonlar bilan birga dengiz sayohatiga chiqdingiz. Bu haqida hikoya tuzing.

23–24-§. Qadimgi Yunonistonning yuksalishi




Qadimgi yunonlarning turarjoyi


YUNON SHAHARLARI

Yunonistonda dehqonchilik va hunarmandchilik rivoj topishi natijasida shaharlar soni ham ortib boradi. Yunon shaharlarining ko‘pchiligi bir qancha manzilgohlar birlashishi yo‘li bilan tashkil topadi. Bunday shaharlar yunoncha **“polis”,** ya’ni “shahar” deb atalgan. Ular shahar-davlatlarni tashkil etgan. Polislar hunarmandchilik va savdo-sotiq markazlari bo‘lgan. Bozor shaharning katta maydonida joylashgan. U yerda qishloq xo‘jaligi va hunarmandchilik mahsulotlari bilan savdo qilingan.

Barcha shahar-davlatlar o‘z qo‘shinlariga ega bo‘lgan. Qo‘shinlarning asosini og‘ir qurollangan askarlar – **goplitlar** tashkil etgan. Ular to‘rtburchak shaklni yuzaga keltiruvchi bir-biriga zich joylashgan qatorda jang qilgan. Bunday jangovar safga tizilish **falanga** deb atalgan.



Otliq va piyoda jangchilar, polis va shaharliklar



Afina. Markazda Akropol. *Zamonaviy rasm*


AFINA DAVLATI

O‘rta Yunonistonning janubi-sharqiy qismida **Attika** yarimoroli joylashgan. Mil. avv. 2-mingyillikda Attikaning g‘arbiy qismida yunonlar **Akropol**, ya’ni “yuqori shahar” deb atalgan qal’a quradi. Bora-bora Akropol tevaragiga odamlar o‘rnasha boshladi. Shu tariqa **Afina** shahri vujudga keladi. Shaharda yashagan odamlarning asosiy qismini hunarmandlar va savdogarlar tashkil etgan.

Afina aholisi uchta katta guruhga bo‘lingan: **fuqarolar, chet elliklar – meteklar** va **qullar.** Ota-onasi ozod afinalik bo‘lgan erkaklargina Afina fuqarosi bo‘la olgan.

Faqat fuqarolar barcha huquqlardan foydalangan. Ular og‘ir mehnat va salomatlikka zarar yetkazuvchi ishlardan ozod qilingan.


Afina mustahkamlanishi bilan dengiz savdosi ham rivoj topadi. Afinaning asosiy portiga aylangan **Pirey** bandargohidan mamlakatga qullar va xilma-xil tovarlar keltirilgan.



Kemasozlik ustaxonasidagi ish jarayoni. *Zamonaviy rasm*



AFINADA TA'LIM



Abak – hisob taxtachasi



Mum surkalgan taxtacha va stil


Afinada davlat maktablari bo'lmagan. Ota-onalar o'z bolalarini **pedagog**ga (yunoncha-da "bolani yo'lda kuzatib boruvchi" ma'nosini anglatadi) haq to'lab o'qitgan. Qonun bo'yicha faqat o'g'il bolalar uchun ta'lim olish majburiy bo'lgan.

Yetti yoshdan boshlab bolalarga yozuv va hisob o'rgatilgan. Mum surkalgan taxtachalarga harflarni bronza tayoqcha – **stil** bilan yozishgan. Aksariyat fuqarolar uchun ta'lim shundangina iborat bo'lgan. Puldor ota-onalarning farzandlari esa **palestra** – xususiy gimnastika maktablarida tahsilni davom ettirgan. Palestrada adabiyot o'qitilar, she'r yozish va musiqa san'ati ham o'rgatilar edi.

O'g'il bolalar 14 yoshdan gimnastika bilan shug'ullanardi. Ayni paytda ularga kurash, nayza va disk uloqtirish, uzunlikka va balandlikka sakrash, yugurish ham o'rgatilardi. O'spirinlar, shuningdek, qo'l jangi, harbiy ishlar va otga minib yurishni o'rgangan.

Afinada oliy ma'lumot beradigan o'quv yurtlari ham bo'lgan. Ammo ularda faqat o'ta boy ota-onalarning farzandlarigina o'qish imkoniyatiga ega bo'lgan. Bunday ta'lim muassasalarida astronomiya, geometriya, geografiya va tarix o'qitilardi.

Ta'lim olish muddati 3–4 yil davom etgan. Ana shundan keyin davlat ishlarida ma'lum bir lavozimni egallash imkoniyati vujudga kelgan.



Qadimgi Yunonistondagi maktab



Sparta jangchilari hordiq chiqarmoqda

SPARTA

Mil. avv. XII asrda Janubiy Yunoniston (Lakonika) hududiga doriylar qabilasi bostirib kirdi. Ular mahalliy qabilalarni bo‘ysundirib, **Sparta** davlatiga asos soldilar.

Spartaliklar qulga aylantirgan mahalliy aholi – **ilotlar** ham aslida yunonlar bo‘lib, ular bilan bir tilda so‘zlashgan. Ilotlar spartaliklardan qattiq nafratlanar edi. Bunday sharoitda hukmronlikni faqat kuch bilan saqlab qolish mumkin bo‘lgan. Shuning uchun ham spartaliklar o‘z davlatida alohida shart-sharoitlar yaratdi. Jumladan, hamma qat’iy intizomga amal qilar, intizomni buzganlar shafqatsiz jazolanardi.

Sparta urushga tayyorgarlik ko‘rayotgan shaharga o‘xshab qolgandi. Chet elliklar Spartaga kiritilmagan. Savdo-sotiq sust rivojlangan, san’at asarlari, chiroyli ibodatxonalar ham bo‘lmagan. Hamma uylar bir-biriga o‘xshatib qurilgan.



Qadimgi Sparta maktabi



Ilotlar hosil yig‘imida



Spartalik jangchi

Ilotlar kichik turarjoylarda yashagan. Ular alohida spartaliklarning emas, balki butun boshli davlatning mulki hisoblanardi. Ilotlar alohida spartaliklar oilasi yeriga ishlov berib, chorvani boqishgan va boshqa ko‘plab majburiyatlarni bajarishgan. Spartaliklar esa faqat harbiy ish bilan shug‘ullangan.

Ilotlardan tashqari, Spartada to‘la-to‘kis huquqlarga ega bo‘lmagan fuqarolar – **periyeklar** ham yashagan. Qadimgi Spartada kuchli va chidamli odamlar qadrlangan. Bolalar ancha qattiq sharoitda voyaga yetgan. Sparta maktablarida bolalarni harbiy ishlarga o‘rgatishar, ularni kuchli va chidamli etib tarbiyalashardi. Spartalik o‘smirlar ota-onalaridan alohida yashagan. Yigirma yoshga to‘lgan hamma yigitlar jangchi sifatida qo‘shinga qabul qilinib, keksa yoshga qadar xizmat qilgan.

SAVOL VA TOPSHIRIQLAR

1. Polis nima?
2. Attika aholisi qaysi guruhlarga ajratilgan?
3. Afina maktabida bolalarga nimalar o‘rgatilgan?
4. Sparta davlati qanday tashkil topgan? Uning aholisi qanday nomlangan?
5. “Olis zamonlarda men palestra – gimnastika maktabida ta’lim olganimda...”. Hikoyani davom ettiring.

25-§. Yunon koloniyalari

YANGI HUDUDLARNI O‘ZLASHTIRISH

Qadimgi Yunonistonda zodagonlardan qarzdor bo‘lib qolgan, o‘z yer va mulkiga ega bo‘lmagan ko‘plab odamlar o‘z vatanini tark etishga, begona yurtlarda omadini sinab ko‘rishga majbur bo‘lgan. Olis yo‘l xavfli edi.


Jo‘nab ketish oldidan yunonlar ma’budlarga qurbonliklar bag‘ishlagan. O‘zlari bilan birga loy surtilgan, qamishdan to‘qilgan savatchalarda olov ham olishgan. Olov ayni mahalda ular umrbod tark etgan vatanning bir parchasi edi.



YUNON KOLONIYALARINING TASHKIL TOPISHI

Yunonistondan ko‘chib kelganlar Sitsiliya oroli sohili va Apennin yarimoroli janubiga o‘rnashdi. Ularning manzilgohlari O‘rta Yer va Qora dengiz bo‘ylarida ham vujudga keldi.

Yunonlarning koloniyalari sekin-asta shahar-davlatlarga aylana bordi. Bu shaharlarning o‘z hokimlari, qo‘shinlari, qonunlari va tangalari bo‘lgan. Ularda savdo-sotiq va hunarmandchilik rivojlandi.





Koloniyadan kelgan kemalar

O‘ylab ko‘ring

Yunonistondan ko‘chib kelgan kishi nomidan hikoya tuzing. Nima uchun Siz Yunonistonni tark etishga majbur bo‘ldingiz? Yangi yurtlarda nimalarni ko‘rdingiz?

Koloniyalarning aholisi Yunoniston shaharlari – polislari bilan doimiy aloqada bo‘lgan.

Yunonlar o‘zini yagona xalq – **ellinlar** deb hisoblagan, o‘z vatanini esa **Ellada** deb atagan. Yunonlar o‘zlashtirilgan yerlar tevaragida yashovchi yunon bo‘lmagan xalqlarni **“varvarlar”** deb atagan. Mil. avv. VIII–VI asrlarda **Olviya, Xersones, Pantikapey** kabi ko‘pdan ko‘p yunon koloniyalari tashkil topdi. Bu davr tarixda **Buyuk Yunon koloniyalashtirishi** nomini olgan.

SAVOL VA TOPSHIRIQLAR

1. Yunon koloniyalari qachon tashkil topgan?
2. Qora dengiz sohillarida qaysi shaharlar vujudga keldi?
3. Yunonlar o‘zlarini va o‘z vatanini qanday atashgan?


26-§. Afinada demokratiya

DEMOKRATIYANING SHAKLLANISHI

Afina shahrida savdo-sotiq, sud va harbiy sohalarga oid muhim masalalar xalq yig‘inida muhokama qilingan. Xalq yig‘ilgan joy – shahar maydoni esa **agora** deb yuritilgan. U Akropol tevaragida joylashgan.

Afina shahrida barcha erkak fuqarolar davlatni qanday boshqarish kerakligi xususida o‘z fikr-mulohazalarini bayon eta olar edi. Ular yuzaga kelgan muammolar va yangi qonunlarni muhokama qilish uchun har oyda to‘rt marta agorada yig‘ilardi.

Barcha qarorlar ovoz berish yo‘li bilan qabul qilingan. Boshqaruvning bu shakli **demokratiya** deb ataladi, bu atama “xalq hokimiyati” degan ma’noni anglatadi (*demos* – “xalq” va *kratos* – “hokimiyat”).




Notiqning Afina fuqarolari oldida nutq so‘zlashi

DRAKONT QONUNLARI

Afinani idora qilishda Oqsoqollar kengashi muhim ahamiyatga ega bo‘lgan. Shu kengash hokimlar va sudyalarni saylagan. Ular kengash

Afinadagi xalq yig‘ini





Drakont


a’zolari singari faqat Afina aslzodalaridan bo‘lgan. Afinada aholining bir qismini **zodagonlar (aristokratlar)** tashkil etgan, boshqa bir qismi – **oddiy xalq** ularning foydasiga ishlashga majbur edi. Shu bois Afina davlati aholisi o‘rtasida kelishmovchilik va nizolar vujudga kelgan.

Adolat qaror topishini xohlagan har ikkala tomon **Drakont** ismli hukmdorga murojaat etadi. Ular Drakontdan huquq va majburiyatlar borasida hammani tenglashtiruvchi qonunlar yozishni iltimos qiladi. **Mil. avv. 621-yilda** Drakont xalq boshqaruvini bekor qilgan qonunlarni yozadi va amalga kiritadi. Bu qonunlar shu qadar qattiq va ayovsiz ediki, afinaliklar ularga “siyoh qolib, qon bilan yozilgan” deya ta’rif berishgan. Qonunlarni buzganlik uchun Drakont bitta jazoni – o‘lim jazosini belgilagan.

Dastlab afinaliklar bu qonunlarga itoat etishgan, so‘ngra norozi bo‘la boshlashgan va qonunchi Drakontni shahardan haydab yuborishgan.

SOLON ISLOHOTLARI

Afina davlatida xalq aslzodalar hukmronligidan norozi edi. Xalqning ahvoli tobora yomonlashaverdi, shunda odamlar o‘z haq-huquqlari uchun kurashga bel bog‘ladi. Ular zodagonlarning uy-qo‘rg‘onlariga hujum qila boshladi. Xalq



Qadimgi Yunonistondagi sud jarayoni

zodagonlarga qarshi qo‘zg‘olon ko‘taradi. O‘z yeri va jonidan xavotirlangan zodagonlar yon berishga va xalq talablarining bir qismini bajarishga majbur bo‘ladi.

O‘ta bilimdon va tajribali **Solon** degan zodagon xalqqa yon berishning qattiq tarafdori bo‘lgan.


Zodagonlar Solonga ishondi va uni Afina hukmdori etib sayladi. Mil. avv. 594-yilda Solon davlatni idora qilishning oldingi tizimini o‘zgartirdi. Avvalgi boshqaruv tizimi – **aristokratiya** (aslzodalar hokimiyati)ni **demokratiya** (xalq hokimiyati)ga almashtirdi.

Solonning taklifi bilan dehqonlar qarzdorlarni qul qilishi bekor bo‘ldi. **Xalq majlisi** faoliyati tiklanib, davlat boshqaruvidagi oliy tashkilotga aylandi.


Davlatni boshqarishda faqat erkak fuqarolar ishtirok eta olardi. Ayollar va chet elliklar qabul qilinayotgan qonunlar muhokamasida va ovoz berishda ishtirok eta olmasdi.

AFINADA DEMOKRATIYA RAVNAQI

Barcha erkak fuqarolar 20 yoshdan boshlab Xalq majlisida ishtirok etardi. Xalq majlisining katta qismi hunarmandlar, savdogarlar, yollanib ishlovchilar, dehqonlardan iborat bo‘lgan. Xalq majlisida omma uchun foydali qarorlar qabul qilingan.



Bilimdon va tajribali Solon. *Zamonaviy rasm*




15 marotaba strateg lavozimiga saylangan

Perikl – Afina strategi

Demokratiya ravnaqi

Parfenon bunyod etilgan



Perikl – mil. avv. 443-yildan Afina davlati hukmdori

Qonun chiqaruvchi tadbirlar amalga oshirilishi natijasida demokratiya rivojlangan

Kam ta'minlangan oilalar teatr-spektakllarni borib ko'rishi uchun pul jamg'armasini tashkil etgan

Xalq majlisi yangi qonunlarni tasdiqlar, eski qonunlarni bekor qilar, boshqa qarorlar, masalan, yangi inshootlar qurilishiga, armiyaga va boshqalarga mablag' ajratish to'g'risida qaror qabul qilar edi. Har yili saylanadigan **Beshyuzlar kengashi** kundalik joriy masalalarga yechim topardi. Beshyuzlar kengashiga strateg rahbarlik qilgan. Kengash qarorlari Xalq majlisida tasdiqlangan. Xalq sudi ham Afinada muhim davlat organi bo'lgan. 30 yoshga to'lgan fuqarolar uning faoliyatida ishtirok etar edi. Sudda ayblanuvchi shaxs o'zini-o'zi himoya qila bilishi yoki chiroyli so'zlay oladigan va qonunlarni biladigan odamni yollashi kerak bo'lgan.

"PERIKL ASRI"

Mil. avv. 443–429-yillarda 15 marotaba strateg lavozimiga saylangan **Perikl** hukmronligi davrida Afina eng qudratli davlatga aylandi va mamlakatda demokratiya ravnaq topdi. Bu davr shuning uchun ham **"Perikl asri"** deb atalgan. Ajoyib yunon yozuvchilari, olimlari va rassomlari Periklning do'stlari bo'lgan. Perikl tarixchi Gerodot, haykaltarosh **Fidiy** bilan do'st tutingan edi. Perikl Xalq majlisidagi lavozimlarga ish haqi to'lashni joriy qildi. Perikl hukmronligi davrida Afinada katta qurilish ishlari amalga oshirildi. U Akropolda qurilgan mashhur inshoot **Parfenon** – ma'buda Afina ibodatxonasining tashabbuskori bo'lgan.




SAVOL VA TOPSHIRIQLAR

1. Shahardagi xalq yig'ini maydoni qanday atalgan?
2. Demokratiya nima? Afinada demokratiya qaysi shaklda namoyon bo'ldi?
3. Afina davlatida boshqaruv qanday yo'l bilan amalga oshirilgan?
4. Solon islohotlari o'tkazilgandan keyin aholi turmushida qanday o'zgarishlar bo'ldi?
5. Xalq yig'inida va Beshyuzlar kengashida qanday qarorlar qabul qilinishi mumkin edi?
6. "Perikl asri"da Afinada qanday o'zgarishlar ro'y berdi?

27–28-§. Yunon-fors urushlari. Makedoniyaning Yunonistonni bosib olishi

YUNON-FORS URUSHLARI

Mill. avv. V asr boshlarida Yunonistonga forslar tahdid sola boshladi. Fors shohi Doro I dastlab Kichik Osiyodagi yunon shahar-davlatlarini bosib olib, Yunonistonga yurish qiladi. Birinchi jang **mil. avv. 490-yili** Attika yarimorolining **Marafon** tekisligida bo‘lib o‘tadi va unda yunon qo‘shinlari g‘alaba qozonadi. G‘alaba haqidagi xabarni Afinaga yetkazish uchun eng yaxshi jangchilardan biri shaharga qarab yuguradi. Naq 42 kilometr yo‘lni chopib o‘tgan jangchi: “G‘alaba! G‘alaba!” deb shu zahoti yuragi yorilib jon bergan. Keyinchalik sport musobaqalarida olis masofaga yugurish **Marafon yugurishi** deb atala boshladi. **Mil. avv. 480-yilda** Yunonistonga qarshi Doro I ning o‘g‘li Kserks yurish boshladi. Tog‘lardagi **Fermopil darasi** Yunoniston shimolidan janubiga olib boradigan birdan bir yo‘l edi. Yunonlar qo‘shiniga Sparta podshosi **Leonid** boshchilik qiladi. Ular Fermopil darasini matonat bilan himoya qildi va barchalari qahramonlarcha halok bo‘ldi. Ushbu voqea **“Uch yuz spartalik jasorati”** nomi bilan tarixda qolgan. Yunonlar va forslar o‘rtasidagi hal qiluvchi dengiz jangi **mil. avv. 480-yilda** tor **Salamin bo‘g‘ozida** bo‘lib o‘tdi. Yunon shahar-davlatlarining birlashgan floti forslarning harbiy flotidan kuchli bo‘lgan, bu jangda ham forslar yengilgan. Ushbu mag‘lubiyatdan so‘ng Kserks flot qoldiqlari bilan Yunonistonni tark etishga majbur bo‘ladi.



O‘ylab ko‘ring


Nima uchun yunonlar forslarni yenggan? Uch yuz spartalik jasoratini qanday baholash kerak?



Marafon jangi



"Elladani bosib olish sari olg'a!"
Filipp II



"Ellada fuqarolari, makedoniyaliklarga qarshi kurashish uchun birlashaylik!"
Demosfen

Mil. avv. 479-yilda forslar yana bir bor Afinani bosib olishga urinib ko'rdi. Biroq **Plateya** shahri yaqinida fors qo'shinlari tor-mor etildi.

Yunon-fors urushlari yunonlarning to'liq g'alabasi bilan **mil. avv. 449-yildagi** sulh natijasida yakunlandi.

MAKEDONIYANING YUNONISTONNI BOSIB OLISHI

Yunoniston shaharlari bir-birlari bilan doimiy urushgan. Shu paytda Makedoniya podshosi **Filipp II** Yunonistonni bosib olishni ko'zlaydi. Uning qo'shinlari suvoriylar va piyodalardan tashkil topgandi. Piyoda qo'shinlar 16 qatordan iborat falangada saflanardi. Falanganing oltinchi qatoridagi nayza birinchi qatordagi jangchini muhofaza etardi. Jang paytida butun falanga zirhlangan temir maxluqotga o'xshab qolar edi. Falanga qanotlarini otliqlar himoya qilardi.

Mashhur notiq Demosfen Ellada shaharlarini kezib, ularning aholisini birlashish va makedonlarga qarshi kurashishga da'vat etadi. Fiva shahri aholisi esa

Jangovar shaylik

Filipp II qo‘shinlariga qarshi Afina shaharlari ittifoqiga qo‘shiladi.


XERONIYA OSTONASIDAGI JANG

Mil. avv. 338-yilda yunonlar va makedonlarning asosiy kuchlari Xeroniya shahri yaqinidagi Beotiyada to‘qnashadi. Shiddatli jang uzoq davom etadi. Harbiy hiyla qo‘llagan makedonlar ustunlikni qo‘lga oladi. Ular chekina boshlaydi. G‘alaba qilayotganiga ishona boshlagan yunonlar ularni quvishga tushadi.

Yunonlarning qo‘shinlari shunda ikki qismga ajraladi. Ana shu qismlardan biriga Filipp II ning o‘g‘li **Aleksandr** qo‘mondonlik qilayotgan suvoriy qo‘shinlar qaqshatqich zarba beradi. Yunon qo‘shinlari chekina boshlaydi va tor-mor etiladi. Jangda yunonlarning aksariyati halok bo‘lgan. Xeroniya ostonasidagi jangdan so‘ng mag‘lubiyat oqibatida Yunoniston Makedoniyaga qaram bo‘lib qoldi.

YUNONISTON MAKEDONIYA TARKIBIDA

Xeroniya ostonasidagi bu mag‘lubiyatdan keyin Yunoniston



Yunonlar falangasininig harbiy tizilishi



aholisi o‘z qismatini qo‘rquv og‘ushida kutib turgan. Biroq Filipp II o‘zini yunonlar podshosi deb e’lon qilmaydi. Filipp II yunonlar bilan birlashib, forslarga qarshi ittifoq tuzadi.

Spartadan tashqari barcha yunon shahar-davlatlarining vakillari **Korinf**ga yig‘iladi va Makedoniya hokimiyati ostida forslarga qarshi yurish maqsadida yunon shahar-davlatlari ittifoqini tuzadi. Ular murosada tinch-totuv yashash, o‘zaro urushlar olib bormaslik va bir-birining ichki ishlariga aralashmaslik to‘g‘risida bir qarorga keladi.

Biroq Fillipp II forslarga qarshi yurishini amalga oshira olmasdan, xoinlarcha o‘ldirildi. Uning o‘g‘li Makedoniyalik Aleksandr hukmdor bo‘ldi.




Makedoniyalik Aleksandr.
Zamonaviy rasm

SAVOL VA TOPSHIRIQLAR

1. Forslarning Yunonistonga bostirib kirish sabablarini aytib bering.
2. Marafon jangi qatnashchisi (forslar yoki yunonlar armiyasi jangchisi) nomidan hikoya tuzing.
3. Qaysi voqea tarixda “Uch yuz spartalik jasorati” nomi bilan qolgan?
4. Demosfenning Ellada aholisi oldidagi xizmatlari qanday?
5. Makedoniya qo‘shinlari yunonlarnikidan nimasi bilan farqlangan?
6. Yunonistonning bosib olinishi qachon va qaysi jangda ro‘y berdi?
7. Filipp II Yunonistonni bosib olganidan keyin yunon shaharlarining boshqaruvida qanday o‘zgarishlar bo‘ldi?
8. Sizningcha, nima uchun yunonlar ozodlikni saqlab qola olmagan?

29-§. Yunon fuqarolari tarbiyasi




Qadimgi Yunonistonda ta'lim

FUQARO TARBIYASI Yunon maktablari faol fuqarolar, davlat himoyachilarini tarbiyalashi kerak edi. Sportni rivojlantirish va Olimpiya o'yinlariga ommaviy qiziqish ham shunga xizmat qilgan. Bolalikdanoq o'g'il bolalarga she'riyat va musiqaga muhabbat hissi singdirilardi.

Umumiy ta'limdan tashqari, yigitlar ikki yil harbiy ta'lim ham olgan. Birinchi yili ular uylarida yashar va safda yurish, qurol taqib yurish, ochlik va sovuqqa chidamli bo'lishni o'rganardi. Ikkinchi yili esa ayrimlari Attika chegara qal'alarida harbiy xizmatni o'tar, boshqalari Pirey portida dengizchilik san'ati asoslarini o'rganar edi.

Mamlakatni mudofaa qilish zarurati yuzaga kelgan taqdirda 30 yoshga to'lmagan erkaklarning barchasi qurol-yarog'lari va harbiy kiyim-kechaklari bilan ko'rikka yetib kelishi shart bo'lgan. Vatanga muhabbat har bir fuqaroning fidoyiligi va jasoratida aks etgan.



Yunonlarning savdo maydoni va kundalik hayoti. *Tiklangan*









Olimpiya o‘yinlaridagi musobaqa turlari

OLIMPIYA O‘YINLARI

Sport barcha yunonlar uchun sevimli mashg‘ulot bo‘lgan. **Mil. avv. 776-yilda** Olimpiya shahrida birinchi o‘yinlar o‘tkazilgan. Ana shu sanadan boshlab har to‘rt yilda bir marta Olimpiada olovi quyosh nurlarida yondirilgan, Yunonistonning to‘rt tarafidan kelgan sportchilar besh kurashda bellashgan.

Beshkurash turli sport musobaqalaridan iborat bo‘lgan. Otchoparda esa aravalarda va otlarda poyga uyushtirilar edi. Odamlar va sportchilar Olimpiyaga eson-omon yetib kelishi uchun o‘yinlar o‘tkazilayotgan paytda urushlar to‘xtatilgan.

Yunonistondagi Olimpiya o‘yinlari Olimp xudosi **Zevs** sharafiga bag‘ishlab o‘tkazilgan. Afsonalarga ko‘ra, Olimpiya o‘yinlari asoschisi **Gerakl** hisoblangan. Olimpiya o‘yinlarida faqat jinoyat sodir etmagan, sha’niga dog‘ tushirmagan ozod yunon ishtirok etishi mumkin bo‘lgan.

Musobaqalarda uch karra g‘alaba qozongan sportchi Olimpiya shahrida o‘z haykalini o‘rnattirishga haqli bo‘lgan. Yunonlar yil hisobini ham Olimpiya o‘yinlariga qarab yuritgan. G‘oliblar muqaddas zaytun daraxti novdalaridan to‘qilgan gulchambar bilan taqdirlangan.

Xristian dini tarqalishi natijasida xudo Zevs sharafiga bag‘ishlangan Olimpiya o‘yinlari man qilinadi. **Milodiy 394-yilda** qadimgi Olimpiya o‘yinlarini o‘tkazish butunlay to‘xtab qoldi.


Nihoyat **1896-yilda** Olimpiya o‘yinlari qayta tiklandi. Olimpiya o‘yinlari ochiladigan kunda mash’ala yoqish odati hozirgacha saqlanib qolgan. Quyosh nurlaridan yondirilgan mash’ala Olimpiya musobaqalari o‘tkaziladigan joyga keltiriladi.

SAVOL VA TOPSHIRIQLAR

1. Qadimgi Yunoniston o‘qituvchilari oldiga qanday maqsad qo‘yilgan? Yunon maktablari hozirgi maktablardan nimasi bilan farqlanadi?
2. Olimpiya ishtirokchisi nomidan hikoya tuzing. O‘yinlarda nimalarni ko‘rganingizni va qaysi musobaqalarda ishtirok etganingizni so‘zlab bering.

30-§. Qadimgi Yunoniston madaniyati

GOMERNING “ILIADA” VA “ODISSEYA” DOSTONLARI



Qadimgi yunon shoiri Gomer. *Zamonaviy rasm*

Taxminan mil. avv. 1200-yilda yunonlar Egey dengizi qirg‘og‘idagi Kichik Osiyoda joylashgan Troyaga mo‘l-ko‘l o‘lja ilinjida urush boshlagan.

Biroq yunon rivoyatlari boshqa bir sababni ham bayon qiladi. *Eng chiroyli ayol Sparta podshosining rafiqasi Sohibjamol Yelena edi. Troya podshosining o‘g‘li Paris Sparta podshosinikiga keladi va Sohibjamol Yelenani Troyaga o‘g‘irlab ketadi. Voqeadan xabar topgan Sparta podshosi Parisdan qasos olishga ahd qiladi va barcha spartaliklarni Troya bilan urushga chaqiradi. Yunonlar to‘qqiz yil Troyani behuda qamal qiladi.*

Qadimgi yunon shoiri **Gomer** “Iliada” va “Odisseya” dostonlarini yozdi. “Iliada” ana shu urushning oxirgi o‘ninchi yili haqida hikoya qiladi. *Odisseyning maslahati bilan yunonlar ayyorlikni ishga soladi: ichi bo‘m-bo‘sh ulkan yog‘och ot yasashadi.*



Troyaliklarning yunonlar kemasiga hujumi. *Zamonaviy rasm*


Ana shu yog‘och ot ichiga yunon qo‘shinlarining bir qismi yashirinib oladi, qo‘shinning boshqa bir qismi esa yaqindagi orollardan biriga o‘rnashadi. Troyaliklar yunonlar qamal qilishni to‘xtatdi va Troya homiysi Afina Palladaga xush kelishi uchun bizga ot sovg‘a qilibdi degan xulosaga kelib, yog‘och otni shaharga olib kiradi.

Kechasi otning ichidan chiqqan jangchilar darvozalarni ochadi va Troya bosib olinadi.

Hozirgi tillarda *“Troya oti”* iborasi xosiyatsiz sovg‘a-salom ma’nosini anglatadi.

“Iliada” dostonining bosh qahramoni *Axilles*dir. O‘g‘lining mangu barhayot bo‘lishini istagan ona chaqalog‘ini Stiks daryosiga botirib oladi. Ayni paytda Axillesning onasi ushlagan tovoniga suv tegmay qoladi. Janglardan birida Axilles tovoniga tekkan o‘qdan halok bo‘lgan. O‘sha kezlardan beri “Axilles tovoni” iborasi nozik joyni anglatadi.

Troya urushi nihoyasiga yetdi. Yunonlar Troyani taladi va mo‘l-ko‘l o‘ljalar bilan uyga qaytmoqchi bo‘ldi. Ular Egey dengizi orqali uzoq va xatarli yo‘llardan o‘tishi kerak edi.



Axilles tovoniga tekkan o‘q

Troya oti.
Troyaliklar uni shaharga olib kirmoqda


YUNONISTONDA TEATR

Bundan ikki yarim ming yil muqaddam Yunonistonda teatr dunyoga keldi. “Teatr” so‘zini yunonchadan tarjima qilganda “tomoshalar uchun joy”, “tomoshaxona” degan ma’nolarni anglatadi. Tomoshalar faqat bayramlarda uyushtirilgan. Erta tongdan boshlangan tomoshalar kun bo‘yi davom etardi. Tomoshabinlarga bir nechta pyesa namoyish etilardi.


Teatrga kirish uchun arzimagan tomosha haqi yig‘ilgan. Qashshoq fuqarolarga teatrga borishi uchun pul berilar edi.

Sahnada barcha rollarni faqat erkaklar ijro etgan. Namoyish ishtirokchilari quvnoq, qayg‘uli va yovuz qiyofadagi turli niqoblardan foydalangan. Teatrlarda o‘zaro kurash namoyish etilgan, odatda qatnashuvchi kishilar halok bo‘lishi bilan tugaydigan pyesalar **tragediya** deyilgan. Yunon dramaturgi **Sofokl** “Shoh Edip” va “Antigona” singari eng mashhur tragediyalarni yozgan.

Ajoyib qochiriqlar, quvnoq sahnalar, nozik yumorga boy **komediyalar** esa inson nuqsonlari ustidan kuladi. Komediyalarning eng mashhur muallifi **Aristofan** edi.



Tragediyalar muallifi Sofokl




Komediyalar muallifi Aristofan



Qadimgi Yunonistonning teatr niqoblari

ARXITEKTURA VA HAYKALTAROSHLIK



Qadimgi yunon haykaltaroshi Fidiy. *Zamonaviy rasm*

Yunonlar nafaqat podsholar va zodagonlar uchun saroylar va maqbaralar, balki hamma odamlar foydalanadigan jamoat binolarini ham barpo etgan.

Haykallar va boshqa haykaltaroshlik asarlari shahar maydonlari, ibodatxonalar, hammaga ochiq tomosha-bog‘lar va stadionlarni ham bezab turgan.

Ibodatxonalar va boshqa jamoat binolari toshdan barpo etilgan. Xususiy uylar esa g‘ishtdan va paxsadan qurilgan. Ibodatxonalarga ustunlar – **kolonnalar** alohida ko‘rk bergan.

Yunoniston haykaltaroshlari mashhur olimlar, hamda Olimpiya o‘yinlari g‘oliblari yoki jangda zafar quchgan qahramonlar sharafiga haykallar yasagan.

Rivoyatlarga ko‘ra, **Dedal** Minos degan podsho uchun Labirint saroyini barpo etgan. Saroyga kirib, undan chiqish yo‘lini topib olishning iloji bo‘lmagan.

Yunon haykaltaroshi **Fidiy** Akropoldagi ibodatxona – Parfenon qurilishiga boshchilik qilgan. Parfenon binosi va uning ustunlari marmar toshlardan qurilgan. Qadimda ibodatxonaga kirish yo‘li – peshtoqning yuqori qismi yunon ma’budlarining haykallari bilan bezatilgan.



Minos podshosining Labirint saroyi. *Zamonaviy rasm*


SAVOL VA TOPSHIRIQLAR

1. Qaysi dostonda Gomer Troya oti haqidagi afsonani tasvirlaydi? Sizningcha, shunday voqea chindan ham ro‘y berishi mumkinmidi?
2. Qadimgi Yunoniston teatri haqida so‘zlab bering.
3. Yunon haykaltaroshlari va ularning asarlaridan qaysilarini bilasiz?


31-§. Qadimgi Yunoniston olimlari va mutafakkirlari

FAN Qadimgi Yunonistonda olimlarni donishmandlar, hayot murabbiylari sifatida bilishgan.

Yunon mutafakkirlari olam tuzilishi va inson hayoti ma’nosini tushuntirishga harakat qilgan.



Mashhur yunon faylasufi **Geraklit** yer yuzidagi hamma narsa olovdan kelib chiqqan deb uqtirgan. “Bir daryoga ikki marta tushish mumkin emas”, “Hamma narsa oqadi, hamma narsa o‘zgaruvchandir” degan mashhur hikmatlar unga tegishlidir.



Frakiyalik **Demokrit** faylasuf Geraklitninig fikriga e’tiroz bildirib, u bizni qurshab turgan hamma narsa ko‘zga ko‘rinmaydigan mayda-mayda zarralar – *atomlardan* tashkil topgan degan ma’nodagi fikrni bayon etgan.



Olimlar – qadimgi Yunonistonning donishmandlari. *Zamonaviy rasm*




Yunon faylasufi **Diogen** “Insonda hech qanday ehtiyojlar bo‘lmasligi shart” degan fikrni o‘z ta’limotiga asos qilib oldi. Hayotdagi barcha qulayliklardan voz kechgan Diogen bir bochkada kun kechirgan. Afsonalarga ko‘ra, Makedoniyalik Aleksandr undan: “Senga qanday yordam berishim mumkin?” deb so‘raganida, Diogen: “Nariroq tur, quyoshni to‘syapsan!” – deya kinoya qilgan ekan.




Barcha zamonlarda olimlar ilmiy masala yechimini topgan yunon fizigi va matematigi **Arximed**ning “Evrika!” (“Topdim, topdim!”) qiyqirig‘ini takrorlab yuradi.

Arximed yorug‘likni ko‘zgu orqali jamlab, Sirakuza ustiga hujum qilib kelayotgan rimliklarning kemalarini yondirib yuborgani haqida hikoya bor. Arximed richag (dastak) qonunini ishlab chiqdi va mashhur bo‘lib ketgan bir iborani aytdi: “Menga tayanch nuqtasini topib bering, Yerni o‘z o‘qidan chiqarib yuboraman!”



Arximed tomonidan rimliklar kemalarining yondirib yuborilishi

Mil. avv. V asrda yashagan **Gerodot** yunon-fors urushlariga bag‘ishlab “Tarix” deb nomlangan kitob yozgan. Shu kitob orqali birdaniga mashhur bo‘lib ketgan. Qadimda Gerodotga *“tarixning otasi”* degan nom berilgan.



SAVOL VA TOPSHIRIQLAR

1. Qadimgi yunonlar olimlarni qanday hurmat qilgan?
2. Yunon mutafakkirlari qaysi masalalarni tushuntirib berishga harakat qilgan?
3. Yunon olimlarining kashfiyotlari va yutuqlari haqida so‘zlab bering.
4. Arximedning “Evrika!” degan iborasi ma’nosini tushuntirib bering.

32-§. Qadimgi Yunoniston afsonalari

O‘ylab ko‘ring

Matnni o‘qib, afsonalarda haqiqat va uydirmani ajrating.

AFSONALAR: HAQIQAT VA UYDIRMA **Afsonalar** (*yunon tilida “mif”*) yunonlar tarixidagi qadimgi davr haqida ko‘p narsalarni bilishga imkon beradi. Ular olamning yaratilishi, yer yuzida hayot va odamning paydo bo‘lishi, qahramonlar jasorati va dengiz sayohatlari haqida hikoya qiladi.

Yunon afsonalari rang-barang va qiziqarlidir. Afsonalarda aytilishicha, azalda Yer hamma tomondan dengizlar bilan o‘ralgan edi. Dastlab ularning hukmdori **Okean** degan titan bo‘lgan. **Atlant** degan titan ulkan osmon gumbazini yelkasida suyab turgan.

Yunonlarning rivoyatlari **Gerakl, Axilles** singari bahodir qahramonlar jasorati haqida hikoya qiladi. Ularning barchasi matonat, kuch-qudrat va aql-zakovat kabi fazilatlarga ega bo‘lgan. O‘n ikki jasorati tufayli Gerakl Olimp tog‘idagi xudolar saltanatida faxrli o‘ringa ega bo‘lgan ekan.



Qadimgi yunonlar tasavvurlari. Atlant

Afsonalar qahramonlari

- **Titanlar** (gigantlar)
- **Sirenalar** (yarim qush, yarim ayollar)
- **Kentavrlar** (yarim ot, yarim odam)
- **Sikloplar** (peshanasida bitta ko'zi bo'lgan bahaybat mavjudotlar)

QADIMGI YUNONLARNING XUDOLARI

Qadimgi yunonlar ham ularning hayoti va tevarak-olam ko'zga ko'rinmas sirli kuchlarga tobe ekanligiga ishongan. Bu ko'rinmas kuchlarni yunonlar xudolar deb atadi. Xudolar ularning Yer yuzi va marhumlar saltanatidagi hayotida hukmron edi. Qadimgi yunonlarning uch ilohi olamga hukmronlik qilar edi: oliy xudo deb hisoblangan **Zevs** – osmonda, **Poseydon** – dengizda, **Aid** – marhumlar saltanatida. Qolgan ma'budlar esa dehqonchilik va hunarmandchilik, san'at va she'riyat, muhabbat va go'zallik homiylari hisoblangan. Urush va g'alaba, adliya, uyqu va tonggi shafaq ma'budlari, shuningdek, ikkinchi darajali **satirlar va nimfalar** degan ma'budlar ham bo'lgan. Ular o'rmonlar, daryolar va tog'larda yashagan deb tasavvur qilingan.

Yunonlarning tasavvurlariga ko'ra, ma'budlar Shimoliy Yunonistondagi **Olimp tog'ida** yashagan.

Yunonlar Olimp ma'budlarini odamlardek qizg'anchiq va shafqatsiz, kunni bazmi jamshid va o'yin-kulgida o'tkazadi, bir-biri bilan tortishadi, xohish-irodasiga qarshi borganlarni shafqatsiz jazolaydi deb hisoblagan. Shuning uchun ham yunonlar o'zlari yaratgan xudolardan qo'rqqan, ularning sharafiga ko'plab ibodatxonalar barpo etib, qurbonliklar qilgan.



Olimp tog'idagi ma'budlar hayotini qadimgi yunonlar shunday tasavvur qilgan

Geraklning 12 jasorati



O‘ylab ko‘ring

Rasmlarga qarang va Geraklning 12 jasorati haqida gapirib bering.

SAVOL VA TOPSHIRIQLAR

1. Qadimgi Yunoniston tarixini o‘rganishda afsonalar qanday ahamiyatga ega?
2. Yunonlar afsonalarda tabiatning har xil hodisalarini qay tarzda tushuntirgan?
3. Yunonlar hayotida ma’budlar qanday ahamiyatga ega bo‘lgan?

IV BO‘LIM
Mil. avv. VI – mil. III ASRLARDA O‘RTA OSIYO



Malika To‘maris

33–34-§. Ahamoniylarning O‘rta Osiyoga bosqinchilik yurishlari

KIR II VA UNING BOSQINCHILIK YURISHLARI

Kir II O‘rta Osiyo hududini bosib olishga harakat qilgan birinchi fors hukmdorlaridan bo‘lgan. U **Parfiya, Marg‘iyona** va **Baqtriyani** bosib oldi. **Mil. avv. 530-yilda** Kir II ulkan lashkar bilan massagetlar ustiga yurish qildi. Shu davrda massagetlar qabilalarining malikasi **To‘maris** edi.

Bu yurish to‘g‘risida “tarix otasi” Gerodot shunday hikoya qiladi: *“Bu jang... barcha janglardan ham dahshatlirog‘i edi. Oldin har ikki dushman kuchlar bir-biriga qarshi jangovar saf tizishib, kamondan o‘q yog‘dirdi. O‘qlari tugagach, qo‘llariga xanjar va nayzalar olib, dushmanga qarshi tashlandi. Jang uzoq davom etdi. Hech kim chekinishni xayoliga keltirmasdi. Ko‘p qon to‘kildi. Nihoyat, massagetlarning qo‘li baland keldi. Fors qo‘shinlarining ko‘pchiligi qirildi. Jang maydonida Kir II ning o‘zi ham halok bo‘ldi”.*

Kir II massagetlar bilan jangda halok bo‘ldi

- Parfiya, Marg‘iyona va Baqtriyani bosib oldi
- Mil. avv 530-yilda Kir II massagetlar ustiga yurish qildi
- Massagetlar qabilalarining malikasi To‘maris

DORO I NING SAKLARGA QARSHI YURISHI

Doro I hukmronligining birinchi yili Marg‘iyonada fors istilochilariga qarshi yirik xalq qo‘zg‘oloni ko‘tarildi. Qo‘zg‘olonga **Frada** rahbarlik qiladi. Qo‘zg‘olonchilar bilan forslar qo‘shinlari o‘rtasidagi hal qiluvchi jang **mil. avv. 522-yilda** bo‘lib o‘tgan. Fradaning o‘zi asirga olinadi va qatl etiladi. Bu voqea haqidagi ma’lumotlar Behistun qoyatosh yozuvlarida qayd etilgan.



Ahamoniylar qo‘shini

Doro I ning Behistun yozuvlaridagi xabari

“Marg‘iyona degan mamalakat menga bo‘ysunmay qo‘ydi. Marg‘iyonalik Frada ismli bir kishini ular o‘zlariga boshliq tayinladi. Shunda men Baqtriya satrapi Dadarshishga chopar jo‘natib: “Borib meni mensimay qo‘yganlarni tor-mor qilish kerak”,– dedim.


Dadarshish qo‘shinlari bilan marg‘iyonaliklar ustiga yurish qildi. Meni Ahuramazda qo‘lladi. Ahuramazda irodasi bilan isyonkorlar qo‘shini butunlay yengildi”.

Doro I hukmronligining uchinchi yilida saklar ustiga yurish qiladi. Bu yurish haqida ham Behistun bitiklarida ma’lumot qoldirilgan.

Ayni paytda bu yurish haqida tarixchi **Poliyen** (mil. avv. II asr) keltirgan boshqa bir rivoyat ham mavjud. Saklar rivoyatida hikoya qilinishicha, forslarning qoshiga sak qabilasidan bo‘lgan cho‘pon – **Shiroq** keladi, u fors qo‘shinlarini o‘zidan boshqa hech kim bilmaydigan so‘qmoq orqali saklarning orqa tomoniga boshlab borishini aytadi. Suvsiz cho‘l-biyobon bo‘ylab yetti kun yo‘l bosishgach, tashnalikdan azob chekayotgan forslar o‘zlarining aldanganliklarini sezib qoladi va jasur cho‘ponni o‘ldiradilar. Doro I ning saklar ustiga yurishi muvaffaqiyatsiz tugaydi.

O‘ylab ko‘ring


Ona yurt ozodligi uchun bosqinchilarga qarshi kurashgan To‘maris va Shiroq kabi jasur qahramonlarni nima birlashtirgan?



Tinch aholiga hujum.
Zamonaviy rasm



Doro I ning Suza saroyidagi kamonchilar tasviri



Poliyen Shiroq jasorati haqida

"Qo'shinlar Shiroq bilan yetti kunlik yo'lga tushdi, suvsiz sahroga kirib bordi. Mingboshi Ranosbat qulovizdan (yo'lboshlovchi) so'radi: "Buyuk shohimizni aldab, ko'p sonli qo'shinni bu suvsiz sahroga boshlab kelishga seni nima majbur qildi? Bu yerlarda qush uchsa – qanoti, odam yursa – oyog'i kuyadi. Na bir chashma, na bir jonzot uchraydi. Ilgari yurmoq yoki orqaga qaytmoqning imkoni yo'q".

Shiroq qah-qah urib javob berdi: "Men yengdim. Saklarni halokatdan qutqazmoq uchun sizlarni tashnalik va ochlik balosiga giriftor qildim".

Shiroq jasorati

AHAMONIYLAR DAVLAT BOSHQARUVI

Bosib olingan mamlakatlarni itoatda tutib turish uchun ahamoniylar yagona davlatni alohida viloyat – **satrapiyalar**ga bo‘lib tashladi. Bu so‘z forscha “xshatra” – “viloyat” so‘zidan kelib chiqqan. Satrapiyalar hukmdorlari – **satraplar**ga cheklanmagan hokimiyat berilgan edi. Ularning ko‘pchiligi Ahamoniylar sulolasi vakillari bo‘lgan.

O‘rta Osiyoning forslar bosib olgan viloyatlari uch satrapiyaga bo‘lingan. Har bir satrapiyadan fors shohiga yillik o‘lpon-soliq yetkazib berilgan. Bundan tashqari, qaram xalqlar saroy va ibodatxonalar qurilishiga ham safarbar etilgan. Soliq sifatida kumush, chorva mollari (otlar, tuyalar, qo‘ylar), hunarmandchilik buyumlari (sopol idishlar, qurol-yarog‘, zeb-ziynatlar), kiyim-kechak, matolar va hayvonlarning terilari berilar edi.

Doro I va uning vorisi Kserks hukmronligi davrida egallab olingan hududlarda istiqomat qilgan o‘rtaosiyoliklar yunon-fors urushlarida ishtirok etgan. Mashhur Marafon jangida **(mil. avv. 490-yil)** fors qo‘shinlari safining markazida bo‘lgan saklar muvaffaqiyatli urishgan.

Gerodot fors shohi Kserks boshchiligida yunonlar ustiga yurish qilgan o‘rtaosiyolik jangchilar qurol-yarog‘larini tasvirlagan. Baqtriyaliklar kamon va nayzalar bilan, saklar xanjar va jangovar boltalar bilan, xorazmiylar va sug‘diylar baqtriyaliklarniki kabi qurol-aslahalari bilan jangga kirgan. Saklar va baqtriya suvoriylari Kserks qo‘shinidagi eng yaxshi jangchilardan hisoblangan.

O‘ylab ko‘ring

Sizningcha, Shiroq qaysi maqsad bilan forslarni suvsiz sahroga boshlab borgan?



Otliq va piyoda askarlar



Massagetlarning kiyim-kechaklari va qurol-yarog‘lari

Gerodotning massagetlar haqidagi hikoyasi

“Massagetlar skif (sak)lar singari kiyinadi. Turmush tarzlari bir xil. Ular otda va piyoda jang qiladi. Odatda o‘q-yoy, nayza va jangovar boltalar bilan qurollanadi. Ularning barcha buyumlari va asboblari oltin va misdan ishlangan. Nayzalarining va kamon o‘qlarining uchi hamda harbiy boltalari misdan yasalgan. Bosh kiyimlari kamarlari oltin bilan bezatilgan. Otlari himoyalovchi sovut bilan yopilgan, ular ham misdan to‘qilgan.

Massagetlar g‘alla ekmaydi, chorvachilik va baliq ovlash bilan kun kechiradi. Araks (Amudaryo)da baliq ko‘p. Sut ichadilar. Ular ibodat qiladigan yagona tangri – Quyoshdir. Quyosh xudosiga otni qurbonlik uchun keltiradilarki, g‘ayratli tangriga g‘ayratli va tezchopar jonliqni qurbon qilish kerak deb hisoblaydilar”.

Massagetlar

MADANIYATNING RIVOJLANISHI

Yozma va arxeologik manbalar mil. avv. VI–IV asrlarda O‘rta Osiyo xalqlari hunarmandchilik, zargarlik, tikuvchilik, kulolchilik va binokorlik sohalarida yuqori darajaga erishganidan dalolat beradi.

Daryolar vohalarida **Ko‘ktepa** (Zarafshon), **Daratepa** (Qashqadaryo), **Xumbuztepa** va **Ko‘zaliqir** (quyi Amudaryo vohasi) kabi qadimiy hunarmandchilik markazlari rivojlangan.

Yozma manbalarda mis, temir ma’danlari qazib olingani, O‘rta Osiyoning Sharq mamlakatlari bilan bog‘langan qadimiy karvon yo‘llarida olib borilgan savdo-sotiq ishlari to‘g‘risida ma’lumot beriladi. Savdo karvonlari qaroqchilar hujumi va talonchiligidan himoya qilingan. Muhim savdo yo‘llari o‘tgan daryolar kechuvlari va tog‘ dovonlari bo‘ylab harbiy istehkomlar qurilgan.



Ko‘zaliqirdan topilgan sopol qozon



Oltin bilaguzuk. Amudaryo xazinasidan





Zeb-ziynatlar

Suzadagi saroy qurilishi haqida Doro I yozuvi

“Qurilishda ishlatilgan oltin Sard va Baqtriyadan olib kelindi. Olmos, la’l va yoqut Sug‘diyonadan keltirildi. Qo‘llangan to‘q ko‘k yoqut Xorazmdan, kumush va jez Misrdan olib kelindi”.



Amudaryo xazinasidan topilgan haykalchalar

Mil. avv. V–IV asrlarda O‘rta Osiyo hududida dastlabki tanga pullar tarqalgan. Zargarlik san’atining yuksak darajada rivoj topganiga bugungi kunda Britaniya muzeyida saqlanayotgan, 1877-yilda **Amudaryo xazinasi**dan topilgan oltin va kumush buyumlar yorqin misol bo‘la oladi.

Har bir shaharda ichki qal’a bo‘lgan. Shaharning atrofini egallagan dehqon xo‘jaliklarida ota urug‘iga mansub katta oilalar kun kechirgan. Dehqonlar qo‘rg‘onlari uy-joy va xo‘jalik xonalaridan iborat bo‘lgan.

Arxeologlar shahar va qo‘rg‘onlar atrofida dalalarga suv olib kelgan anhorlar va ariqlar izlarini topgan.

Fors shohlarining maqbaralari. Naqshi Rustam qoyasi. Eron

Sirli “Amudaryo xazinasi”

1880-yil may oyi oqshomlarining birida Afg‘onistonning janubida, Kobuldan uch kunlik yo‘lda Peshovarga ketayotgan buxorolik savdogarlar karvoniga qaroqchilar hujum qiladi. Karvonda oltin buyumlar bulgan.

Savdogarlardan birining xizmatkori qaroqchilar bandidan qochib, shu tumanning angliyalik harbiy-siyosiy noibi kapitan F. Berton harbiy postini oyoqqa turg‘izadi. Berton yordamchilarini yoniga olib, qaroqchilar ketidan tushadi. Yarim tunda Berton to‘satdan qaroqchilar qarshisidan chiqadi. Ular o‘ljani bo‘lishayotgandi. Shu oradagi g‘orda to‘satdan paydo bo‘lgan zobitga qaroqchilar qarshilik ko‘rsata olmaydi.


...Hindistonda savdogarlarning qimmatbaho narsalarini angliyaliklar sotib olib, Britaniya muzeyiga topshirishgan.

1905-yilda Britaniya muzeyining xazinachisi O. Dalton Buxoro savdogarlari xazinasi to‘g‘risida “Oks xazinasi” degan kitob yozdi.

Savdogarlar so‘zi bo‘yicha, bu oltin buyumlar 1877-yili **Qubodiyon** *vodiysidan, qadimgi Baqtriya yeridan topilgan. U yuqori badiiy uslubda ishlangan oltin va kumush buyumlar majmuidan iborat edi. Bu yuksak darajada ishlangan tasviriy san’at namunalari hamda tangalar fanda “Amudaryo (Oks) xazinasi” nomi bilan mashhur.*

O‘ylab ko‘ring

Baqtriya ustalari yasagan oltin ot-aravaga qarang. O‘rta Osiyoda qadimgi tasviriy san’at qanday darajada rivojlangan?



Oltindan yasalgan ot-arava

SAVOL VA TOPSHIRIQLAR

1. Kir II massagetlar yurtiga qachon bostirib kirdi?
2. Massagetlar qabilalarini kim boshqarardi? Kir II qo‘shinlari va massagetlar o‘rtasidagi jangni tavsiflab bering.
3. Doro I ga qarshi qo‘zg‘olon qayerda boshlangan va unga kim rahbarlik qilgan?
4. Ahamoniylar O‘rta Osiyodagi bosib olgan hududlarida qanday majburiyatlarni belgilagan?
5. Shiroq jasorati haqida hikoya qiling.

O‘rta Osiyo ahamoniylar davrida

- Alohida (uchta) satrapiyalar, boshlig‘i – satrap
- Daratepa, Ko‘ktepa, Xumbuztepa, Ko‘zaliqir
- Xo‘jalik, hunarmandchilik va savdo aloqalarining rivojlanishi

35–36-§. O‘rta Osiyo aholisining yunon-makedon istilochilariga qarshi kurashi



Akinak

MIL. AVV. IV ASRDA MAKEDONIYANING YUKSALISHI

Mil. avv. 336-yilda Filipp II o‘limidan so‘ng uning 20 yoshga to‘lgan o‘g‘li Aleksandr Makedoniya podshosi bo‘ladi. **Mil. avv. 334-yilda** u Sharqqa yurish boshladi, bu yurish 10 yil davom etdi. Ana shu yurish davomida u Kichik Osiyo, Suriya, Misr, Eron va Hindistonda katta-katta hududlarni bosib oladi. Makedoniyalik Aleksandr ulkan hududda yunon madaniyati tarqalishiga imkon yaratish maqsadida bosib olingan shaharlarga yunonlarni joylashtirdi.

O‘RTA OSIYO XALQLARINING QUROL-YAROG‘I VA HARBIY SAN’ATI

O‘rta Osiyo jangchilari jangga sovut kiyib kirgan, boshlarida dubulg‘a bo‘lgan. Xanjar (**akinak**) va qilichlar, jangovar oybolta (**sagaris**) va nayzalar bilan qurollangan. Olisdan turib jang qilish vositasi sifatida kamondan foydalangan. Dushmanga qarshi hujumni suvoriylar boshlab bergan. Otliqlar hujum qila turib, dushmanga o‘q va nayzalarni yog‘dirgan.

Qal’a va shaharlarni himoya qilishda o‘q-yoy va palaxmondan foydalanilgan. Mudofaa maqsadida tosh va pishirilgan loydan tayyorlangan yadrolar qo‘llangan. Shaharlar burjlar va shinaklari bo‘lgan mustahkam devorlar bilan o‘rab olingan. Devorlar tepasida kamonchilar uchun yo‘laklar qurilgan. Tashqi devorlar bo‘ylab joylashgan dumaloq burjlar ichida ham kamonchilar joylashgan. Suv to‘ldirilgan chuqur va keng xandaq qal’aga boradigan yo‘lni to‘sib turgan.



Jangovar oybolta – sagaris



O‘rta Osiyo askarlari

ALEKSANDRNING ISTILOCHILIK YURISHLARI

Mil. avv. 330-yilda Makedoniyalik Aleksandr qadimgi Fors davlatining ahamoniylar sulolasidan bo‘lgan oxirgi shohi **Doro III** qo‘shinlarini tor-mor keltiradi. U Hindistonga yurish qilishdan oldin qo‘shinlarning orqa tomonini xavfsizlantirish maqsadida **Oks** (Amudaryo) ortida yashovchi elatlarni bo‘ysundirishga qaror qiladi.

Birinchi bo‘lib uning yo‘lini to‘sgan shahar Baqtriya poytaxti **Baqtra (Zariasp)** bo‘ldi. Bu vaqtda ahamoniylar sulolasining vakili **Bess** Baqtriyaning satrapi edi. U Baqtra shahrini dushmanga tashlab, Oks ortiga qochib o‘tgan.

MAROQANDANING BOSIB OLINISHI

Mil. avv. 329-yilda yunon-makedonlar Maroqandani egalladi. Aleksandr qo‘shinlarning bir qismini shu yerda qoldirib, o‘zi **Kurushkat (Kiropolis)** shahrini bosib olish uchun asosiy kuchlar bilan Sirdaryo qirg‘oqlari sari yuradi. Rivoyatga ko‘ra, bu shaharga fors shohi Kir II asos solgan.

Sug‘diyona xalqi bosqinchilarga qarshi kurashga chiqadi. Tez orada sug‘diylarga baqtriyaliklar va saklar qo‘shiladi. Qo‘zg‘olonga iste’dodli lashkarboshi **Spitaman** boshchilik qildi.

Ancha qo‘shin to‘plagan Spitaman Maroqandani qamal qiladi. Aleksandr qurshovda qolganlarga yordam uchun uch mingga yaqin jangchidan iborat qo‘shin jo‘natadi. Manbalarda **Politimet** deb atalgan Zarafshon daryosi bo‘yida makedoniyaliklarga pistirma qo‘ygan Spitaman dushman guruhini tamomila qirib tashlaydi. Shunda Aleksandrning o‘zi qo‘zg‘olonni bostirishga otlanadi. Yunonlarning katta kuchlari yaqinlashib kelayotganidan xabar topgan Spitaman qamalni qoldirib, qo‘shinlarini sahro sari boshlab ketadi.

O‘ylab ko‘ring

Spitaman boshchilik qilgan sug‘diylar qo‘shiniga baqtriyaliklar va saklar nima uchun qo‘shilgan?



Makedoniyalik Aleksandr o‘z qo‘shini bilan

O‘ylab ko‘ring

Spitaman qanday qilib makedoniyaliklarning son jihatidan o‘zidan ustun bo‘lgan qo‘shinini mag‘lubiyatga uchrata oldi?

Saklarga qarshi kurash uchun Aleksandr **Yaksart (Sirdaryo)** bo‘yidagi Xo‘jand yaqinida qal’a barpo etishni buyuradi. Bu qal’a **Aleksandriya Esxata** (Chekka Aleksandriya) deb nomlandi.

Mil. avv. 328-yil kuzida Spitamanning Aleksandr bilan hal qiluvchi jangi bo‘lib o‘tadi. Tengsiz jangda Spitaman yengilib, tag‘in cho‘lga chekinadi. O‘sha yerda ko‘chmanchi qabilalar boshliqlari uni xoinlarcha o‘ldiradilar.

Spitaman qo‘zg‘oloni bostirilsa-da, Sug‘diyonada yunon-makedonlar birinchi marta mag‘lubiyatga uchradi. Aleksandr mahalliy zodagonlar bilan munosabat o‘rnatish yo‘llarini izladi. U sug‘d zodagonlari Xoriyen va Oksiartning Hisor tog‘larida joylashgan tog‘ qal’alarini qo‘lga kiritib, Oksiartning qizi **Ravshanakka (Roksana)** uylanadi. Shunday qilib, Makedoniyalik Aleksandr e’tiborli sug‘d zodagonlaridan biri bilan qarindosh tutinib, Oksiartni Baqtriya viloyatlaridan birining hokimi etib tayinlaydi.

O‘rta Osiyo yerlarini bosib olish uchun Aleksandr deyarli uch yil urinadi, biroq uncha katta bo‘lmagan hududni: Marg‘iyona, Baqtriya, Sug‘diyona, hozirgi Bekobod va Xo‘jand orasidagi Sirdaryo bo‘ylarini bo‘ysundira oladi xolos. Xorazm, Toshkent vohasi va Farg‘ona mustaqilligicha qoldi.



Makedoniyaliklarga talafot yetkazgan sug‘diylarning kamon o‘qlari

Qasos

Aleksandrning jangchilari Zarafshon daryosiga olib boradigan yo‘ldan chang-to‘zon ko‘tarib kelardi.


...To‘satdan o‘qlar vizillab ucha boshladi. Butalar orasidan kamon o‘qlari yog‘ilardi. Dushman bexosdan hujum qildi. Makedoniyaliklar qo‘rquvdan qotib qoldi. Yana pistirma!...Karanning buyruq aralash baqirig‘i kor qilmadi. Vahimaga tushgan makedonlar ixtiyorlarini qo‘ldan berib, qocha boshladi, biroq dushman piyoda jangchilari qamishzor orasidan ularning ro‘parasiga chiqib, oyboltalarini ustalik bilan ishga soldi: g‘animlarni yer tishlata boshladi.

Frakiyalik, agrian, peon, makedoniyalik, fessaliyalik va illiriyaliklardan ikki ming nafar jangchi Zarafshon bo‘yida abadiy qolib ketdi. Intiqom o‘zini kuttirmadi. Halok bo‘lgan jangchilarni Olimp tog‘idagi xudolar ham ellinlar armiyasi safiga qaytarishga ojiz qoldi. Bu ulkan mag‘lubiyat yunon-makedon qo‘shinlarining yengilmasligi haqidagi afsonani chippakka chiqardi.

O‘ylab ko‘ring

Sizningcha, Aleksandrning jangchilari qanday jazolangan? Matndan foydalanib so‘zlab bering.






Spitaman.
Zamonaviy rasm

Spitaman o‘z muvaffaqiyatiga rivoj berib, makedoniyaliklarni Maroqanda qal’asida mudofaa choralarini ko‘rishga majbur etdi. Osiyoliklarning suvoriylari makedonlar ustiga ot qo‘ydi. Krater hujum qilib kelayotgan suvoriylarga qarshi toshotar qurollarini ishga soladi. Otilgan yuzlab toshlar otliqlar safiga shikast yetkazadi. Qo‘rqib qolgan otlar kishnab, pishqirgancha ag‘darilib tusha boshladi. Ajabo, suvoriylar o‘zlarini yo‘qotib qo‘ymadi. Otlaridan sakrab tushib, darhol jangga shaylandi.

Fessaliya otliqlari Baqtriya suvoriylari qanotiga hujum qildi. Baqtriyaliklar chekindi. Dunyoning eng sara otliqlari hisoblangan Fessaliya jangchilari zarbasiga osiyoliklar dosh bera olmadi. Kraterning ko‘ngli joyiga tushdi.

Fessaliya otliqlari dushmanning urush san’atlarini bir dam xayoldan chiqarib, ularni ta’qib qilishda davom etdi. Saklar va baqtriyaliklar hatto otda shamoldek yelib ketayotganda ham kamondan bexato ota olishini ular unutdi. Ellinlar kamondan o‘q uzishda Geraklni tengi yo‘q deb hisoblashardi. Oks ortida o‘sha afsonaviy qahramondan ham mohir kamonchilar yashar ekan.



Makedoniyalik Aleksandrning yurishlari

BOSQIN OQIBATLARI Yunon-makedon qo‘shinlarining bosqinchilik yurishlari O‘rta Osiyo yerlarini xarobazorga aylantirdi, aholining katta qismi qirib tashlandi, ko‘plab shaharlar vayron etildi.

Makedoniyalik Aleksandr O‘rta Osiyoda bir nechta shaharlar qurdirgan. Bu shaharlar uning nomi bilan **Oksdagi Aleksandriya, Aleksandriya Esxata, Marg‘iyona Aleksandriyasi** va hokazo tarzida atalgan.


Ularning ba’zilari vayron etilgan Sug‘diyona va Baqtriya shaharlari o‘rnida, boshqalari esa tayanch qal’alar sifatida yangidan qurilgan. Bu shaharlarda yunon-makedon piyoda va otliq askarlari joylashgan. Bu askarlarning siyraklashgan saflari Makedoniya tartibida qurollantirilgan Baqtriya va Sug‘diyona yoshlari hisobiga to‘ldirilgan.

Mahalliy aslzodalar oilalaridan yoshlar, shu jumladan, Roksananing ukasi Itan makedonyaliklarning sara otliq gvardiyasi – **agema**ga qabul qilindi. Yunon tarixchisi Arrianning yozishicha, “o‘z nayzalari o‘rniga ularning hammasi makedonyaliklar nayzalari bilan qurollandi”. Yosh jangchilarga harbiy ish bilan birga yunoncha o‘qish-yozishni o‘rgatishgan. Keyin esa ular yunon-makedonlar barpo etgan qal’alarda harbiy xizmatni o‘tagan.

Bora-bora hunarmandchilik va savdo qayta tiklandi. Mahalliy va yunon madaniyati, an’analarining qo‘shilishi yuz berdi. Shu asosda **Salavkiylar, Yunon-Baqtriya va Parfiya** singari antik davlatlar taraqqiy etadi.

O‘ylab ko‘ring

Nima uchun Sug‘diyona va Baqtriya yoshlarini harbiy ish bilan birga o‘qish-yozishni bilishga o‘rgatishgan?



SAVOL VA TOPSHIRIQLAR

1. O‘rtaosiyolik jangchining qurollarini tavsiflab bering.
2. Mil. avv. VII–IV asrlarda O‘rta Osiyo shaharlari qanday ko‘rinishda bo‘lgan? Ularni sanab bering va xaritada ko‘rsating.
3. Spitaman qo‘zg‘oloni qachon bo‘lib o‘tdi? Qo‘zg‘olon qanday yakunlandi?
4. Yunon-makedon qo‘shini O‘rta Osiyoga bostirib kirishining salbiy oqibatlarini sanang.
5. Xaritada Makedoniyalik Aleksandrning O‘rta Osiyoga yurish yo‘lini ko‘rsatib bering.

37-§. Salavkiylar davlati va Yunon-Baqtriya podsholigi

O‘RTA OSIYO SALAVKIYLAR DAVLATI TARKIBIDA

Mil. avv. 323-yil 13-iyunda Makedoniyalik Aleksandr vafot etadi. U barpo etgan davlat uch qismga: **Makedoniya**, **Misr** va **Suriyaga** bo‘linib ketadi. Bu davlatlar Aleksandrning eng yaqin lashkarboshilari tomonidan boshqarilgan.

Uzoq davom etgan o‘zaro urushlardan so‘ng **mil. avv. 312-yilda** Makedoniyalik Aleksandrning lashkarboshilaridan biri **Salavk** Bobil (Suriya davlati) hukmdori bo‘ldi. Salavkiylar davlati tarkibiga Mesopotamiya, Eron, Parfiya, Baqtriya, Sug‘diyona va Marg‘iyona kirar edi.

Salavk o‘z davlati tarkibiga kirgan O‘rta Osiyo viloyatlarini satrapiyalarga ajratadi. Davlat mudofaasi va qo‘shinlarni tashkil etish bilan sobiq lashkarboshilardan tayinlangan **strateglar** shug‘ullanar edi.

Salavk o‘g‘li **Antiox**ni Sharqiy viloyatlar – Parfiya, Marg‘iyona, Baqtriya va Sug‘diyonaga noib etib tayinladi. Salavkning vafotidan so‘ng Antiox ulkan davlat boshida turib, uni 20 yilga yaqin boshqardi.

Mil. avv. 323-yil Makedoniyalik Aleksandr davlati parchalanib ketdi

- Makedoniya
- Misr
- Suriya (Salavkiylar davlati)

Salavkiylar davlati



Podsho Antiox Salavk va **Apama** – Spitaman qizining farzandi edi. Malika Apama Salavkiylar davlatida mashhur bo‘lgan. Vayronalari bugungi Suriya hududida joylashgan shahar uning sharafiga **Apameya** deb nomlangan.

Bolalik davrida Antiox Sug‘diyona haqida onasi aytib bergan hikoyalarni tinglagan. Ona tomonidan Sug‘d uning ajdodlari zamini bo‘lgan. Makedoniyalik Aleksandrga qarshi kurashgan Antioxning mashhur bobosi Spitamanning nomi va atoqli qavmi Sug‘diyonada eng qadimgilaridan biri hisoblangan. Shu bilan birga, Spitama Sharqda qadimiy zardushtiylik diniga asos solgan Zaratushtra qavmining ham nomidir. Sug‘diycha **“Spitamana”** nomining ildizlari avesto tilida “Spentamana” – “Muqaddas ruh” ma’nosini anglatgan.

Asta-sekinlik bilan Sug‘diyona, Baqtriya va Marg‘iyonada tinch hayot tiklana boshladi. Bu yerlarda yangi qal’alar va shaharlar bunyod etiladi, savdo-sotiq, dehqonchilik va hunarmandchilik rivojlana boshladi. **Baqtra, Maroqanda, Marg‘iyona Antioxiyasi (Marv), Termiz** yirik shahar va madaniyat markazlariga aylanadi.

Savdo yo‘llari bo‘ylab joylashgan qal’alar katta ahamiyatga ega bo‘lgan. Termiz yaqinidagi Amudaryoning o‘ng qirg‘og‘ida joylashgan **Kampirtepa qal’asi** shular jumlasidandir. Arxeologlarning aytishicha, qal’a Makedoniyalik Aleksandrning Sug‘diyonaga yurishlari davrida Oks – Amudaryodan o‘tish joyida qurilgan. Qo‘rg‘on ichida savdo karvonlariga xizmat ko‘rsatish uchun mo‘ljallangan g‘alla ombori bo‘lgan.

Boysun tog‘larida **Uzundara qal’asi** joylashgan. U toshdan qurilgan mudofaa devorlari bilan o‘ralgan. Bu yerda Baqtriya va Sug‘diyonani bog‘lab turgan muhim tog‘ yo‘lini qo‘riqlagan yunon-makedon jangchilarning garnizoni joylashgan.

Turlicha arxeologik topilmalar jangchilar turmushi haqida so‘zlab beradi. Mazkur topilmalar ovqat pishirish uchun mo‘ljallangan sopol qozonlar va suvdonlar, qal’ada saqlangan katta idishlar – xumlar, maishiy buyumlar hamda salavkiylar va yunon-baqtriya davriga oid kumush va mis tangalardan iborat.



Salavk

- Mil. avv. 312-yilda Salavkiylar davlati hukmdori
- Mesopotamiya, Eron, Parfiya, Baqtriya, Sug‘diyona, Marg‘iyona
- Mil. avv. 280-yildan Antiox hukmdor
- Baqtra, Maroqanda, Marv, Termiz





Diodotning oltin tangasi



Podsho Yevtidem tangasi



YUNON-BAQTRIYA DAVLATI

Mil. avv. 250-yilda Baqtriya Salavkiylar davlati tarkibidan ajralib chiqadi. Antik davr tarixchilarining xabar berishicha, bir qancha Baqtriya shaharlari hukmdori bo‘lmish **Diodot** o‘zini podsho deb e’lon qiladi. Shu voqeadan boshlab Yunon-Baqtriya davlati tarixi boshlanadi. Mil. avv. 250-yilda Salavkiylar davlati tarkibidan ajralib chiqqan Parfiya Baqtriyaning raqibiga aylanadi.


Baqtriyadan tashqari, Yunon-Baqtriya podsholigi tarkibiga Sug‘diyona va Marg‘iyona ham kirgan.

Diodotdan keyin Yunon-Baqtriyada hukmronlik davlat tarixida sezilarli iz qoldirmagan **Yevtidem**ga o‘tadi. Yevtidemning o‘g‘li **Demetriy** hukmronligi davrida Yunon-Baqtriya podsholigi eng katta sarhadlarga ega bo‘ldi. Hindistonning bir qismi bu davlatga qo‘shib olindi.

Parfiyada hokimiyat **Mitridat I** qo‘liga o‘tishi bilan u Baqtriyaga harbiy tazyiqni kuchaytiradi. Yunon-Baqtriya davlati tinimsiz urushlar olib borishga majbur bo‘ldi va bu hol uning kuchsizlanishiga sabab bo‘ldi. Bundan



Yunon-Baqtriya podsholigi. Mil. avv. II asr




Qadimgi yunon shahri Oyxonim. Baqtriya. *Tiklangan*

O‘ylab ko‘ring

Yunon-Baqtriya davlatida savdo-sotiqning jonlanishiga nima sabab bo‘ldi?

foydalangan ko‘chmanchi yuechji qabilalari **mil. avv. 140–130-yillar** oralig‘ida Yunon-Baqtriya davlatini bosib oladi.


Yunon-Baqtriya davlati 120 yil taraqqiy etgan. Bu davrda hunarmandchilik va savdo-sotiq rivojlandi, shaharlar qurildi. Baqtriya, Sug‘diyona va Marg‘iyona hunarmandlarining mahsulotlari ko‘plab qo‘shni shahar va davlatlarda paydo bo‘lgan. Yunon-Baqtriya davlatida hukmdorlar tasviri tushirilgan tangalar zarb qilingan. Dajladagi Salavkiyadan Baqtriyaga qadar yo‘l qurilishi tugatilganidan so‘ng, qadimgi Sharqning ko‘plab davlatlari bilan savdo-sotiq aloqalari jonlandi. Baqtriya orqali Xitoydan Hindistonga Buyuk ipak yo‘lining janubiy tarmog‘i o‘tdi.



SAVOL VA TOPSHIRIQLAR

1. Makedoniyalik Aleksandr davlati qaysi mustaqil davlatlarga bo‘linib ketdi? Bunga nima sabab bo‘ldi?
2. Salavk va Antiox haqida nimalarni bilasiz?
3. Yunon-Baqtriya davlati tarixi haqida so‘zlab bering.

38–39-§. Qadimgi Xorazm



Devoriy surat.
Oqchaxon qal'asi.
Mil. avv. II–I asrlar



XORAZM DAVLATI

Mil. avv. IV asrda Xorazm Ahamoniylar davlatidan ajralib chiqib, mustaqil davlatga aylandi. Makedoniyalik Aleksandr hukmronligi davrida ham Xorazm davlati mustaqil edi. Qadimgi yunon tarixchisi **Arrian**ning yozishicha, bu davrda Xorazmda **Farasman** podsholik qilgan.

Mil. avv. IV–III asrlarda Xorazm O'rta Osiyoda shaharsozlik va me'morchilik keng rivojlangan muhim markazga aylanadi. Davlat chegaralarida hamda savdo yo'llari bo'ylab qal'alar quriladi. Xorazmning **Xiva, Jonbosqal'a, Bozorqal'a** va boshqa shaharlarida ulug'vor va muhtasham binokorlik ishlari amalga oshiriladi.

Shaharlar mustahkam mudofaa devorlari bilan o'ralib, devor burchaklarida burjlar qurilgan. Markazdan o'tgan ko'cha shaharni ikki qismga bo'lgan, undan esa yon-atrofga ko'chalar ketgan, mahallalar bir-biridan ajralib turgan. Markaziy maydonda muhtasham saroy va ibodatxonalar joylashgan. Xorazm davlatida harbiy ish, xo'jalik va hunarmandchilik sohasi rivojiga katta e'tibor berilgan.



Qo'yqirilganqal'a.
Qazishmalar va tiklangan holati

XO‘JALIK VA HUNARMANDCHILIK

Ushbu o‘lka aholisi xo‘jaligining asosini sun’iy sug‘orma dehqonchilik va chorvachilik tashkil etgan. Shaharlar va dehqonchilik uy-qo‘rg‘onlarining atroflarini dalalar, bog‘lar va tokzorlar o‘rab turgan. Amudaryodan uzunligi 40–50 kilometrga yetadigan keng sug‘orish kanallari chiqarilgan. Xorazmliklar bug‘doy, arpa va tariq ekishgan. Alohida qal’alarda g‘alla saqlash uchun mo‘ljallangan katta omborlar joylashgan.

Xorazmda hunarmandchilik rivoj topgan: kulolchilik, temir va mis asboblar, qurol-yarog‘ hamda zargarlik buyumlari tayyorlangan. Xorazm aholisi Sug‘diyona, Marg‘iyona, Baqtriya va dasht ko‘chmanchilari bilan yaqindan savdo munosabatlarini o‘rnatgan. Bu o‘lkadan muhim karvon yo‘llari o‘tgan. **Mil. avv. I asrda** va milodiy dastlabki asrlarda Xorazmda kumush va mis tangalar zarb qilingan. Bularning barchasi savdo aloqalarining rivojiga ko‘maklashgan.



Qadimgi xorazmliklarning qiyofalari. *Tiklangan*



Xorazm qal’a devorlari



Haykal shaklidagi ossuariy

SAN'AT, YOZUV VA DIN Qadimgi Xorazm saroylari va ibodatxonalari devoriy tasvirlar va haykaltaroshlikning yuksak san'at namunalari bilan bezatilgan.

Amudaryoning o'ng qirg'og'idagi **Oqchaxon qal'asi**da **(mil. avv. II–I asrlar)** saroy va ibodatxona joylashgan. Ibodatxona yo'laklarining devorlari odamlar, otlar va otliqlar tasviri tushirilgan rang-barang rasmlar bilan qoplangan. Ayniqsa, 30 ta qahramon portreti alohida ajralib turadi, ularning aksariyati qush shaklidagi toj kiydirilgan holda tasvirlangan.

Ushbu binolarni qurish uchun davlatning barcha hududlarida ishlab chiqarilgan xom g'ishtlar katta miqdorda ishlatilgan. Qurilishda me'morlar, rassomlar va haykaltaroshlar ishtirok etgan.

Milodiy II–III asrlarda shohona shahar – Xorazm hukmdorlarining qarorgohi **Tuproqqal'a** bunyod etilgan. Uning shimoliy qismida katta saroy va ibodatxonalar joylashgan. Saroy xonalari qadimgi ma'budlar, shohlar, jangchilar, musiqachilar, hayvonlar tasvirlari bilan bezatilgan. Zallardan birida devor bo'ylab supada bo'yalgan loy haykallar o'rnatilgan. Ularning umumiy soni 115 ta bo'lgan.

O'rta Osiyodagi eng qadimgi yozuv Xorazm hududidan topilgan. **Oybo'yirqal'a (mil. avv. V–IV asrlar)** yodgorligidan topilgan, xum sirtiga bitilgan yozuv namunasi shular jumlasidandir.





Sopol idishlar

Qadimgi Xorazm qal'alarining xarobalari

Keyingi davrlarda yozuvlar qora siyohda sopol, suyak, yog‘och taxtachalarga va charm yuzasiga bitilgan. Aramey alifbosiga asoslangan qadimgi Xorazm yozuvi 20 ta harfdan tashkil topgan.

Qishloq xo‘jaligi, hunarmandchilik va me’morchilikning rivojlanishi amaliy bilimlarga asoslangan. Shu bois Xorazmda astronomiya, geometriya, matematika kabi aniq fanlar taraqqiy etgan. Ibodatxonalar qoshidagi maktablarda xat-savod va arifmetika hisobi o‘rgatilgan. **Tuproqqal’a** devoridagi yozuvli teri o‘ramalarini ko‘tarib turgan kohin-xattotning tasviri e’tiborga molik.

Mil. avv. III asrda Xorazmda mustahkam istehkom – Qo‘yqirilganqal’a qurilgan. Qal’a ibodatxonasidan kohinlar osmon jismlarining harakatlarini kuzatgan. Misr kohinlari Nil toshqini vaqtini bilishgani singari xorazmlik kohin-astronomlar Amudaryo suv sathining ko‘tarilishi vaqtini belgilab berishgan. Shuningdek, ular ekin ekish, ko‘chat o‘tqazish va hosil yig‘ish mavsumlari muddatini ham aniq bilgan.



Xorazm jangchisining bo‘rtma tasviri. Naqshi Rustam. Eron. Mil. avv. V asr




Qadimgi Xorazm yozuvi



Devoriy surat.
Tuproqqal'a.
Milodiy II–III asrlar



Xorazmlik jangchi boshining tasviri.
Milodiy I asr



Xorazm vohasida **zardushtiylik ta'limoti** keng yoyilgan. O'rta Osiyoda zardushtiylik dafn marosimlari bilan bog'liq eng qadimgi **ossuariylar – suyakdonlar** Xorazmdan topilgan. Xorazmliklar yer, suv va olovga sajda qilib, mazkur muqaddas unsurlarni qadrlagan.

Xorazm ko'hna shaharlaridan suv va hosildorlik ma'budasi – **Anaxita** ramzini o'zida aks ettirgan ko'pdan ko'p sopol haykalchalar topilgan.

Milodiy I asrda Xorazmda ishlab chiqilgan mahalliy taqvimdan xorazmliklar VIII asrga qadar foydalangan.

SAVOL VA TOPSHIRIQLAR

1. Xorazm Ahamoniylar davlatidan qachon ajralib chiqadi?
2. Qadimgi Xorazm shaharlari haqida nimalarni bilasiz?
3. Xorazmning san'ati haqida so'zlab bering.
4. Xorazmliklarning xo'jaligi va hunarmandchiligi to'g'risida nimalarni bilasiz?
5. Qadimgi Xorazm madaniyati va dini haqida hikoya tuzing.

40-§. Qadimgi Qang‘ va Davan davlatlari

Qang‘, Qang‘xa, Qang‘yuy, mil. avv. III – milodiy III asrlar

Poytaxti: Qang‘diz (Bityan), Qanqa

Milodiy III asrda mayda mulklarga parchalanib ketgan

QANG‘ DAVLATI

Xitoy manbalarida **Qang‘xa (Qang‘)** davlati **Qang‘yuy** deb atalgan. Unga **mil. avv. III asrda** saklar asos solgan. Arxeologlarning aniqlashicha, Toshkent vohasining Oqqo‘rg‘on tumanida **mil. avv. III asrda** bunyod etilgan **Qanqa** shahar-qal’asi saklarning sobiq poytaxti – **Qang‘diz** bo‘lgan. Xitoy manbalarida bu shahar **Bityan** deb atalgan.

Qang‘ davlati hududlari o‘rta Sirdaryo sohillari bo‘ylab joylashgan yerlarni qamrab olgan.


Mil. avv. II asr oxirida Qang‘ qudratli davlat birlashmasiga aylanadi. Uning hukmdorlari o‘z tangalarini zarb qildirgan. Qang‘ davlatida harbiy istehkomlar, qal’a, ibodatxonalar, savdo va hunarmandchilik mavzelari barpo etiladi.

Davlatning madaniy markazlaridan biri Toshkent vohasi edi. Ayni shu hududda o‘troq ziroatchilik va chorvachilik madaniyati rivoj topgan.

Odamlar bug‘doy, arpa va sholi ekishgan. Vohani o‘rab olgan tog‘lardan shaharlarga temir, mis, qalay va kumush yetkazib berilgan. Shu tariqa kulolchilik,



Ayolning sopol haykalchasi. Mil. avv. I–II asr



Jang tasviri. Mil. avv. I asr



Qang‘ tamg‘asi

qurolsozlik, to‘qimachilik va zargarlik kabi hunarmandchilik sohalari rivojlangan.

Qang‘liklar olov va quyoshga sig‘ingan. **Mil. avv. II asrda Shoshtepa**da doira shaklidagi olov ibodatxonasi qurilgan. Dumaloq shakl quyosh ramzi hisoblangan.

Dashtlarda chorvachilik katta ahamiyatga ega bo‘lgan. Ko‘chmanchi qabilalar qo‘y-echkilar va tuyalarni boqishgan hamda yilqichilik bilan shug‘ullangan. Ular charmdan poyabzal tikib, jun matolaridan kiyimlar va gilamlar tayyorlashgan. Ziroatkorlar va chorvadorlar qishloq xo‘jalik hamda hunarmandchilik mahsulotlari bilan o‘zaro ayirboshlashgan.

Qang‘ hududidan Buyuk ipak yo‘lining shimoliy tarmog‘i o‘tganligi mamlakat iqtisodi va savdo-sotiq rivojiga imkon yaratdi. **Milodiy III asrga** kelib Qang‘ davlati mayda mulklarga parchalanib ketadi.



Shoshtepa ibodatxonasi. Toshkent. *Tiklangan maket*

DAVAN DAVLATI

Davan davlati (Xitoy manbalarida bu o‘lka shu nom bilan tilga olinadi) taxminan **mil. avv. III asrda** paydo bo‘lib, Farg‘ona vodiysida joylashgan.

Davan haqidagi ma’lumotlar xitoy manbalarida kengroq yoritilgan. Bu yerga tashrif buyurgan Xitoy elchisi **Chjan Szyan** shunday yozgan: *“Davanda 70 ta katta-kichik shahar bor, uning aholisi bir necha yuz ming kishidan iborat”.* Shuningdek, elchi davanliklar juda mehmondo‘st va ko‘ngli ochiq odamlar ekanligi haqida ma’lumot beradi.

Xitoy hukmdorlari bu davlatni bosib olmoqchi bo‘ldi. Harbiy yurishlarning birida ular Davan davlatining poytaxti **Ershi**ni qo‘lga kiritdi, biroq aholisining tovon to‘lashi evaziga uni tashlab chiqishga majbur bo‘ldi.

Davan davlati Xitoy va G‘arb o‘lkalari bilan bo‘ladigan xalqaro savdoda muhim o‘rin tutgan. Ayniqsa, Farg‘onaning zotdor otlari Xitoy hukmdorlarini o‘ziga jalb qilgan. Otlar naslining biriga hatto ular **“samoviy”** deb nom bergan. **“Samoviy otlar”** baquvvat va chopqir bo‘lgan.



Sopol idish.
Milodiy I–II asrlar



Tog‘ darasi orqali Davan va Xitoyni bog‘lovchi yo‘l o‘tgan

“Samoviy otlar” tufayli bo‘lgan urushlar

Qadim Farg‘onada “samoviy otlar” zotidan tarqagan nasldor otlar parvarish qilingan. Rivoyatlarga ko‘ra, Davan atrofidagi tog‘larda yovvoyi otlar yashagan. Ularni tutish va qo‘lga o‘rgatishning iloji bo‘lmagan. Shuning uchun zotdor biyalarni tanlab, o‘sha tog‘larga haydab yuborganlar. Biyalar va yovvoyi ayg‘irlardan “samoviy” otlar tarqagan. Tyanshan xitoy tilida “samoviy tog‘lar” deb tarjima qilinadi. Bu nom otlarga ham o‘tgan.

Mil. avv. II asr oxirida bu naslli otlar ovozasi Xitoygacha borgan. Ularni “qanotli otlar” ham deyishgan. Chopganda ularning badanida ter o‘rniga qon tomchilari ko‘ringan.

Xitoy yilnomasida shunday deyilgan: “Davan davlatining Ershi shahrida g‘aroyib otlar mavjudligi haqida saroyga xabar keldi. Imperatorning “samoviy otlar”ga ishtiyoqi ortdi: u o‘zining ilohiy nasl-nasabi va zavol bilmas ekanligini odamlar ongiga singdirmoq niyatida edi. Buning uchun samoga chiqishda “samoviy otlar” qo‘shilgan aravaga muhtoj bo‘lib qoldi”.

Ammo Davan davlati bu otlarni yashirdi, Xitoy elchilariga bergisi kelmadi. Shunda imperator o‘zining Che Lin degan pahlavonini elchi qilib, sovg‘a-salomlar va oltindan yasalgan ot haykali bilan Davanga jo‘natdi. Qanday bo‘lmasin, Ershi shahri arg‘umoqlarini qo‘lga kiritish zarur edi.

Davan hukmdori elchi talabiga rad javobini berdi. Bu rad javobi, Davan bilan Xitoy o‘rtasidagi urushga sabab bo‘ldi.

O‘ylab ko‘ring

Nima uchun Xitoy imperatorlari Davan otlarini “samoviy otlar” deb atagan?



Ot tasviri. Qoyatosh rasmi. Farg‘ona

Xitoy lashkarining Davanga birinchi yurishi mag‘lubiyat bilan yakun topdi. Ikkinchi yurishda Xitoy hukmdorining qo‘shinlari 60 ming nafar edi. Bu lashkarning qator-qator qurol va ozuqa ortgan ta’minotchi karvonlari bor edi. Yilnomachi “butun saltanat harakatga kelgan edi” deb yozadi. Davan sari 50 nafar sarkarda qo‘shinlari bilan jo‘nadi. Davanliklarni kutilmaganda bosish uchun ular jadal sur’at bilan jilishdi. Ular Ershi shahrini qamal qildi. Shaharga keladigan suv yo‘lini to‘sdi va qamalning qirqinchi kunida shaharning tashqi devorini buzdi. Davan hukmdori qal’aga berkinib oldi va sulh to‘g‘risida muzokaralar boshladi. Xitoyliklarga arg‘umoqlardan berishga rozilik bildirdi. Aks holda, barcha arg‘umoqlarni qirg‘in qilmoqchi bo‘ldilar. Qang‘ davlatidan madad yetib kelishidan cho‘chib, xitoyliklar sulhga rozi bo‘ldi.

Xitoy lashkari Ershiga bostirib kirmasdan, zarur miqdordagi otlardan tovon sifatida olib, o‘z vataniga qaytdi.



Ot haykalchasi



Davan, mil. avv. III – milodiy III asrlar

Poy-taxti: Ershi, 70 dan or-tiq shahar, Sho‘ra-bashot, Uchqo‘rg‘on

"Samoviy otlar" tufayli Xitoy bilan urushlar

“Samoviy otlar” uchun bo‘lib o‘tgan to‘rt yillik urush shu bilan tugadi.

Arxeologlar topgan dalillar Xitoy solnomalaridagi ma’lumotlarni tasdiqladi. Ko‘p sonli aholiga, yaxshi qurollangan va mashq ko‘rgan qo‘shinlarga ega bo‘lgan Davan **mil. avv. II–I asrlarda** yuksak taraq-qiy etgan davlatga aylangan. O‘troq aholi yer haydab, g‘alla va sholi ekkan, bog‘dorchilik va uzum yetish-tirishda katta yutuqlarga erishilgan. Xitoyliklarni o‘z-lariga notanish bo‘lgan Davandagi beda va uzum hayratga solgan. Manbalarda shunday ma’lumotlar keltirilgan: “Xitoy elchisi urug‘ keltirdi. Shunda Xitoy hukmdori saroy tevaragidagi unumdor yerga beda va uzum ekdi”. Qadimshunoslar Xitoyda anor va o‘rikning paydo bo‘lishini Davan bilan bog‘laydi. Qadimgi Farg‘onada dehqonchilik madaniyati yuqori daraja-da rivojlangan. Farg‘ona vodiysida **Sho‘rabashot, Axsikent, Uchqo‘rg‘on** kabi shahar xarobalari o‘rga-nilgan.

Olimlarning aniqlashicha, **milodiy III asrda** Davan davlati barham topgan.



Davan otlarini minib yurgan xitoyliklar

SAVOL VA TOPSHIRIQLAR

1. Qang‘ davlati qachon va qayerda tashkil topgan?
2. Davan davlati haqida nima bilasiz?
3. Qang‘ va Davan aholisining mashg‘ulotlari haqida so‘zlab bering.
4. Qang‘ davlati qachon parchalanib ketgan?
5. Davan davlati tarixi va madaniyati to‘g‘risida so‘zlab bering.

41-§. Kushon davlati

KUSHON DAVLATINING TASHKIL TOPISHI

Mil. avv. 140–130-yillar oralig‘ida ko‘chmanchi **yuechji** qabilalari Yunon-Baqtriya davlatini bosib oladi. Yuechjilar Baqtriya yerlariga kelib o‘rnashadi. **Milodiy I asrda** yuechjilar orasida **Kushon** xonadoni yuksalib, Kushon davlatiga asos solinadi.

Yuechji qabilalarining mulklarini birlashtirgan birinchi kushon hukmdori **Kudzula Kadfiz** bo‘lgan. Bu davrda Afg‘oniston va Hindiston viloyati – Kashmir Kushon davlatiga qo‘shib olingan.

Vima Kadfiz hukmronligi paytida davlat yanada kengayib, podsho **Kanishka** davrida ulkan imperiyaga aylandi. Uning hududiga Hindiston, Afg‘oniston va O‘zbekistonning janubigacha bo‘lgan yerlar kirgan. Rim, Parfiya, Xitoy davlatlari qatori Kushon podsholigi ham ulkan imperiyalardan biri bo‘lgan. Ammo to‘xtovsiz urushlar oqibatida Kushon davlati inqirozga yuz tutadi va **milodiy III asrda** parchalanib ketadi.



Kushon shahzodasining tasviri



Kushon podsholigi



Kushon podsholarining tasviri. *Tiklangan*

Vima Kadfiz davrida Kushon podsholigida hukmdor nomi bitilgan tanga zarb qilish boshlanib, pul islohoti amalga oshiriladi, zarb qilingan tangalarning qiymati oshib ketadi. Tangalar oltin, kumush va misdan tayyorlangan.

Kanishka hukmronligi davrida Kushon podsholigi o‘z taraqqiyotining cho‘qqisiga erishadi. Yangi-yangi shaharlar bunyod etiladi, Hindiston, Xitoy va Rim imperiyalari bilan savdo va elchilik munosabatlari yo‘lga qo‘yiladi. Pul islohoti xo‘jalik va savdo-sotiqning rivojiga ko‘maklashgan.


XO‘JALIKNING RIVOJLANISHI

Kushon davlati xo‘jaligining asosini sug‘orma dehqonchilik, savdo-sotiq va hunarmandchilik tashkil qilgan. Bug‘doy, arpa va sholi yetishtirilgan. Kushonlar davrida suv tegirmoni, chig‘ir turlaridan keng foydalanildi.

Hunarmandchilik ham yuksak darajada taraqqiy etgan. Kushon davlati yodgorliklari bo‘lmish **Xolchayon, Dalvarzintepa,** qadimiy **Termiz, Zartepa, Kampirtepa** va boshqalarni o‘rganish jarayonida aniqlangan topilmalar ham buni tasdiqlaydi.

O‘smir tasviri. *Devoriy surat*





Chig‘ir – suv chiqaradigan moslama

KUSHON DAVLATI YOZUVI

Kushon davlatidagi o‘zaro madaniy va savdo-sotiq aloqalari tufayli O‘rta Osiyoning turli viloyatlarida qadimgi **aramey yozuvi** keng rivojlanadi. Bu yozuv alohida harflarga asoslangani sababli uni o‘zlashtirish ancha oson bo‘lgan.

Qadimgi Termiz yodgorliklarini o‘rganish natijasida **aramey** yozuvi asosidagi kushon-baqtriya alifbosidagi yozuv namunalari topilgan. Kushon mamlakatida yana bir yozuv – **kushon shaklli yozuvi** mavjud bo‘lgan, bunda harflar burchakli va aylana shaklida yozilgan.


Kushon podsholigida yana bir yozuv tizimi mavjudligini Surxko‘tal (Afg‘onistondagi Qunduz shahri yaqinida) va Kampirtepa (Termiz yaqinida) yodgorligidan topilgan **yunon alifbosi**dagi kushon bitiklari tasdiqlaydi.

Amudaryoning quyi oqimi zaminida, Zarafshon va Qashqadaryo vohalarida aramey alifbosi asosidagi **xorazmiy** va **sug‘diy** yozuvlar ham keng tarqalgan edi.



Kanishka tangasi






Aramey yozuvi



Otliq jangchilar. Xolchayon. *Tiklangan*



Budda haykali. Fayoztepa. Millodiy I–II asrlar


DINIY E'TIQOD Kushon davlati tashkil topayotganda Baqtriya, Sug'diyonaning asosiy aholisi zardushtiylik dinida edi. Kushon podsholigi tarkibiga Hindistonning shimoliy qismi qo'shib olinganidan keyin hozirgi O'zbekistonning janubiy hududlari bilan yaqindan aloqalar o'rnatilgach, Kushon davlati hududiga buddaviylik dini kirib kela boshlagan.

Surxon vohasidagi **Eski Termiz, Ayritom** va **Dalvarzintepa**da katta buddaviylik ibodatxonalari mavjud bo'lgan. Aynan ushbu voha orqali buddaviylik O'rta Osiyo bo'ylab tarqala boshladi. Buddaviylik dini zardushtiylik bilan birga milodiy VIII asrgacha O'rta Osiyoda saqlanib qoladi.

ME'MORCHILIK VA SAN'AT Kushonlar davrida binokorlik va me'morchilik yuksak darajada taraqqiy etgan. Dalvarzintepa va Eski Termiz singari shaharlar xom g'ishtdan qurilgan mustahkam mudofaa devorlari bilan o'ralgan edi. Mudofaa devorlari ortida esa hukmdor qarorgohi joylashgan. Shaharlarning o'zi hunarmandlar mahallalariga va turarjoy mavzelariga ajratilgan. Shaharlarda saroy va ibodatxonalar barpo etilgan.



Devoriy surat. Dalvarzintepa ibodatxonasi



Kushon turarjoy qazishmalari

Xolchayondagi Kushon hukmdorlari saroyi, Eski Termiz **(Qoratepa, Fayoztepa)** va Dalvarzintepadagi buddaviylik ibodatxonalarida o‘sha davr devoriy tasvirlari va haykaltaroshlikning yuksak san’atkorona namunalari o‘rganilgan. Shahzodalar, saroy a’yonlari, jangchilar tasviri, Budda haykali va Ayritomda topilgan do‘mbirachi hamda ud cholg‘u asbobini chalayotgan musiqachilar tasvirlari shular jumlasidandir.

Kandakorlik yuqori darajada rivojlangan. Dalvarzintepadan fil suyagidan yasalgan shaxmat donalari topilgan. Kushon san’atida mahalliy an’analar, Qadimgi Sharq va Qadimgi Yunoniston ellinistik san’ati uslublari muvofiqlashgan.



Budda boshining tasviri. Dalvarzintepa. Milodiy II–III asrlar

Kampirtepa mudofaa devorlari



SAVOL VA TOPSHIRIQLAR

1. Yuechjilar Baqtriyani qachon bosib olgan?
2. Kanishka davrida Kushon podsholigida qanday o‘zgarishlar bo‘lgan?
3. Qaysi podsho davrida hukmdor nomi yozilgan tangalar zarb qilina boshladi?
4. Kushon podsholigida qanday dinlar tarqalgan?
5. Kushon davri yozuvi, san’ati va diniy e’tiqodi haqida gapirib bering.



Ipak qurti pillasi



Xitoyda yasalgan g‘arbiy o‘lka savdogarining haykalchasi


42-§. Buyuk ipak yo‘li

YO‘LNING VUJUDGA KELISHI VA TARMOQLARI

XVI asrga qadar Sharq va G‘arb o‘rtasidagi madaniy aloqalar va savdo munosabatlari taraqqiyotida qadimgi dunyoda mashhur bo‘lgan **Buyuk ipak yo‘li** muhim o‘rin tutgan edi. Bu yo‘l **mil. avv. II asrda** vujudga kelgan. Bu yo‘lga “Ipak yo‘li” degan nom **1877-yilda** nemis geografi **F. Rixtgofen** tomonidan berilgan. Buyuk ipak yo‘li shakllanishidan oldin O‘rta Osiyo va Qadimgi Sharq hududida savdo va madaniy ayirboshlash uchun foydalanilgan turli qadimiy yo‘llar mavjud bo‘lgan. Ipak yo‘li savdo va madaniy aloqalarni yanada rivojlantirishga xizmat qildi.

Buyuk ipak yo‘lining uzunligi **12 ming kilometr-ni** tashkil etgan. U Sariq dengiz qirg‘og‘idan boshlanib, O‘rta Yer dengizi sohillarigacha borgan. Bu yo‘lda qadimiy shaharlar joylashgan.

Sug‘diyonadan Xitoyga junli matolar, gilamlar, zeb-ziynat buyumlari va qimmatbaho toshlar; Baqtriyadan tuyalar, Farg‘onadan zotli otlar, Badaxshondan lojuvard olib borilgan; Hindistondan O‘rta Osiyo viloyatlariga paxtadan tayyorlangan matolar va chigit ortilgan karvonlar kelgan; Xitoydan guruch



Buyuk ipak yo‘li


keltirilgan; O‘rta Osiyodan Xitoyga uzum, yong‘oq, anor va boshqa dehqonchilik mahsulotlari yetkazilgan.

BUYUK IPAK YO‘LI CHJAN SZYAN TAVSIFIDA

Xitoy imperatori **U-Di** Xitoyning shimoliy qismini vayron qilgan ko‘chmanchi hun qabilalariga qarshi kurashda ittifoqchi va hamkorlar topish uchun elchi **Chjan Szyan**ni yuboradi. Elchi hunlar qo‘liga asir tushadi va o‘n yilcha hibsda yotadi. U asirlikdan qochib, Markaziy Tyanshan dovonlari orqali Issiqko‘lga chiqadi. Norin daryosi bo‘ylab Farg‘ona vodiysiga keladi. Bu yerda ko‘plab shaharlarni ko‘rib hayratga tushadi. Shu shaharlar Farg‘ona davlatiga qarashli ekanligini bilib oladi.


Chjan Szyan Oloy vodiysidan o‘tib vataniga qaytadi. Elchi Xitoy imperatoriga ko‘rgan-bilganlarini so‘zlab beradi. U Xitoyga Farg‘ona otlaridan birini va beda urug‘idan olib kelgan edi. Bu otni xitoyliklar “samoviy” deb atagan. Imperator U-Di o‘z saroyi yaqinida beda ektiradi. Keyinchalik u Xitoyning butun shimoli bo‘ylab ekiladigan bo‘ldi.

Chjan Szyan yurgan yo‘l bo‘ylab Xitoy mamlakatini Markaziy va G‘arbiy Osiyo bilan bog‘lovchi jahon ahamiyatiga ega *Buyuk ipak yo‘li* deb ataluvchi karvon yo‘li o‘tadigan bo‘ldi.





Buyuk ipak yo‘li bo‘ylab ketayotgan savdogar



Savdo karvoni

BUYUK IPAK YO‘LINING AHAMIYATI

Buyuk ipak yo‘lining tarixi Sharq va G‘arb xalqlari o‘rtasidagi madaniy va savdo aloqalarini yanada kengaytirishga xizmat qildi. Bu o‘zaro hamkorlik va madaniyatlar boyishi tarixi bo‘lib, tinchlik va taraqqiyot asosini tashkil etgan.

O‘rta Osiyo bu yo‘lning asosiy yo‘nalishlari kesib o‘tadigan chorrahada joylashgan. Bu yerga turli mamlakatlardan savdogarlar, hunarmandlar, olimlar va san’atkorlar kelib turgan. Ular o‘zlari uchun yuksak taraqqiy etgan mintaqani kashf etgan.



Nefrit

O‘ylab ko‘ring

Buyuk ipak yo‘li O‘rta Osiyo madaniyati rivojiga qanday ta’sir qilgan?

SAVOL VA TOPSHIRIQLAR

1. Jahonning ko‘plab mamlakatlarini bog‘lab turuvchi karvon yo‘llari tarmog‘ini birinchi bo‘lib kim “Ipak yo‘li” deb atadi?
2. Buyuk ipak yo‘lining uzunligi qancha?
3. Savdogarlar Buyuk ipak yo‘li bo‘ylab qaysi mamlakatlardan nimalarni keltirishgan?
4. Buyuk ipak yo‘li bo‘ylab sayohat qiling. Olis yurtlar va shaharlar haqida qisqacha hikoya tuzing.


V BO‘LIM
QADIMGI RIM

43-§. Qadimgi Italiya va uning aholisi

TABIIY SHAROITI VA QADIMGI AHOLISI Iqlimi iliq **Apennin** yarimorolini to‘liq egallagan Italiya zaminida qurg‘oqchilik ham, qattiq sovuq ham bo‘lmasdi. Yegulik mahsulotlari mo‘l-ko‘lligi va tuproq unumdorligi tufayli ko‘p asrlar davomida qadimgi Italiya aholisining asosiy mashg‘uloti dehqonchilik va chorvachilik bo‘lgan. Qadim zamonlardan boshlab Apennin yarimorolida turli qabilalar yashab kelgan.

“Italiya” so‘zi **“buzoqchalar mamlakati”** ma’nosini bildiradi. Italiya sohillarida koloniyalarga asos solgan yunonlar bu mamlakatda sigirlarni o‘tlatish uchun ajoyib o‘tloqlarni topganlar.

Apennin yarimorolidagi eng katta daryo **Po** daryosidir. Yarimorolning qabilalari **italiklar** deb nomlangan. Italiyaning shimoli-g‘arbiy qismida **etrusklar** yashagan. Ularning asosiy mashg‘uloti dehqonchilik bo‘lgan.



Mil. avv. VIII asrda etrusklar Italiyada 12 ta shahar-davlat tuzishadi. Etrusklar Sharq mamlakatlari bilan erkin savdo-sotiq qilish uchun yunon koloniyalari bilan kurash boshlashadi. Afrikaning shimoliy sohilida joylashgan Finikiya koloniyasi – **Karfagen** shahar-davlati ham ularga qo‘shiladi. Dastlab karfagenliklar va etrusklar g‘alaba qozonishadi, ammo ko‘p o‘tmay yunon qo‘shini ularni quruqlik va dengizda tor-mor qiladi.





Qadimgi Italiya

RIMGA ASOS SOLINISHI


Rim shahri Tibr daryosi bo‘yidagi dehqonchilik manzilgohlaridan boshlangan. **Tibr** bo‘ylab joylashgan kichik manzilgohlar birlashib, katta shaharga aylanadi. Rimning yettita tepalikda joylashishi harbiy nuqtayi nazardan juda ham qulay bo‘lgan. Daryo va botqoqlik aholini qo‘shni qabilalar hujumlaridan himoya qilar edi.

Rivoyatga qaraganda, Rim shahriga mil. avv. 753-yilda aka-uka **Romul** va **Rem** asos solgan. Dunyoga kelganlaridan so‘ng chaqaloqlarni savatga solib, Tibr daryosi bo‘yiga tashlab ketadilar. Daryo bo‘yida ularni **ona bo‘ri** topib olib, emizadi va boqadi. Keyin aka-ukalarni bir cho‘pon topib olib tarbiyalaydi. Voyaga yetganlarida esa ular Tibr bo‘yida shahar barpo etishga ahd qilishadi.

Bugungi kunda, afsonada aytilganidek, egizaklarni emizgan ona bo‘ri Rimning timsoli hisoblanadi.

Rim katta shaharga aylanadi. **Kapitoliy** tepaligida dushmanlardan himoyalanish uchun qal’a bunyod etiladi.


Rem va Romulni topib olgan ona bo‘ri tasviri



Tarkviniyning shahardan quvg‘in qilinishi

Qadimgi Rim

"Buzoqchalar mamlakati", italiklar, etrusklar

Mil. avv. 753-yilda Rimga asos solinishi, Romul va Rem

Mil. avv. 509-yil Rim respublikasi

QADIMGI RIMDA BOSHQARUV

Ilgari rimliklar o‘z hukmdorlarini saylashardi. Hukmdorlar ham harbiy boshliq, ham sudya, ham kohin bo‘lishgan. **Mag‘rur Tarkviniy** laqabli kishi mamlakatga saylab qo‘yilgan hukmdorni o‘ldirib, hokimiyatni egallab oldi. Bundan darg‘azab bo‘lgan aholi qo‘zg‘olon ko‘tarib, Tarkviniyni shahardan haydab yubordi. Shahar ahli butun hokimiyat bir kishi qo‘lida jamlanishiga yo‘l qo‘ymaydigan boshqaruv shakliga o‘tishga qaror qiladi. **Mil. avv. 509-yilda** podsho hokimiyatining ag‘darilishi **Rim respublikasi** asosini yaratdi.



Etrusklar qalqoni

SAVOL VA TOPSHIRIQLAR

1. Xaritadan Italiya hududini ko‘rsating va uning geografik xususiyatlarini so‘zlab bering.
2. Italiya aholisi qanday atalgan?
3. Nima uchun ona bo‘ri Rimning timsoli hisoblanadi? Rim shahri qanday tashkil etilganligi haqida gapirib bering.


44-§. Rim respublikasi




Qadimgi Rim markazi. *Tiklangan*

RESPUBLIKANI BOSHQARISH Rim hukmdorlari muhim masalalarni muhokama qilish uchun **Xalq majlisini** chaqirganlar. Xalq majlisi urush e'lon qilar, sulh tuzar, qonunlarni tasdiqlar va bekor qilar, barcha muhim mansabdor shaxslarni tayinlar edi. Bu majlisning qarorini **Senat** tasdiqlagan. Lotinchadan tarjima qilinganda "senat" so'zi "oqsoqollar kengashi" degan ma'noni anglatadi. Rimning tub aholisi ***patritsiylar***, Rimga ko'chib kelgan odamlar va ularning avlodlari ***plebeylar*** deb atalgan. Rim boshqaruvida faqat patritsiylar ishtirok eta olar edi.

Mil. avv. VI asr oxiridan Rim davlati ***respublika*** deb yuritila boshlangan. Lotinchadan tarjima qilganda "respublika" so'zi "xalq ishi, umumiy ish" degan ma'nolarni anglatadi (*res* – "ish", *publika* – "xalq"). Xalq majlisi patritsiylar-



Qadimgi Rimda ijtimoiy tabaqalar



Qadimgi Rimda Senat majlisi

dan ikki kishini bir yil muddatga hokim qilib saylagan. Ular **konsullar** deb atalgan.


Badavlat odamlar turli yo‘llar bilan saylovchilarni o‘z tarafiga og‘dirishga harakat qilgan: bepul tushlik uyushtirishgan, sovg‘a-salom tarqatishgan va shunga o‘xshash ishlarni amalga oshirishgan.

Saylov kuni konsullikka o‘z nomzodini qo‘ygan badavlat quldorlar **“kandida”** deb ataluvchi oq harir libos kiyib olishgan. Hozirgi “kandidat”, ya’ni qandaydir lavozimni egallashga harakat qiluvchi nomzod shaxs ma’nosini beruvchi so‘z ham “kandida”dan kelib chiqqan. Oq rang nomzodning vijdoni ham uning libosidek beg‘ubor va pokiza ekanligini bildirgan.


O‘ylab ko‘ring

Sizningcha, nima uchun Rim respublika deb nomlana boshladi?

Rim respublikasi boshqaruvi



Saylov jarayoni





Konsullar

Senat mamlakatda katta hokimiyatga ega bo‘lgan. Birorta ham qonun Senatda muhokama etilmasdan turib, Xalq majlisi tomonidan qabul qilinmas edi. Asosiy mansabdor shaxslar – konsullar esa bevosita davlatni boshqarar edilar. Qadimda eng tajribali va hurmatli kishilar Senatda o‘rin egallagan bo‘lsa, vaqt o‘tishi bilan konsullar hech bir saylovsiz Senatda o‘rin egallab oladigan va uning umrbod a’zosiga – **senator**ga aylanadigan mavqega erishdilar.

Urush boshlangan taqdirda yoki xalq qo‘zg‘oloni ro‘y berganda **diktator** va uning o‘rinbosari otliq qo‘shinlar boshlig‘i etib tayinlanar edi. Diktator cheklanmagan hokimiyatga ega bo‘lgan. Ammo u hokimiyatda olti oydan ko‘p tura olmas edi.

Har bir konsulni 12 kishidan iborat faxriy qorovul – **liktorlar** qo‘riqlab yurar edi. Konsul jinoyatchilarni jazolash imkoniyatiga egaligi alomati sifatida liktorlar yelkalariga xivich bog‘lama taqib yurishardi. Bu bog‘lamaning o‘rtasida boltacha bo‘lar edi.

Konsullar ikki nafar bo‘lib, ular muhim masalalarni hal etayotganda bir-birlari bilan maslahatlashib olishi kerak bo‘lgan. Konsullar yil davomida Rim respublikasini boshqarib, rimliklarni sud qilar edi. Harbiy davrlarda esa ular qo‘shinlarga qo‘mondonlik qilgan. Har yili ular Xalq majlisiga hisobot berar edi. Rim respublikasida **xalq tribuni** lavozimi ham ta’sis etilgan edi. Xalq tribunlari qashshoq rimliklar manfaatlarini ifoda etgan. Ular majlislarda barcha fuqarolarning teng va yashirin ovozi bilan saylanar edi. Xalq tribuni “veto” (“taqiqlayman”) so‘zini aytishi mumkin bo‘lgan, bunday holda qonun qabul qilinmas edi.


Liktorlar konsulni kuzatib bormoqda

“12 JADVAL QONUNLARI”


Qadimgi Rim qonunchiligi og‘zaki qonunlariga asoslangan edi. Sud majlislarida ishtirok etuvchi patritsiylar ko‘pincha adolatsiz qarorlar chiqarar edi. Plebeylar talabiga ko‘ra, qonunlarning yozma majmuasini yaratish uchun Senat o‘nta patritsiydan iborat hay’at tuzishga majbur bo‘lgan. Qonunlar tuzilgan bo‘lishiga qaramasdan, patritsiylar o‘z mansablaridan foydalanishda davom etgan.

O‘shanda asosan plebeylardan iborat bo‘lgan Rim qo‘shinlari isyon ko‘taradi. Ular Rim atrofidagi Muqaddas tog‘ga ketib qoladilar va o‘z qonunlariga ega bo‘lgan yangi shahar tashkil qilamiz, deb ogohlantiradilar. Shu tariqa 12 ta mis lavhaga o‘yib yozilgan qonunlar hamma ko‘rishi uchun Rimning markaziy maydoni – forumga joylashtirilib, qabul qilingan.

Mazkur qonunlar xususiy mulkni daxlsiz deb e’lon qildi, ammo ular asosan plebeylar va patritsiylar tengsizligini qonunlashtirgan. Faqat **mil. avv. III asr** boshlariga kelib Rimning barcha fuqarolari mavqeyidan qat’i nazar qonun oldida teng deb hisoblanadigan qonunlar qabul qilingan.



Qonunbuzarni jazolash



Rim fuqarolari “12 jadval qonunlari”ni o‘rganishmoqda

SAVOL VA TOPSHIRIQLAR

1. Rimda respublika boshqaruvi qay tarzda amalga oshirilgan?
2. “Respublika” so‘zi qanday ma’noni anglatadi?
3. Diktator kim? Qaysi hollarda u Rim hukmdoriga aylangan?
4. Rim qonunchiligi haqida so‘zlab bering. Uning o‘ziga xosligi nimada?
5. “12 jadval qonunlari” kimlarning manfaatlarini himoya qilgan?

45-§. Rim respublikasida hayot



Qadimgi devorga ishlangan tasvir. Pompey

SHAHARLARDAGI HAYOT Davlatning hududi kengayib borgani sayin shaharlar ham ko‘paydi. Rim shaharlari oldindan puxta ishlangan reja asosida barpo etilgan. Shaharlarda ko‘plab chiroyli jamoat va turarjoy binolari, ibodatxonalar, hammomlar, savdo rastalari va dorixonalar bo‘lgan.

Ko‘pchilik odamlar 2-3 qavatli binolarda istiqomat qilgan. Badavlat odamlar esa o‘zlariga koshona qurib olar edilar. Bunday uylarda markaziy isitish tizimi bo‘lgan: pollar isitilar, quvurlar orqali uylarga suv oqib kelar edi. Uy **mozaikalar** – shisha yoki tosh parchalaridan ishlangan suratlar bilan bezatilgan. Shohona uy-joylar – villalar devorlarini **freskalar** – xom suvoqqa ishlangan rasmlar bezatib turgan. Har bir shahar markazidagi **forum**da bozor maydoni, xalq yig‘ilishlari uchun joy va markaziy ibodatxona bo‘lgan. Suv shaharga bir necha qavatli ko‘prikka o‘xshab ketuvchi **akveduk** orqali oqib kelgan.

Rim bozorlarida katta tovar bo‘lmish qullarga talab ko‘p edi. Har bir shaharning qullar savdoga chiqariladigan bozorlari bo‘lgan.

Odamlar kiyib yuradigan liboslar ularning jamiyatdagi mavqeyini bildirgan. Masalan, o‘g‘il bolalar 14 yoshga to‘lgunga qadar pushti yo‘lli **toga** kiyishgan. 14 yoshga



Qadimgi Rim ko‘chasi

kirganlarida ular voyaga yetgan shaxs hisoblanar va oppoq toga kiya boshlar edi. Xuddi shunday harir togani senatorlar ham kiyishgan. Rimlik ayollar turli rangdagi ko‘ylaklar kiyib, bosh va yelkalariga ro‘mol tashlab yurganlar.

QADIMGI RIMLIKLARNING E’TIQODLARI

Kundalik hayotda rimliklar o‘z ma’budlariga madad va homiylik istab murojaat etishardi. Ular uchun ulug‘vor ibodatxonalar barpo etilgan. Rimliklar dini yunonlar diniy etiqodlarini esga soladi. Muhim ishni boshlashdan oldin rimliklar bu ishda madad berishi uchun ma’budlarga qurbonliklar bag‘ishlar edi.

Turfa ma’budlar hayotning turli jihatlarini boshqarar edi. Masalan, rimliklar jangda mag‘lubiyatga uchragudek bo‘lishsa, demak, qaysidir ish bilan urush ma’budi **Mars**ning jahlini chiqardik, degan xayolga borishgan.

Rimliklar bosh ma’budi, osmon, momaqaldiroq va yashin podshosi **Yupiter** Rim davlatining homiysi hisoblangan. Rimliklar dengiz, ov, savdo-sotiq, olov va temirchilik, bahor va sevgi, adolat va taqdir ma’budlarga e’tiqod qilishgan.

Rimliklarning ma’budlari

- **Yupiter** – momaqaldiroq va yashin ma’budi
- **Neptun** – dengiz ma’budi
- **Mars** – urush ma’budi
- **Vesta** – xonadon uchog‘i homiysi
- **Diana** – ov ma’budasi
- **Vulqon** – olov va temirchilik ma’budi
- **Merkuriy** – savdo-sotiq ma’budi



Qadimgi rimliklarning ma’budlari



Buyuk pontifik


DINIY MAROSIMLAR Diniy marosimlar qat'iy belgilangan qoidalar bo'yicha o'tkazilgan. Marosimlar o'tkazilishi ustidan **kohinlar – pontifiklar** – **Rim ruhoniylari** nazorat qilishgan. Ular bayramlar taqvimi, marosimlar, tantanalar tartibini tuzishardi. 5 nafardan 15 nafargacha ruhoniylar jamlangan pontifiklar hay'atiga **buyuk pontifik** rahbarlik qilgan. Buyuk pontifik ma'budlar bilan maslahatlashib, xulosa beradi deb hisoblashgan.

Rimliklar barcha muhim ishlarni bashorat qilishdan boshlashgan. Bashorat qilish **kohin – avgurlar** yordamida amalga oshirilgan. Avgurlar qushlar parvoziga, momaqaldiroq, chaqmoq, muqaddas qushlarga sepilgan donlar, aks-sadoga va hokazolarga qarab bashorat qilar, alomatlar ko'ngildagidek bo'lmasa, ishlar ma'lum muddatga kechiktirilar edi.

Xonadon o'chog'i homisi **Vesta** ibodatxonasida muqaddas olov saqlangan. Olov yonib turar ekan, hayot mavjud deb hisoblashgan.

O'ylab ko'ring

Qadimgi rimliklarning dini yunonlar dinidan nimasi bilan farq qilgan?



Urush ma'budiga bag'ishlangan marosim

SAVOL VA TOPSHIRIQLAR

1. Rim shaharlari va ularning aholisi hayoti haqida so'zlab bering.
2. Rimliklar liboslari nimasi bilan ajralib turar edi?
3. Rimda diniy marosimlar qanday o'tkazilgan?
4. Avgurlar nima bilan shug'ullangan?


46-§. Qullar va gladiatorlar


RIMDA QULDORLIK Rimdagi singari shuncha ulkan miqdordagi qullar Qadimgi Misrda ham, Qadimgi Yunonistonda ham mavjud bo‘lmagan. Zafarli yurishlar natijasida Rimda qullar soni nihoyatda ko‘payib ketadi. Misrda ham, Yunonistonda ham qullarning soni Rimdagichalik ko‘p emasdi.

Erkin rimliklar tasavvuricha, qul butunlay quldorning ixtiyorida bo‘lgan bir buyumdek edi. Qullarning qadri bo‘lmagan, negaki ular judayam arzon turardi.

Rim davlatidagi qullarda mehnatdan manfaatdorlik hissi mutlaqo bo‘lmagan. Ularga haq to‘lanmas edi. Shuning uchun qullar mumkin qadar kamroq va yomonroq ishlardilar. Bora-bora qullar mehnatining unumdorligi kamayib ketgan.

Qullar mehnati quldorlar uchun foydali emasligi ma’lum bo‘ladi. Ko‘plab quldorlar qullarni yer ijarachi-






Qullar yo‘l qurilishida

lariga aylantira boshlashadi. Qullar qo‘zg‘olonidan qo‘rqqan, hosildorlikni oshirishga intilgan zamindorlar o‘z yerlarini kichik-kichik mulklarga bo‘lib, erkin kambag‘allarga ijaraga bera boshladilar. Ana shu yerlarda ijarachilar dehqonchilik bilan shug‘ullandilar. Ular yerga qancha yaxshi ishlov bersalar, hosilning shuncha ko‘p ulushi o‘zlariga nasib etardi.

Mayda yer ijarachilari **kolonlar** deb atalgan. Yerdan foydalanganlik uchun ular yer egasiga o‘zlari yetishtirgan mahsulotlar bilan to‘lov berishardi.

Bora-bora mutlaq qaram qullarning soni kamaydi. Ayrim yer egalari qullarga kichik yerlarni mustaqil yuritishiga ruxsat berardi. Ularning o‘z mehnat qurollari, urug‘ligi bor edi, oilasi bilan birga yashardi. Bunday qullar **“kulbali qullar”**, ya’ni uy-joyli qullar deb nomlangan. Ular ham yerdan foydalanganlik uchun haq to‘lashardi, ammo o‘zlarining taqdiri xo‘jayinlarning qo‘lida bo‘lgan.

Qullar va kolonlar Rim davlatining eng mazlum aholisi bo‘lib qolavergan va ular birgalikda quldorlarga qarshi kurash boshlagan.



Qullar mehnati

GLADIATORLAR JANGLARI

Rimliklarning sevimli tomoshalaridan biri **gladiatorlar jangi** bo‘lgan. Aksariyat gladiatorlar qullar yoki jinoyatchilar bo‘lishgan. Ularga maxsus yopiq maktablarda ta’lim berishar, so‘ngra bir-birlari bilan olishishga, tomoshabinlar ko‘nglini xushlashga majbur qilishar edi.

Har bir gladiatorning hayot-mamoti tomoshabinlar xohish-istagiga bog‘liq bo‘lgan. Jang so‘ngida tomoshabinlar yengilgan gladiatorning tirik qolish-qolmasligini hal qilishardi. Agar tomoshabinlarning ko‘pchiligi o‘ng qo‘lining bosh barmog‘ini yuqoriga ko‘tarsa, yengilgan gladiator tirik qolgan, aksincha, pastga qaratishsa, u tomoshabinlar ko‘z o‘ngida o‘ldirilgan. Janglar ulkan tosh stadionlar – **amfiteatrlar**da bo‘lib o‘tardi. 50 ming tomoshabin sig‘adigan **Kolizey** eng katta amfiteatr bo‘lgan.




Kolizey

Ba’zida gladiatorlar katta-katta guruhlarga bo‘linib jang qilishgan, shunda sahna jang maydoniga o‘xshab qolar edi: o‘ldirilgan, yaralangan va jon berayotgan gladiatorlar hamma yoqda ag‘anab yotardi. Yanada qiziqarliroq bo‘lishi uchun gladiatorlar janglari kuchi teng raqiblar o‘rtasida o‘tkazilgan. Birida faqat qilich va qalqon bo‘lsa, boshqasida to‘r va changak (uch ayrili nayza) bo‘lgan.

To‘r va changak bilan qurollangan gladiator o‘zini hech narsa bilan himoya qila olmasa ham, u raqibini to‘r bilan o‘rab tashlashi va changak bilan o‘ldirishi mumkin edi. Gladiatorlar yovvoyi arslonlar, qoplonlar, darg‘azab ho‘kizlar bilan ham janglar o‘tkazgan.



Gladiatorlar jangi




SPARTAK QO'ZG'OLONI

Mil. avv. **74-yilda** boshlangan **Spartak** boshchiligidagi qullar qo'zg'oloni qadimgi dunyoda eng ommaviy va uyushgan qo'zg'olonlardan biri bo'lgan.

Rim armiyasida xizmat qilishdan bosh tortganligi uchun **Kapuya** shahridagi gladiatorlik maktabiga sotib yuborilgan frakiyalik qul – Spartak qullarni qo'zg'olon ko'tarishga undaydi. Ammo kimdir bu haqda rimliklarga xabar yetkazadi. Shunda Spartak va uning 200 ga yaqin tarafdorlari qorovullarga hujum qiladilar va gladiatorlar maktabidan qochib ketadilar. Shaharda yashirinish imkoniyati bo'lmagani sababli ular **Vezuviy** tog'idagi qoyaga chiqib oladilar. Asta-sekin boshqa qullar ham ularga kelib qo'shila boshladi va qo'zg'olon ko'targanlar safi kengaya bordi.

Qo'zg'olon ko'targan qullarni tor-mor etishga jo'natilgan uch ming kishilik qo'shin Vezuviy tog'i yaqinida harbiy lager tikladi.



Spartak

Qamal boshlandi. Spartak kutilmagan va dadil rejani amalga oshirdi. Qullar uzum novdalaridan narvon to'qib, ko'rinmaydigan tarafdan cho'qqidan pastga tushib oldilar. Rimliklar guruhining orqasidan zarba bergan Spartak ularni tor-mor etdi.

Spartakka qarshi tajribali sarkarda **Mark Krass** boshchiligida ko'p ming sonli qo'shin jo'natildi. **Mil. avv. 71-yilning** bahorida ro'y bergan hal qiluvchi jangda Spartak lashkari tor-mor etildi, uning o'zi esa ana shu jangda halok bo'ldi.

SAVOL VA TOPSHIRIQLAR

1. Rimda qullar soni kimlarning hisobiga ko'paygan?
2. Rimliklar qullarga nisbatan qanday munosabatda bo'lgan?
3. Qullar, kolonlar va "kulbali qullar"ning mavqeyi bir-biridan qanday farq qilgan?
4. Spartak boshchiligidagi qo'zg'olon haqida gapirib bering.
5. Nima deb o'ylaysiz, qo'zg'olon ko'targan qullar nega g'alaba qozonmagan?


47-§. Rim respublikasining qulashi



Rim burguti Rim hukmdorlari ramzi hisoblangan


SABABLARI Qullar qo‘zg‘olonlari quldorlarni qattiq qo‘rquvga solib qo‘yadi. Quldorlar qarshisida kuchli hokimiyat bo‘lmish harbiy diktatura o‘rnatilishi zarurligi to‘g‘risidagi masala ko‘ndalang turar edi. Senatorlar va kam sonli mansabdor shaxslar ulkan davlatni risoladagidek boshqarishni ta’minlay olmas edilar.

Mil. avv. I asrda muntazam yollanma qo‘shinlarga tayanuvchi harbiy boshliqlar haqiqiy kuchga aylandilar. Yollanma askarlarni Rimning harbiy kuch-qudrati va davlatning kuchayishi emas, faqat o‘lja qiziqtirardi. Yollanma askarlar uchun kimlar bilan jang qilish yoki kimlarni talashning farqi bo‘lmagan.




Rim askarlari

SEZAR HOKIMIYATINING QAROR TOPISHI



Yuliy Sezar



Spartak qo‘zg‘oloni bostirilib, tor-mor etilganidan keyin **Krass** va **Pompey** hokimiyat uchun ancha vaqt kurash olib bordi, ammo Rim davlati uchun olib borilayotgan urushlardan birida Krass halok bo‘ldi. Endi Pompey uchun **Sezar** birdan-bir xavfli raqib bo‘lib qoldi.

Yuliy Sezar **mil. avv. 49-yilda** Galliyadagi zafarli urushdan keyin Rimga boruvchi yo‘ldagi Rubikon daryosidan kechib o‘tar ekan, yakkahokimlik uchun oshkora kurashni boshlab yuboradi. Sezar o‘shanda shunday degan: “Qur’a tashlandi!”

Rim aholisining qo‘llab-quvatlashi hal qiluvchi ahamiyat kasb etdi. Pompeyning qo‘shinlari Ispaniyada edi. Sezar Rim imperatori va diktatori – cheklanmagan hokimiyatga ega hukmdoriga aylandi. Sezarning xohish-irodasi Rim uchun qonun kuchiga ega edi. U hech qanday saylovlarsiz mansabdor shaxslarni tayinladi, Senat va Xalq majlisiga hisob bermay qo‘ydi.

Bu hol uzoq davom etmadi. Sezarning cheklanmagan hokimiyatidan norozi bo‘lgan senatorlar fitna uyushtirdilar. Ular Sezarni o‘ldirishga va Senatga avvalgi mavqeyini qaytarishga ahd qildilar. Fitnaga Sezarning yaqin do‘stlaridan bo‘lmish **Brut** boshchilik qildi. Senatdagi majlis paytida fitnachilar Sezarni qurshab oldilar va unga xanjarlar bilan zarba bera boshladilar. Sezar shu yerning o‘zida vafot etadi.

Mil. avv. 44-yilda Yuliy Sezar hukmronligi tugadi. Uning o‘ldirilishidan so‘ng sarkardalar o‘rtasida kurash avj oldi va bu fuqarolar urushiga olib keldi.



Yuliy Sezarning Rubikon daryosidan kechib o‘tishi

HOKIMIYAT UCHUN KURASHNING OQIBATLARI

Brut oldin respublikani qayta tiklashga urinib ko‘radi. Biroq senatorlar avvalgi tartibotlarga qaytishni istamasdilar. Ularning ko‘pchiligi o‘z boyligini Sezar hukmronligi davrida qo‘lga kiritgan edi.

Ayni paytda Rimda Sezarning jiyani – **Oktavian** Brut va uning tarafdorlariga qarshi kurash boshlaydi.

Shimoliy Yunonistonda Brut qo‘shin to‘plab, Rimga jiddiy xavf soladi. Oktavian **Mark Antoniy** bilan ittifoq tuzadi va respublikachilarni tor-mor etadi.

Shundan keyin Oktavian Rim davlatining G‘arbiy qismini, Antoniy esa Sharqiy qismini boshqarishni o‘z qo‘liga oladi.


Misrga kelgan Antoniy Misr malikasi **Kleopatra**ga uylanadi. Nikoh sovg‘asi tariqasida Antoniy Kleopatraga Rimning sharqiy provinsiyalarini (viloyatlari) beradi. Bu Oktavianning noroziligiga sabab bo‘ldi.

Yunoniston qirg‘oqlarida Antoniy va Oktavian flotlari o‘rtasida jang bo‘ldi. Jang qizigan bir pallada Kleopatra va Antoniy Aleksandriya shahriga qochadi. Armiya va flot Oktavianga taslim bo‘ladi. Keyingi yili Oktavian qo‘shinlari bilan Misrga yetib keladi. Antoniy va Kleopatra o‘z-o‘zini o‘ldiradi, Misr esa Rim davlati provinsiyasiga aylanadi. Shu tariqa Oktavian butun Rim imperiyasining yakka hukmdori bo‘lib oladi.

Mil. avv. 29-yilda Oktavian Senatdan **imperator** unvoni va **Avgust** nomini oladi. U Rim imperiyasining




Oktavian Avgust



Jang manzarasi





asoschisiga aylanib, bir qator islohotlar o‘tkazadi. Imperator keng ko‘lamda qurilish ishlari olib boradi. Uning davrida Rimda ko‘plab saroylar va ibodatxonalar bunyod etiladi.

Oktavian Avgust vafotidan so‘ng uning vorislari – **Kaligula** va **Neron** hukmronligi davrida imperiya inqirozi boshlandi. Faqat **milodiy II asrning** boshlarida Rimning kuch-qudrati qayta tiklandi. Bu asr Rim imperiyasining **“oltin asri”** degan nom olgan.

Milodiy 98-yilda Trayan Rim imperatori taxtini egalladi. Trayan zamonida Dunay daryosi bo‘ylarida yashovchi **daklar** bilan urushlar olib borildi. Balandligi 40 metrga teng Trayan ustuni sirtida tasvirlangan daklar bilan urush manzaralari shu voqea haqida hikoya qiladi. Ushbu davrda Suriya va Mesopotamiya hududlari Rim imperiyasi tarkibiga kirdi. Trayan Parfiya podsholigi bilan muvaffaqiyatli urush olib borgan.



Rimdagi Trayan ustuni

SAVOL VA TOPSHIRIQLAR

1. Rimda respublika qulashining asosiy sababini ayting.
2. Rimda Sezar hokimiyati qaror topishi qanday ro‘y berdi?
3. Yuliy Sezardan keyin Rimda qanday o‘zgarishlar bo‘ldi?
4. Yakkahokimlik uchun kurashda nega Oktavian g‘olib chiqdi?

48-§. G‘arbiy Rim imperiyasining tanazzuli va halokati

IMPERIYANING TANAZZULI

Imperator **Trayan** davridan so‘ng rimliklar yirik bosqinchilik urushlarini olib borolmagan. **Milodiy III asrda** Rim imperiyasining kuch-qudrati zaiflasha boshladi. Imperatorni endilikda armiya saylar, armiyaning o‘zida ham turli guruhlar o‘rtasida kurash borar edi.

Ayni paytda imperiya chegaralarining shimoli-g‘arbiy tomonida ko‘chmanchi qabilalar paydo bo‘ldi. Rimliklar ularga **“varvarlar”** degan laqab berishgan va chegarada katta armiya saqlab turishga majbur bo‘lishgan.


Dastlab yunonlar tillari o‘zlari uchun tushunarli bo‘lmagan barcha qabila va xalqlarni “varvarlar” deb atashgan. Keyinchalik rimliklar madaniy taraqqiyotning ancha quyi pog‘onasida turuvchi xalqlarni shunday nomlashgan.

O‘ylab ko‘ring

Nima uchun rimliklar davlat chegaralarida katta armiya saqlab turishga majbur bo‘lishgan?



Avgust oyining qorong‘i tunida qullar Rimning 12 darvozasidan birini ichkaridan ochadi.




G‘ARBIY VA SHARQIY RIM IMPERIYALARI

Imperator **Konstantin** zamonida, **milodiy 330-yili** Bosfor bo‘g‘ozidagi **Vizantiy** shahri Rim imperiyasining poytaxti deb e’lon qilinadi. Imperatorning buyrug‘i bilan shahardagi barcha eski binolar buzib tashlanadi va yangi shahar quriladi. Shahar imperator sharafiga **Konstantinopol** deb atala boshladi.

Ulkan imperiyani Konstantinopoldan turib boshqarish mushkul edi. Imperator **Feodosiy** o‘limidan so‘ng **milodiy 395-yili** Rim imperiyasi uning ikki o‘g‘li o‘rtasida **G‘arbiy** va **Sharqiy** qismlarga bo‘lib olinadi. G‘arbiy qismga Italiya, G‘arbiy Yevropa va Shimoliy Afrikadagi viloyatlar, Sharqiy qismga esa Bolqon yarimoroli, Kichik Osiyo va Misr yerlari kirgan. Sharqiy Rim imperiyasida imperatorning yagona hokimiyati saqlanib qolgan, G‘arbiy Rim imperiyasi esa alohida davlatlarga parchalana boshladi.

GOTLAR RIMDA

Milodiy 410-yilda Alarix boshchiligidagi german qabilalari – **gotlar** Rimni qurshab oladi. Rimliklar ular bilan muzokara boshladilar, ammo tunda qullar shahar darvozalarini ochib beradi, bosqinchilar shaharga yopirilib kiradi. Gotlar haykallarni yo‘q qilib, bebaho kitoblarni yondirib, Rimni roppa-rosa uch kun taladilar. Talon-taroj qilingan Rim shahri huvullab qoldi.



Rimga varvarlarning bosqini

Germanlar savodsiz bo‘lib, teatrlar, kutubxonalarni ko‘rishmagan edi. Rim imperiyasi sarhadiga kirganlaridan keyin ular Rim imoratlari, arxitekturasi, haykallarining go‘zalligi va ulug‘vorligini munosib baholay olishmadi. Bularning barini shafqatsizlarcha yo‘q qilib tashladilar. Germanlar qo‘rg‘onchalarini o‘rab turgan devorlarni mustahkamlash uchun Rim ibodatxonalari va kutubxonalari binolaridan toshtaxtalarni ko‘chirib olib ketadilar. Kitoblar, haykallar va boshqa san’at asarlari ham nobud bo‘ladi.




Vandallar
Zamonaviy rasm

G‘ARBIY RIM IMPERIYASINING QULASHI

Gotlarning Rimni ishg‘ol etishi imperiya aholisini larzaga soldi. Yuz yillar davomida rimliklar barcha raqiblari ustidan g‘alaba qozonishgan, o‘zlarini jahon hukmdori hisoblashgan. Rimni esa **“boqiy shahar”** deya ta’riflashgan.

Rim aholisining ko‘pchiligi Rim zavolga yuz tutishi bilan butun jahon nest-nobud bo‘lib ketishiga ishonar edi.



Odoakr Rimning oxirgi imperatorini taxtdan ag‘daradi.
Zamonaviy rasm




Rim askari.
Zamonaviy rasm

Alarix ham o‘ldi, biroq Rimning undan dahshatliroq dushmani – **Attila** boshchiligidagi hun qabilalari **452-yilda** paydo bo‘ladi. Attila Sharqiy Rim imperiyasiga hujum uyushtira boshladi.

Milodiy 455-yilda Rimga germanlarning **vandal** qabilalari hujum qildi, ular ikki hafta davomida shaharni taladilar. Vandallar o‘zlari bilan olib ketolmaydigan hamma narsani nobud qildilar.

Milodiy 476-yilda german qabilalarining Rimdagi yollangan qo‘shini sarkardasi **Odoakr** so‘nggi imperator **Romulni** taxtdan ag‘darib tashladi va imperator unvoni nishonini Konstantinopolga jo‘natdi.

G‘arbiy Rim imperiyasi sarhadlarini german qabilalari egallab olishadi. Shu tariqa **milodiy 476-yil** G‘arbiy Rim imperiyasining qulashi va qadimgi dunyo tarixining yakunlanish sanasi sifatida tarixga kirdi. Mazkur sanadan boshlab **o‘rta asrlar tarixi** boshlanadi.





SAVOL VA TOPSHIRIQLAR

1. Rim imperiyasining G‘arbiy va Sharqiy imperiyalarga bo‘linishi sababi nimada?
2. Rimning bosib olinishi haqida so‘zlab bering.
3. G‘arbiy Rim imperiyasi qulashi sabablarini sanang.

49–50-§. Qadimgi Rim madaniyati



Rim hammomlari – termalar

RIMLIKLARNING TURMUSH TARZI

Qadimgi zamonlarda rimlik zodagonlar bo‘lmish patritsiylar bir qavatli oddiy uylarda yashardilar, xo‘jalikda qullar ham unchalik ko‘p emasdi.

Vaqt o‘tib, rimliklar turmushida keskin o‘zgarishlar ro‘y beradi. Badavlat kishilar yashaydigan tepaliklar bag‘rida tomoshabog‘lar va chorbog‘lar paydo bo‘lgan. Bu joylarning havosi ancha sog‘lom va toza bo‘lgan. Imperatorning yaqin kishilari muhtasham koshonalarga egalik qilar edi.


Oddiy rimliklar tepaliklar o‘rtasidagi tekis joylarda yashagan. Bu yerlarda ko‘chalar tor bo‘lgan.

Rimlik imperatorlar poytaxt aholisi uchun **“termalar”** deb atalgan ko‘rkam hammomlar qurdirgan edilar (yunoncha *termos* – “issiq” so‘zi ham shundan kelib chiqqan). Arzimas to‘lov evaziga har bir rimlik termalarga tushish imkoniyatiga ega bo‘lib, bu yerda suzish uchun basseynlar, sport zallari mavjud edi. Termalar qoshida ta’lim olish va fanlar bilan shug‘ullanish uchun kutubxona ham bo‘lgan.

O‘ylab ko‘ring

Sizningcha, Rim va zamonaviy shaharlar o‘rtasidagi asosiy farq nimada?

Matn va rasmga asoslanib, Rimda qanday “sayohat qilganingizni” ayting.



Rim arxitekturasi namunalari



Bolalarni maktabda o'qitish manzarasi. *Zamonaviy rasm*

TA'LIM Kambag'al rimliklarning farzandlari xo'jalik ishlarida ota-onalariga yordam berganliklari sababli maktabda o'qimas edilar. Badavlat xonadon farzandlari esa 6 yoshdan maktabga qatnagan.

Yozuvni o'rganayotgan bolalar **stil** degan metall tayoqcha bilan harflarni mum qoplangan taxtachalarga o'yib yozardilar.

O'qish, yozish va hisoblashni o'rganganidan keyin ko'pchilik ta'lim olishni yakunlar edi. Ayrimlar **gramma**tikada (o'rta maktabda) tahsilni davom ettirgan. U yerda tarix, geografiya, geometriya, musiqa va astronomiya o'qitilardi.

ME'MORCHILIK VA HAYKALTAROSHLIK

Rim imperiyasida qurilish ishlari ayniqsa taraqqiy etgandi. Amfiteatrlar, sirklar va teatrlar, ibodatxonalar, saroylar, **triumf arkalar** va ko'p qavatli uylar barpo etildi. Shaharni baland devorlar o'rab turardi. Rim me'morchiligi yunon me'morchiligidan imoratlari rang-barangligi va muhtashamligi bilan farqlangan. **Milodiy I asrda** Rim eng yirik va aholisi ko'p shaharga aylangan. O'sha kezlarda hatto shunday bir maqol to'qilgan: "Barcha yo'llar Rimga boradi". O'rmonlar, tog'lar va botqoqlar orqali yo'llar o'tkazilgan. Rimda suv o'tkazish tizimlari – suv quvurlari qoldiqlari ham hozirga qadar saqlanib qolgan.



Triumf arkasi

Quvurlar nishablik asosida qurilgan bo'lib, tog'dagi buloqlardan suvning o'zi oqib kelar edi. Suv quvurlarini jarlar, daralar va vodiylardan o'tkazish uchun **akveduklar** – anhorlarning yuqori qismidan o'tkazilgan ko'priklar qurilgan.

Ulkan ko'priklarni butunlay toshdan qurish qimmatga tushar va uzoq davom etar edi. Rimliklar yangi qurilish materiali bo'lmish **beton**ni ixtiro qilishgan. Qotga-




Akveduk

nidan keyin u toshdan ham mustahkam bo‘lib qolgan. Beton ishlatilishi rimliklarga tez va pishiq inshootlar qurishga imkon bergan.

Beton ixtiro etilganidan keyin shiftlar gumbaz shaklida ustunlarsiz quriladigan bo‘ldi. Rimdagi **Panteon** (yunonchada “barcha xudolar ibodatxonasi” ma’nosini anglatadi) shu taxlitda qurilgan.

Rimning eng katta amfiteatri bo‘lmish **Kolizey** o‘tmishdagi ulug‘vorlik namunasi sifatida hozirgacha saqlangan.


Qadimgi Rimda mashhur tarixiy asarlar yaratilgan. Tarixchi **Tit Liviy** “Rim tarixi”ni yozgan. **Plutarx** yunon-rim sarkardalari hayoti haqida kitob yozib qoldirgan. **Kvint Kursiy Ruf** “Makedoniyalik Aleksandr tarixi” asarini yaratgan. Mazkur asarlar bizgacha yetib kelgan.



Qadimgi Rim me’morchiligi namunalari. *Tiklangan*

XRISTIANLIKNING VUJUDGA KELISHI

Milodiy I asr boshlarida Rim hokimiyati ostida bo‘lgan Falastindagi **Vifleyem** shahrida mo‘jizaviy bolakay – **Iso** tug‘ilganligi haqida rivoyatlar keng tarqala boshlagan.



Golgofa tog‘i

Rivoyatlarga ko‘ra, 30 yoshida Iso o‘n ikki nafar shogirdi bilan Falastin bo‘ylab sayohat qilib, Xudo oyatlari haqida hikoyalar so‘zlab beradi va ularni amalda ko‘rsatadi: o‘liklarni tiriltiradi, yashashdan umidini uzgan, tuzalmas xastalarni davolaydi.

Mahalliy ruhoniylar Iso payg‘ambarni mavjud diniy haqiqatlarni buzib talqin etishda ayblab, uni o‘lim jazosiga mahkum etadilar. Rim noibi **Pontiy Pilat** bu hukmni tasdiqlagan.

Iso vafotidan keyin uning jasadini shogirdlari **Golgofa** tog‘idagi bir g‘orga dafn qilishadi. Rivoyatga ko‘ra, uchinchi kuni **Iso Masih** qayta tirilib, osmonga ko‘tarilib ketgan.

Odamlar Iso payg‘ambarning qayta tirilib, me’rojga ko‘tarilishiga va Yer yuziga qaytib kelishiga ishonganlar.

Iso Masih haqidagi rivoyatlar **Yevangeliya** (Injil) nomini olgan, yunonchadan tarjima qilganda [illegible]

Dastlabki xristianlar ibodatxonasining ko‘rinishi

so‘z **“xushxabar”** ma’nosini anglatadi. Iso payg‘ambar ta’limoti izdoshlari xristianlardir. Shogirdlari **apostollar** (havoriylar) deb atalgan. Xristianlar jamoalariga **yepiskoplar** peshvolik qiladi. **Milodiy I asr xristianlik** vujudga kelgan sana hisoblanadi.

Rim hukmdorlari xristianlarni ta’qib etadilar, yirtqich hayvonlar changaliga tashlaydilar, turli qiynoqlarga soladilar. Bu esa odamlarning noroziligiga sabab bo‘lardi.

Milodiy 313-yilda imperator **Konstantin** xristianlik boshqa dinlar bilan teng bir din deb e’lon qilingan farmon chiqardi. Farmon xristianlarga ibodatxonalar qurish va oshkora ibodat qilish imkonini berdi.



Imperator Konstantin

SAVOL VA TOPSHIRIQLAR

1. Qadimgi rimlik nomidan hikoya tuzing.
2. Rim maktablarida nimalarni o‘qitishgan?
3. Rim me’morchiligining xususiyatlarini ayting.
4. Rim tarixi namoyandalari nomini ayting.







ILOVA

TARIXIY ATAMALAR LUG‘ATI

Agora – Qadimgi Yunoniston shaharlarida xalq yig‘inlari joyi, markaziy maydon.

Akveduk – shaharga suv keladigan, ustida anhori bo‘lgan baland ko‘prik.

Altamir – Ispaniyadagi so‘nggi paleolitga oid rasmlar topilgan g‘or.

Amfiteatr – sahna atrofida tomoshabinlar o‘tirishiga mo‘ljallangan qurilmalar bilan qurshalgan tomsiz katta inshoot.

Animizm – insonni qurshab turgan muhitda jonlar va ruhlarning mavjudligiga ishonish.

Antik – lotincha, “qadimgi”.

Aramey yozuvi – Mesopotamiyaning (ikki daryo oralig‘i) o‘rta qismida joylashgan qadimgi xalq – arameylar tomonidan yaratilgan yozuv, 20 ta harfdan iborat bo‘lgan.

Arxeologiya – ashyoviy manbalarni o‘rganuvchi va ular bo‘yicha o‘tmishni qayta tiklovchi fan; qadimshunoslik.

Buddaviylik – mil. avv. VI asrda Hindistonda Siddhartha Gautama tomonidan asos solingan diniy ta’limot.

Falanga – og‘ir qurollangan askarlarning bir necha, odatda 9 yoki 16 qator saf tortishi.

Falsafa – filosofiya: yunoncha *filo* – “sevish”, *sofiya* – “donishmandlik” tushunchalarini anglatadi.

Fir’avn – Misr hukmdori; “ulug‘ xonadon” ma’nosini anglatadi.

Goplit – Qadimgi Yunoniston va yunon-makedon armiyalarining og‘ir qurollangan piyoda jangchisi.

Ibodatxona – muqaddas deb e’lon qilingan, odamlar xudolarga sig‘ingan bino yoki joy.

Imperator – (lotincha, “hukmdor”) qadimgi Rimda dastlab faxriy harbiy unvon, keyinchalik mutlaq hukmdorga tegishli unvon.

Imperiya – hukmdorning cheklanmagan hokimiyati joriy etilgan, boshqa ko‘plab xalqlarni o‘ziga bo‘ysundirgan davlat.

Italiklar – Apennin yarimorolida istiqomat qilgan qadimiy qabilalar.



Iyerogliflar – qadimgi yunonlar misrliklar yozuvini shunday atashgan, “muqaddas bitiklar” ma’nosini anglatadi.



Kapitoliy tepaligi – Rimdagi eng baland tepalik.

Kohinlar – ibodatxona ruhoniylari.

Koloniyalar – qadimgi davrlarda o‘z yurtini tark etgan odamlar tomonidan yangi yerlarda asos solingan manzilgoh va shaharlar.

Konsul – Respublika davrida Rimdagi oliy siyosiy lavozim. Har yili saylangan ikki nafar konsul Senat va armiyaga rahbarlik qilgan.

Kromanyon – zamonaviy qiyofaga ega qadimgi odamning suyaklari dastlab topilgan joyning nomi (Fransiya). Joyning nomidan kelib chiqib, bu odamni kromanyon deb atash rasm bo‘lgan.



Lojuvard – ko‘k rangdagi tabiiy tosh, ma’dan.

Metek – Afinada yashovchi chet ellik.

Neandertal odam – o‘rta paleolit davrida yashagan ibtidoiy odam. Uning suyak qoldiqlari dastlab Germaniyadagi Neandertal vodiysidan topilgan.



“Nom”lar – Misrdagi ilk davlatlar.

Nomarx – Qadimgi Misrdagi ilk davlatning hukmdori.

Papirus – poyasi yozuv materiali tayyorlash uchun ishlatiladigan qamish.

Patritsiylar – Rimning qadimgi tub aholisi.

Piramida – mahobatli tosh inshoot, fir’avnlar maqbarasi.

Plebeylar – Rimga ko‘chib kelgan odamlar va ularning avlodlari.

Polis (yunoncha *polis*) – “shahar”.

Respublika – “umumiy ish” ma’nosini anglatadi; davlat boshqaruvi shakli.



Senat – “oqsoqollar kengashi” ma’nosini anglatadi.

Sun’iy sug‘orish – kanallar va ariqlar yordamida ekinlarni sug‘orish.

Sfinks – tanasi sherniki va boshi insonniki bo‘lgan, piramidalarni qo‘riqlovchi ulkan haykal – afsonaviy mavjudot.

Termalar – Qadimgi Rim shahridagi jamoat hammomlari.

Varvar – dastlab yunon tilida so‘zlashmaydigan har qanday chet mamlakatlik kishi; keyinchalik bu so‘z madaniylashmagan odamlarga nisbatan ishlatiladigan bo‘ldi.



Sivilizatsiya – qadimdagi jamiyat taraqqiyotining ancha yuksak darajasi (shaharlar, yozuv va davlatlarning rivojlanishi).

Zikkurat – tepasida ibodatxonasi bo‘lgan zinapoyali yirik va baland inshoot.

QADIMGI DUNYO TARIXI SANALARDA



Mil. avv. 1 million yil – 100-mingyillik – O‘rta Osiyoda ilk paleolit davri.

Mil. avv. 100–40-mingyilliklar – o‘rta paleolit davri.

Mil. avv. 40–12-mingyilliklar – so‘nggi paleolit davri.

Mil. avv. 12–7-mingyilliklar – mezolit davri.

Mil. avv. 6–4-mingyilliklar – neolit davri.

Mil. avv. 4–3-mingyillikning o‘rtalari – eneolit davri.




Mil. avv. 4-mingyillik – Mesopotamiyada shumer va akkadlar manzilgohlari va shaharlarining vujudga kelishi.

Mil. avv. 4-mingyillik – Nil qirg‘oqlarida manzilgohlarning vujudga kelishi.

Mil. avv. 3000-yil – fir’avn Menes Misrni yagona davlatga birlashtirdi.

Mil. avv. 2600-yil – Misrda Xeops (Xufu) piramidasining qurilishi.

Mil. avv. 3-mingyillik – Elam davlatining paydo bo‘lishi.




Mil. avv. 3-mingyillik – Mohenjodaro va Xarappa shaharlarining vujudga kelishi.

Mil. avv. 3-mingyillikning o‘rtalari – 2-mingyillik – bronza davri.

Mil. avv. 3-mingyillikning oxirlari – 2-mingyillik – Xitoyda ilk sivilizatsiyaning vujudga kelishi.

Mil. avv. 2-mingyillik – Old Osiyo hududida Ossuriya davlatining vujudga kelishi.

Mil. avv. 2-mingyillik – Bobil podsholigining tashkil topishi.



Mil. avv. 3-mingyillikning oxirlari – 2-mingyillik – Sopollitepa va Jarqo‘ton kabi dehqonchilik manzilgohlarining tashkil topishi va rivojlanishi.

Mil. avv. 2-mingyillik – Miken va Krit davlatlarining tashkil topishi.

Mil. avv. 2-mingyillik – Attikada Akropol qal’asining barpo etilishi.

Mil. avv. XVIII asr oxiri – Misrning ko‘chmanchi giksos qabilalari tomonidan zabt etilishi.

Mil. avv. XVIII asr – Bobil hukmdori Xammurapi (mil. avv. 1792–1750-yillar) Mesopotamiyani yagona davlatga birlashtirdi.

Mil. avv. XVIII asr – Mohenjodaro va Xarappa shaharlarining inqirozi.

Mil. avv. XII asr – doriylar Lakonikani zabt etdilar va Sparta shahriga asos soldilar.



Mil. avv. XI asr – Isroil davlatining tashkil topishi.

Mil. avv. X asr – Finikiyada alifboning yaratilishi.

Mil. avv. IX–VIII asr boshlari – Urartu davlatining gullagan davri.

Mil. avv. VIII–VI asrlar – Yunon koloniyalarining tashkil topishi.

Mil. avv. VIII asr – Italiyada 12 shahar ittifoqining vujudga kelishi.

Mil. avv. 1-mingyillik – zardushtiylikning O‘rta Osiyo hududida tarqalishi.

Mil. avv. VII asr – Misrning yana yagona davlatga birlashishi.

Mil. avv. 776-yil – Olimpiya o‘yinlarining birinchi bor o‘tkazilishi.

Mil. avv. 753-yil – Rimning tashkil topishi.

Mil. avv. VII asr – Yangi Bobil podsholigining tashkil topishi.

Mil. avv. VII asr – Qadimgi Baqtriya podsholigining tashkil topishi.

Mil. avv. VII–VI asrlar – Ko‘ktepa, Qiziltepa, Afrosiyob, Uzunqir, Yerqo‘rg‘on, Ko‘zaliqir shaharlarining rivojlanishi.

Mil. avv. VII–V asrlar – Xitoyda “ko‘p podsholik” davri.

Mil. avv. 621-yil – Drakont qonunlarining qabul qilinishi.

Mil. avv. 605-yil – Ossuriya podsholigining qulashi.

Mil. avv. 594-yil – Afinada Solon islohotlarining o‘tkazilishi.

Mil. avv. 558-yil – Kir II Fors podsholigining hukmdori.

Mil. avv. 539-yil – Bobilning forslar tomonidan bosib olinishi.

Mil. avv. 530-yil – Kir II ning O‘rta Osiyoda halok bo‘lishi.

Mil. avv. 525-yil – Misrning qadimgi fors shohi Kambiz II tomonidan zabt etilishi.

Mil. avv. 522-yil – Doro I Ahamoniylar davlatining hukmdori.

Mil. avv. 522-yil – Doro I ga qarshi Frada qo‘zg‘oloni.

Mil. avv. 509-yil – Rimda Respublika e’lon qilinishi.

Mil. avv. 490–449-yillar – yunon-fors urushlari.

Mil. avv. 490-yil – Marafon tekisligidagi jang.

Mil. avv. 480-yil – Fermopil jangi (uch yuz spartalik jasorati).

Mil. avv. 480-yil – Salamin jangi.


Mil. avv. 479-yil – Plateya shahri yaqinidagi jang; yunonlar g‘alabasi.

Mil. avv. 443–429-yillar – Afinada strateg Perikl hukmronligi.













Mil. avv. V–IV asrlar – O‘rta Osiyo hududida ilk tangalarning tarqalishi.

Mil. avv. IV asr – xorazmiylar, saklar va massagetlarning Ahamoniylar zulmidan ozod bo‘lishi.

Mil. avv. 338-yil – Xeroniya yaqinidagi jang, makedoniyaliklar tomonidan yunonlarning tor-mor qilinishi.

Mil. avv. 329-yil – Makedoniyalik Aleksandr boshchiligidagi yunon-makedonlar tomonidan Maroqandaning bosib olinishi.

Mil. avv. 329-yil – Zarafshon daryosi qirg‘oqlaridagi jangda yunon-makedon qo‘shinlarining tor-mor qilinishi.

Mil. avv. 328-yil – Makedoniyalik Aleksandr armiyasi bilan bo‘lgan jangda Spitamanning mag‘lubiyati.

Mil. avv. 323-yil – Makedoniyalik Aleksandrning vafoti.

Mil. avv. 312-yil – Salavk hukmronligining boshlanishi; Salavk – Salavkiylar davlatining asoschisi.

Mil. avv. III asr – Qang‘ davlatining tashkil topishi.

Mil. avv. III asr – Davan davlatining tashkil topishi.

Mil. avv. 250-yil – Yunon-Baqtriya davlatining tashkil topishi.

Mil. avv. 246-yil – Sin Shixuandi – Sin davlatining hukmdori.

Mil. avv. III asr – Xorazmda Qo‘yqirilganqal’a ibodatxonasining bunyod etilishi.

Mil. avv. II asr – Buyuk ipak yo‘lining vujudga kelishi.

Mil. avv. 140 – 130-yillar – Yunon-Baqtriya davlatining yuechjilar tomonidan bosib olinishi.

Mil. avv. I asr – Xitoyda qog‘ozning kashf qilinishi.

Mil. avv. 74-yil – Spartak qo‘zg‘oloni.

Mil. avv. 49-yil – Yuliy Sezar – Rim imperatori.

Mil. avv. 29-yil – Oktavianga Senat tomonidan imperator unvoni va Avgust faxriy nomining berilishi.



Milodiy 98-yil – Rim imperiyasida Trayan hukmronligining boshlanishi.

Milodiy I asr – Xorazmda taqvimning yaratilishi.

Milodiy I asr – xristianlik dinining vujudga kelishi.

Milodiy I asr – Baqtriyada buddaviylik dinining yoyilishi.

Milodiy I asr – Kushon podsholigining gullagan davri.

Milodiy III asr – Kushon davlatining inqirozga yuz tutishi.

Milodiy 330-yil – Rim imperiyasining poytaxti – Vizantiy (Konstantinopol).



Milodiy 394-yil – Olimpiya o‘yinlari o‘tkazilishining to‘xtatilishi.

Milodiy 395-yil – Rim imperiyasining bo‘linishi: G‘arbiy va Sharqiy.

Milodiy 410-yil – Alarix boshchiligidagi gotlar tomonidan Rimning yakson qilinishi.

Milodiy 452-yil – Attila boshchiligida hun qabilalarining Italiyaga bostirib kirishi.

Milodiy 455-yil – Rimga vandallarning hujum qilishi.

Milodiy 476-yil – G‘arbiy Rim imperiyasining qulashi.









YAKUNIY TAKRORLASH


Qadimgi dunyo tarixini o'rganishda tarixiy atama va nomlarni qanday o'zlashtirganingizni sinab ko'ring. Javoblaringizni tekshirish uchun mazkur atamalar berilgan betlar ham keltirilgan.

agema – 127
agora – 95
akinak – 122
akkadlar – 43
akveduk – 158
amfiteatr – 163
animizm – 15
aristokratiya –97
antropologlar – 8
arxeologlar – 8
avgurlar – 160
axeylar – 86
baqtriyaliklar 74
buddaviylik – 65
brahmanlar – 60
bronza davri – 21
demokratiya – 95, 97
demos – 95
diktator – 156
elamiylar – 55
ellinlar – 94
eneolit – 21
etnograflar – 8
etrusklar – 151
falanga – 88, 100
faylasuf – 109
fir'avn – 31, 33
forum – 158
freska – 158
giksos qabilalari – 32
gladiatorlar – 163
goplitlar – 88
havoriy (apostol)lar – 177
ilotlar – 91
italiklar – 151
iyerogliflar – 40
kassiylar -55
kasta (varna)lar – 60
koloniyalar – 179
kolonlar – 162
konsul – 156, 179
kohinlar – 35
kromanyon – 17
kulolchilik – 24, 44
kshatriylar – 60
liktor – 156
massagetlar – 73
matriarxat – 10
meteklar – 89
mezolit – 18
mikrolitlar – 20
Minoy sivilizatsiyasi – 86
mixxat – 44
mozaika – 158


mumiyolash – 39
neandertal – 14
neolit – 20
“nom” – 31
ossuariy – 83, 136
paleolit – 10, 12
palestra – 90
papirus – 28
patriarxat – 10, 22
patritsiylar – 154
perieklar – 92
piramidalar – 36
plebeylar – 154
podsholar – 45
polis – 88
pontifik – 160
respublika – 154, 180
sagaris – 122
saklar – 75
sanskrit – 63
sarkofag – 38
satrap – 117
satrapiyalar – 56, 117
Senat – 154, 180
sfinks – 36, 180
sivilizatsiya – 5
skif – 53
stil – 90, 174
strateg – 98, 128
suyakdonlar – 136
sug‘diylar – 74
temir asri – 27
termalar – 173, 180
toga – 158
urug‘ – 10, 17
urug‘ jamoasi – 10, 17
“varvarlar” – 94
xorazmliklar – 74
zardushtiylik – 81
zikkurat – 45
o‘zlashtiruvchi xo‘jalik – 13
shahar davlatlar – 45
“shoh yo‘li” – 56
shudralar – 61
shumerlar – 43
chig‘ir – 144
chopperlar – 13







QADIMGI DUNYO TARIXIGA OID GEOGRAFIK VA TARIXIY NOMLAR






Afina – 89
Afrosiyob – 77
Akkad – 43
Aleksandriya Esxata – 124
Altamir – 15
Apennin - 151
Ayritom – 146
Ashshur – 52
Baqtra – 124
Baqtriya – 74
Behistun – 9
Bobil – 48
Dajla – 43
Dalvarzintepa – 144
Davan – 137
Gang – 58
Golgofa – 176
Ikki daryo oralig'i – 43
Italiya – 151
Jarqo'ton – 22
Jonbosqal'a – 132
Karfagen – 151
Konstantinopol – 170
Korinf – 102
Krit – 86
Kurushkat (Kiropolis) – 123
Ko'zaliqir – 77
Lagash – 45
Lakonika – 91
Lasko – 15
Makedoniya – 100
Marafon – 99
Maroqanda – 123
Marg'iyona – 114
Machay – 18
Memfis – 31
Mesopotamiya – 43
Midiya – 55
Miken – 86
Misr – 28
Mohenjodaro – 59
Nil – 28
Nineviya – 52
Nubiya – 32
Obishir – 18
Oks (Amudaryo) – 123
Olimpiya – 104
Olviya – 94
Ossuriya – 52
Pantikapey – 94
Peloponnes – 85
Persepol – 56
Pirey – 89
Rim – 152
Rozett – 41
Selungur – 13
Sopollitepa – 22
Sparta – 91
Sug'diyona – 73
Vezuvi – 164
Vizantiy – 170
Yerqo'rg'on – 77
Zamonbobo – 22
Zartepa – 144

QADIMGI DUNYO TARIXIDAGI ISMLAR

Alarix – 170
Antiox – 128
Antoniy – 167
Aristofan – 107
Arrian – 9
Arximed – 110
Attila – 172
Ashshurbanipal – 52
Bess – 123
Brut – 166
Budda – 64
Demetriy – 130
Demokrit – 109
Demosfen – 100
Diodot – 130
Diogen – 109
Doro I – 9, 114
Doro III – 123
Drakont – 96
Fidiy – 98
Filipp II – 100, 122
Frada – 114
Geraklit – 109
Gerodot – 9
Gilgamish – 46
Gomer – 105
Iso Masih – 176
Kaligula – 168
Kambiz II – 33, 55
Kanishka – 143
Kvint Kursiy Ruf – 175
Kiaksar – 55
Kir II – 33, 55, 114
Kleopatra – 167
Konstantin – 177
Krass – 164
Kserks – 99
Kudzula Kadfiz – 143
Makedoniyalik Aleksandr – 102, 123, 127
Menes – 31
Mitridat I – 130
Navuxodonosor II – 50
Neron – 168
Oktavian Avgust – 167
Perikl – 98
Polien –115
Pompey – 166
Pontiy Pilat – 176
Rixtgofen F. –148
Salavk – 128
Sargon I – 47
Sezar – 166
Sin Shixuandi – 69
Sofokl – 107
Solon – 97










Spartak – 164
Spitaman – 123
Strabon – 9
Tarkviniy – 153
Trayan – 168
Tutanxamon – 38
Tutmos II – 33
Tutmos III – 33
To‘maris – 114
U-Di – 149
Vima Kadfiz – 143
Xammurapi – 48
Xufu (Xeops) – 36
Yaxmos – 33
Yevtidem – 130
Zardusht – 81
Shampolyon J.-F. – 41
Shiroq – 115





www.idum.uz saytidan yuklab olindi

Qadimgi dunyo tarixi [Matn] : 6-sinfi uchun darslik / A. S. Sagdullayev, V. A. Kostetskiy – Toshkent :Respublika talim markazi, 2022. – 192 b.

УЎК 94(100)(075.3)
КВК 63.3(0)ya72

O‘quv nashri

ANATOLIY SAGDULLAYEVICH SAGDULLAYEV
VASILIY ANUFRIYEVICH KOSTETSKIY

QADIMGI DUNYO TARIXI

6-sinfi uchun darslik

Yangi nashri

Muharrir Ilhom Qosimov
Texnik muharrir Akmal Sulaymonov
Sahifalovchi Mirkomil Jo‘rayev
Musahhih Xurshidbek Ibrohimov
Dizayner Konstantin Kostetskiy
Rassom *Mohina Olimbekova*

Bosishga 23.06.2022-yilda ruxsat etildi. Ofset bosma. Bichimi 60x84 $^{1}/_{8}$.
“Arial” garniturasi. Kegli 12. Shartli bosma tabog‘i 22,09.
Nashriyot hisob tabog‘i 21,97.
Adadi _____nusxa. Buyurtma № _____.

www.idum.uz saytidan yuklab olindi

Ijaraga berilgan darslik holatini ko‘rsatuvchi jadval

T/r	O‘quvchining ismi va familiyasi	O‘quv yili	Darslikning olingandagi holati	Sinf rahbari-ning imzosi	Darslikning topshiril-gandagi holati	Sinf rahbari-ning imzosi
1						
2						
3						
4						
5						
6						

Darslik ijaraga berilib, o‘quv yili yakunida qaytarib olinganda yuqoridagi jadval sinf rahbari tomonidan quyidagi baholash mezonlariga asosan to‘ldiriladi:

Yangi	Darslikning birinchi marotaba foydalanishga berilgandagi holati.
Yaxshi	Muqova butun, darslikning asosiy qismidan ajralmagan. Barcha varaqlari mavjud, yirtilmagan, ko‘chmagan, betlarida yozuv va chiziqlar yo‘q.
Qoniqarli	Muqova ezilgan, birmuncha chizilib, chetlari yedirilgan, darslikning asosiy qismidan ajralish holati bor, foydalanuvchi tomonidan qoniqarli ta’mirlangan. Ko‘chgan varaqlari qayta ta’mirlangan, ayrim betlariga chizilgan.
Qoniqarsiz	Muqovaga chizilgan, yirtilgan, asosiy qismdan ajralgan yoki butunlay yo‘q, qoniqarsiz ta’mirlangan. Betlari yirtilgan, varaq-lari yetishmaydi, chizib, bo‘yab tashlangan. Darslikni tiklab bo‘lmaydi.